

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA-
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK №: 8-1/-9+8-3

XOLMATOV OYBEK UMARJON O‘G‘LI

**XX ASR O‘ZBEK VA G‘ARB PROZASIDA URUSH
ODAMLARI TALQINI**

(E.M.Remark va O‘.Hoshimov asarlari misolida)

mavzusidagi

Ixtisoslik: 5A 120101 – Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: A.Qosimov, filologiya fanlari doktori

Farg‘ona – 2020

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
 I BOB. Badiiy adabiyotda urush mavzusining genezisi va tarixiy taraqqiyoti	
1.1. Adabiyotshunoslikda urush mavzusining o‘rganilishi.....	10
1.2. Urush hodisasi va uning badiiy adabiyotdagi talqini masalasi.....	19
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	31
 II BOB. XX asr G‘arb va o‘zbek prozasida urush va inson tasviri	
2.1. Erix Mariya Remark romanlarida urush odamlari obrazi.....	32
2.2. O‘tkir Hoshimov nasrida patsifizm g‘oyasining ifodalanishi.....	41
Bob bo‘yicha qisqa xulosa	52
 III BOB. Erix Mariya Remark va O‘tkir Hoshimov romanlarida obrazlar tipologiyasi	
3.1. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida askar obrazining badiiy talqini	53
3.2. “Uch og‘ayni” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida “yo‘qotilgan avlod” muammosi	64
Bob bo‘yicha qisqa xulosa	76
Umumiy xulosa.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	79

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ko‘plab sohalar qatori adabiyot sohasida ham jiddiy islohot va o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi zamonda adabiyotimiz tobora yangi bosqichga, baland pog‘onalarga ko‘tarilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘timiz ham albatta bo‘ladi”¹ – deb bejizga ta’kidlamagan. Bu orqali yurtboshimiz adabiyotimizning yanada yuksalayotganiga, yanada ravnaq topishiga ishonch bildirgan. Bugungi kunda jahon xalqlari bilan iqtisodiy, siyosiy sohalar qatorida madaniy sohalarda, xususan adabiyot va san‘at bo‘yicha ham hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilib, rivojlantirilmoqda. Bu omil, ayniqsa, qiyosiy adabiyotshunoslik rivojida muhim o‘rin tutadi.

Asl adabiyot millat va mentalitet tanlamaydi. Umuminsoniy mavzularda yozilgan asarlar barcha xalqlar tomonidan ijobiy qabul qilinib, ma’naviy taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Bu borada urush mavzusida yaratilgan, patsifizm va tinchlikparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan asarlar alohida o‘rin tutadi.

Badiiy adabiyot san‘atning bir turi sifatida insoniyat tarixi bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Xalqlar va davlatlarning paydo bo‘lishi, sivilizatsiyalar, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ko‘tarilish davrlari, shuningdek, inqiloblar, urushlar, davlatlarning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishi hamda shu kabi boshqa muhim tarixiy hodisalar badiiy adabiyotda o‘z ifodasini topadi. Insoniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lgan urushlar badiiy adabiyotga ham ko‘chgan bo‘lib, so‘z san‘ati tarixida alohida o‘rin tutadi. Asrlar davomida turli sabablar: diniy, milliy, siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko‘ra urushlar bo‘lib o‘tgan. Ularda ko‘plab insonlar halok bo‘lgan, mayib-majruh bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan. Shuningdek, bu

¹O‘zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvdagi nutqdan. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 3-avgust.

urushlarda bir qancha tarixiy shaxslar qahramonlik, jasorat hamda vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib, kelajak avlodlarga ibrat bo'ladigan ishlarni amalga oshirganlar. Ular ta'sirida keyinchalik bir qator qahramonlik eposlari, dostonlar, jangnomalar, afsonalar, ular asosida yozma dostonlar ham yaratilgan. "Alpomish", "Manas", "Gilgamish", "Mahabhorat", "Roland haqida qo'shiq" singari xalq og'zaki eposi namunalari, Gomerining "Iliada", Vergiliyning "Eneida", Firdavsiyning "Shohnoma" kabi yozma dostonlari shular jumlasidandir. Ushbu asarlarning asosiy qahramonlari yengilmas botir, tengsiz jangchi sifatida tasvirlangan. Umuman, qadimgi davr va o'rta asrlarda yaratilgan urush mavzusidagi asarlarda qahramonlik motivi yetakchi o'rinda turadi. Keyinchalik, asrlar davomida insoniyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergaan o'zgarishlar, ma'naviy taraqqiyot natijasida urush mavzusidagi asarlarning mohiyati ham o'zgargan. Shu tariqa, urushlar insoniyat hayoti va sivilizatsiyasining bir qismi sifatida badiiy adabiyotda ham aks etgan. Ayniqsa, XX asrga kelib ro'y bergan jahon urushlari va ularning salbiy oqibatlari dunyo adabiyotiga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazdi. Ushbu asrda jahon urushlaridan tashqari yana bir qator fojiali urushlar bo'lib o'tgan. "Sovuq urush", Vyetnam urushi, Yaqin Sharq mojarosi natijasida bir necha bor bo'lib o'tgan Arab – Isroil urushlari, Kashmir muammosi va Hindiston – Pokiston urushlari, afg'on urushi va boshqa shu kabi urushlarning fojiali oqibatlari badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, G'arb adabiyotida bu mavzuda ko'plab asarlar yaratildi. A.Barbyus, E.Xeminguey, E.M.Remark, R.Oldington kabi yozuvchilarning bir qator asarlari bunga misol bo'ladi.

O'zbek adabiyotida ham urush va uning jamiyatga ta'siri masalasi ifodalangan asarlar salmoqli o'ringa ega. Xususan, G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Shuhrat, A.Muxtor, S.Ahmad, E.Vohidov, O'.Hoshimov, N.Eshonqul, A.Normurodov, G'.Po'latov kabi shoir va yozuvchilarning asarlari fikrimizning dalilidir. Bunday asarlar qahramonlarining hayoti va taqdiri ular kim ekanligidan (frontdagi askar yoki frontdan uzoqda bo'lgan oddiy inson) qat'iy nazar, urush bilan bog'liq holda kechadi. Shuning uchun bu qahramonlarni umumiy nom bilan urush odamlari deb atash mumkin.

Demak, ushbu magistrlik dissertatsiyasida XX asr adabiyotida urush odamlari obrazi talqini masalasi tadqiqot markazida turadi. Aynan shu masala geografik joylashuvi, tili va madaniyati jihatdan bir-biridan uzoq bo'lgan nemis va o'zbek yozuvchilari: Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimovlarning asarlari tahlili asosida yoritildi. Zero, urush mavzusi badiiy adabiyotda eng ko'p uchraydigan mavzulardan biri bo'lib, bu mavzudagi asarlarning qahramonlari tipik xususiyatlari va o'ziga xos xarakterlari bilan ajralib turadilar. Asarlardagi patsifistik ruh, insonparvarlik va tinchliksevarlik tamoyillari yozuvchilarning millati, mentaliteti yoki dunyoqarashidan qat'iy nazar umuminsoniy xususiyat kasb etadi. Yuqoridagi xususiyatlar urush mavzusidagi asarlarning qiyosiy tahlili jarayonida ko'proq anglashiladi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi uning ilmiy yangiligi, tarbiyaviy ahamiyati va mustaqillik yillarida olib borilayotgan tinchlikparvarlik siyosatiga mos kelishida ko'rinadi. XX asr o'zbek va G'arb prozasi o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar, urush odamlari obrazlarining qiyosiy metod asosida o'rganilganligi ishning dolzarbligini belgilaydi.

Shuningdek, urush va inson munosabatlari aks ettirilgan asarlar g'oyaviy jihatdan urushni qoralash hamda tinchlikning qadrini teranroq anglashga xizmat qiladi. Bu orqali insonning ma'naviy kamolotiga katta yordam beradi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov ma'naviyat haqida shunday deydi: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat qildigan, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir."² Badiiy adabiyot birinchi navbatda ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Demak, dissertatsiyada tahlil etilgan asarlar insonparvarlik, tinchliksevarlik g'oyalarini ifodalashi bilan ahamiyatli bo'lib, bu mavzuning dolzarblik darajasini yanada oshiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda urush mavzusidagi asarlarning o'rganilishida chet el olimlaridan Ye.V.Staroverova,

² Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009

P.M.Toper, S.Haynes, D.Bevan, L.Goldenson, E.Krimmer, K.Makloulou, M.Norris, T.Riggs kabi mutaxassislar ish olib borganlar. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turli tarixiy davrlar, turli mamlakatlar adabiyotining urush mavzusiga oid asarlar tahlil qilinib, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, davr va qahramon, shaxs va jamiyat, tipik obrazlarning ifodalanishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek olimlari ham ushbu mavzu yuzasidan bir qator maqola, o'quv qo'llanma, ilmiy risola va darsliklarda fikr yuritganlar. Masalan, U.O'ljaboevning "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi muammolari"³ kitobida zamonaviy o'zbek harbiy romanlari tadqiq etilib, ulardagi obrazlarning turli xususiyatlari tahlil qilingan.

Asqad Muxtorning "Ko'hna dunyo qomusi"⁴ maqolasida jahon yozma adabiyotining urush mavzusidagi ilk asari hisoblanuvchi Gomerning "Iliada" dostoni bo'yicha qarashlar o'z ifodasini topgan.

Nemis yozuvchisi E.M.Remark romanlari yuzasidan H.Kleyn⁵, M.Parvanova⁶, O.Poxalencov⁷, I.Framkin⁸, S.Saidmurodov⁹, R.Qo'chqor¹⁰ kabi olimlarning maqolalari e'lon qilingan. Shuningdek, A.Qosimov va S.Xo'jayevlar hammuallifligida yaratilgan "XX asr chet el adabiyoti tarixi"¹¹ nomli o'quv qo'llanmasida ham Remark ijodi haqida muhim faktlar uchraydi.

Urush mavzusi yetakchilik qilgan II jahon urushi yillari o'zbek adabiyoti haqida, shuningdek O'tkir Hoshimovning hayoti, ijodi, asarlari tahlili yuzasidan N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, A.Rasulov hammuallifligida

³Ўлжабоев У. Ўзбек ҳарбий прозасида характер яратишнинг баъзи муаммолари. – Toshkent, 1989

⁴Мухтор А. Қўхна дунё қомуси. // Ҳомер. Илиада. – Тошкент: "Адабиёт ва санъат", 1988

⁵Klein H. Basic Attitude and Enemy Images in the Representation First World War by Remarque // War and Literature – 1989, 4, Vol. I

⁶Parvanova M. "...das Symbol der Ewigkeit ist der Kreis". Eine Untersuchung der Motive in den Romanen von Erich Maria Remarque. – Berlin: "Tenea", 2003

⁷Похаленков О.Е. Эрих Мария Ремарк и Арно Зурмински (проблема взаимодействия литературной традиции в военной прозе). // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2017, Т.9, вып.3

⁸Фрамкин И. Антифашистские романы Ремарка. // Ремарк Э.М. Избранное. – Москва: "Правда", 1990

⁹Саидмуродов С. Тинчлик номи ила. // Ремарк Э.М.. Лиссабондаги тун. – Т.: "O'ZBEKISTON", 2016

¹⁰Qo'chqor R. Mavjudlik muammosi // "Tafakkur" jurnali. 2014-yil, 4-son

¹¹Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет эл адабиёти тарихи. Фарғона, 2002

yozilgan “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”¹², Saydulla Mirzayevning “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”¹³ darsliklarida, Sobir Mirvaliyevning “O‘zbek adiblari”¹⁴ xrestomatiyasida muhim ma’lumotlar keltirilgan. O‘tkir Hoshimovning urush voqealari aks ettirilgan asarlari, xususan, “Ikki eshik orasi” romani haqida U.Normatov¹⁵, T.Rasulov¹⁶, Y.Solijonov¹⁷ singari olimlarning, “Tushda kechgan umrlar” romani haqida esa U.Normatov¹⁸, S.Ahmad¹⁹, Q.Norqobilov²⁰, U.To‘rayeva²¹ kabi tanqidchi va ijodkorlarning maqolalari e’lon qilingan. Biroq, aynan E.M.Remark va O‘.Hoshimov asarlaridagi urush odamlari obrazining o‘zaro qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot hali ishlanmagan edi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq holda bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. G‘arb va o‘zbek adabiyotida urush odamlari talqiniga bag‘ishlangan asarlarni o‘rganish, o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlab, tadqiq etish ushbu ishning maqsadidir.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusining qay darajada o‘rganilganligini aniqlash;
- badiiy adabiyotda urush mavzusining genezisi va tarixiy taraqqiyotini o‘rganish;
- E.M.Remark va O‘.Hoshimovlarning asarlari misolida XX asr G‘arb va o‘zbek prozasida urush va inson talqini masalasini tahlil qilish;
- Erix Mariya Remark romanlaridagi urush odamlari obrazlarini ilmiy

¹² Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Расулов А. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1999

¹³ Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005

¹⁴ Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari, – T.: “Fan”, 1993

¹⁵ Норматов У. Тақдирлар романи . “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1985-yil 27-noyabr

¹⁶ Расулов Т. Этикадлар романи. “Ўқитувчилар газетаси”, 1985-yil 20-dekabr

¹⁷ Solijonov Y. “Ikki eshik orasi”dan “Lolazor”ga o‘tguncha. “Sharq yulduzi” jurnali, 2001-yil 4-son

¹⁸ Норматов У. Бадий кашфиёт. “Ўзбекистон овози” gazetasi, 1996-yil 30-oktabr

¹⁹ Аҳмад С. Қўрқинчли тушлар. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1996-yil 25-sentabr

²⁰ Норқобилов Қ. Қизғалдоқ ва танк. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1993-yil 16-iyul

²¹ To‘rayeva U. Davr va qahramon. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2000-yil 2-son

tasniflash;

- O‘tkir Hoshimov asarlarida patsifizm g‘oyasining ifodalanishini o‘rganish;
- Erix Mariya Remark va O‘tkir Hoshimov asarlaridagi obrazlar tipologiyasi yordamida G‘arb va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi tipologik o‘xshashliklarni tadqiq etish;
- “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida tasvirlangan askar obrazining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- “Uch og‘ayni” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida ifodalangan “yo‘qotilgan avlod” muammosini ilmiy asosda o‘rganish;
- amalga oshirilgan ilmiy tahlillar asosida mavzuni xulosalash.

Tadqiqot obyekti. Dissertatsiya ishining bajarilishida Erix Mariya Remark hamda O‘tkir Hoshimovning urush mavzusidagi nasriy asarlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot predmetini yozuvchilar E.M.Remark va O‘.Hoshimovlarning urush mavzusidagi asarlari qahramonlarining obraz xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik, sotsiologik, badiiy-tahliliy, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- E.M.Remark va O‘.Hoshimovlar asarlarida tasvirlangan urush odamlari obrazlari tasniflandi, ushbu obrazlarning tipologik o‘xshashliklari qiyosiy tahlillar yordamida aniqlandi;
- “yo‘qotilgan avlod” muammosining G‘arb va o‘zbek adabiyotidagi talqini masalasi ilmiy asoslandi;
- uslubiy o‘ziga xosliklari ko‘rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi bo‘yicha ishlarni yaratish, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan adabiyotshunoslikka oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish ishiga mazkur tadqiqot natijalarining tadbiq etilishida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotshunoslikka oid lugʻatlardagi mavjud sharh, izohlarga qoʻshimchalar kiritish va takomillashtirishda, oʻzbek va Gʻarb prozasi oʻrtasidagi obrazlar tipologiyasi, mavzu va gʻoya yaqinligini koʻrsatishda qoʻllanilishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda olingan natijalar barkamol shaxsni tarbiyalash, insonparvarlik va tinchliksevarlik gʻoyalarini singdirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni muallif tomonidan 1 ta Respublika OAK tasarrufiga kiritilgan ilmiy jurnalda chop etilgan maqola, 3 ta ilmiy maqola va tezlarda oʻz ifodasini topgan.

1. Xolmatov O. E.M.Remark romanlarida urush va inson talqini. // “FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ”. – 2020-yil, 1-son.

2. Xolmatov O. E.M.Remark va Oʻ.Hoshimov romanlarida urush odamlari obrazi // “Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi 4-respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Fargʻona, 2018

3. Xolmatov O. Jahon va oʻzbek adabiyotida “yoʻqotilgan avlod” muammosi. // “Erkin Vohidov ijodining oʻzbek adabiyoti va maʼnaviy hayotimizdagi oʻrni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Fargʻona, 2018.

4. Xolmatov O. Qahramonlik dostonlarida jangovar epizodlar tasviri. // “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallari. – Fargʻona, 2020.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, har biri ikkitadan faslni oʻz ichiga olgan uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyhatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 82 sahifani tashkil etadi.

I BOB. BADIY ADABIYOTDA URUSH MAVZUSINING GENEZISI VA TARIXIY TARAQQIYOTI

1.1. Adabiyotshunoslikda urush mavzusining o'rganilishi

Urush mavzusi adabiyot va san'at tarixida muhim o'ringa ega. San'atshunoslikda urush mavzusidagi asarlar alohida janr sifatida shakllangan bo'lib, u batal janri deb ataladi. Bu janr, asosan, tasviriyl san'atda uchraydi.

“Batal” atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib, “jang” degan ma'noni anglatadi. Janr sifatida XV – XVI asrlarda shakllangan. Jang ko'rinishlari, urush va harbiyl hayot lavhalarini tasvirlash batal janrida asosiy o'rinda turadi. Podsho, fir'avn va sultonlarning zafarli yurishlari tasvirlari qadimgi Sharq miniaturalarida, Xitoy musavvirlarining asarlarida uchraydi. Yevropa rassomlaridan P.Uchello, P. Franchesko (Italiya), F.Goyya (Ispaniya), E.Delakrua (Fransiya), rus rassomlaridan V.Vereshchagin bu janrda muvaffaqiyatli ijod qilganlar. O'zbek tasviriyl san'atida Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy kabi musavvirlar, XX asrda esa M.Nabiyev, O'.Tansiqboyev, Z.Faxriddinov singari rassomlar jang lavhalari ishlangan san'at asarlarini yaratganlar²².

Adabiyotda ham urush va jang tasvirlari aks ettirilgan asarlar qadimiy tarixga ega. Qahramonlik eposlari, jangnomalar, turli xalqlarning bahodirlari haqidagi afsona va rivoyatlar shular jumlasidandir. Keyingi davrlarda yozma adabiyotda ham urush hodisasi keng miqyosda ifodalanib, badiiy adabiyotda salmoqli o'rinni egalladi. Buning natijasida adabiyotshunoslik ilmida urush mavzusidagi asarlarni o'rganish zaruriylati paydo bo'ldi. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida urush mavzusi keng miqyosda o'rganildi. Badiiy adabiyotda urush mavzusi tarixi, turli davrlar adabiyotida urush mavzusining tutgan o'rni kabi masalalar G'arb olimlaridan A.Vernon, T.Riggs, D.Bevan, K.Makloulin, E.Krimmer, L.Goldenson, M.Norris, S.Hayneslar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, rus olimlaridan T.M.Toper, Y.V.Staroverova, I.F.Gerasimova, Y.A.Rikunina, I.A.Tarasova kabi mutaxassislar ham ilmiyl tadqiqotlar olib

²² O'z.ME (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi). Birinchi jild. – Toshkent, 2000. www.wikipedia.uz

borganlar.

Aleks Vernonning “Urush. Tanqidiy qarashlar” (“War. Critical Insights”)²³ nomli ilmiy risolasi turli urushlarning badiiy talqiniga oid o‘n beshta maqola, shu jumladan Gomerning “Iliada”, Shekspirning “Genrix V”, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”, E.Xemingueyning “Alvido, qurol!” kabi asarlari tahlil etilgan ilmiy maqolalardan iborat. Shuningdek, bu risolaga jahon urushlari, fuqarolar urushi, harbiy asirlik, Vyetnam va Afg‘oniston urushlari mavzularida yozilgan asarlar haqida ma’lumot va ularni o‘qish bo‘yicha tavsiya hamda uslubiy ko‘rsatmalar ham kiritilgan. A.Vernon masalaga tarixiy omillar asosida yondashib, turli davrlardagi asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlaydi. Urush mavzusidagi asar qahramonlari qadimiy adabiy manbalarda ilohiy qudratga ega bo‘lgan, jasorat va qahramonlik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi obrazlar sifatida tasvirlanganini, XX asr adabiyotida esa bu xususiyat yo‘qolib, urush ishtirokchilari fojiali taqdir egalari sifatida aks ettirilganligini ta’kidlaydi. Demak, ushbu kitobda urush mavzusining badiiy adabiyotdagi tarixiy taraqqiyotiga asosiy urg‘u berilgan. Tomas Riggsning “Harbiy adabiyot” (“The Literature of War”)²⁴ nomli tadqiqotida ham G‘arb adabiyotida urush mavzusining ifodalanishi masalasi asosiy e’tibor markazida turadi. Kitobda o‘n ikkita keng hajmli maqolalar jamlangan. Ushbu kitob uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda urushlar tarixi haqidagi muhim ma’lumotlar, turli olimlarning nazariy qarashlari va ularga muallifning munosabati ifodalangan. Ikkinchi qismda urush voqealarining jonli guvohlari: sobiq askarlar, harbiy asirlikda bo‘lgan insonlar, urush mashaqqatlarini boshdan kechirgan ayollarning xotiralari bayon etilgan. Eng so‘nggi uchinchi bobda urushning shaxslar, jamoalar, madaniy hayot, adabiyot va insoniy qadriyatlarga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Adabiyotshunoslik uchun eng muhim ma’lumotlar shu bobda keltirilgan bo‘lib, unda qadimgi davrlardan to XX asr oxirlarigacha bo‘lgan davr G‘arb adabiyotida urush haqida yaratilgan asarlarning umumiy obzor ko‘rinishidagi tavsifi berilgan.

²³ Vernon A. War. Critical Insights. – Ipswich: “Salem”, 2013

²⁴ Riggs T. The Literature of War. – Detroit: “St.James”, 2012

Devid Bevan o'zining "Adabiyot va urush" ("Literature and War")²⁵ monografiyasiga jahon urushlari, Ispan urushi, Vetnam urushi, yangi mustamlakachilik urushlari haqidagi asarlar tahlil qilingan o'n to'rtta obzor maqolani kiritgan. Ularda G.Stayn, A.Barbyus, E.Xeminguey, A.Zegers, U.Folkner, R.Oldington kabi yozuvchilarning asarlari misolida badiiy adabiyotda urush talqini masalasiga urg'u beriladi. Shu bilan bir qatorda urushlar haqidagi tarixiy ma'lumotlar ham keltiriladi. D.Bevan umumiy G'arb adabiyotida urush mavzusi haqida obzor ma'lumotlar keltirgan bo'lsa, amerikalik olim Keyt Makloulin "Adabiy guruhlar" ("Companions to Literature")²⁶ kitobida faqat AQSH adabiyoti tarixida urush haqida yozilgan asarlarga davrma-davr to'xtalgan. Kitobda "Injil"da keltirilgan urush haqidagi rivoyatlardan boshlab klassik adabiyot namunalari, so'ng AQSH tarixi bilan bog'liq bo'lgan Amerika ozodlik urushi, 1861–1865-yillar fuqarolar urushi, Ispaniya urushi, I va II jahon urushlari, "sovuq urush", Koreya, Vyetnam urushlari va terrorizm hodisalarini aks ettirgan asarlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Bu kitobda AQSH adabiyotining turli davrlarida urush mavzusining umumiy va farqli jihatlari masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Nemis tadqiqotchisi Elizabet Krimmer esa o'zining "German adabiyotida urush tasviri" ("Representation of War in German literature")²⁷ kitobida urush mavzusining nemis adabiyotidagi talqinini yoritadi. Unda Napoleon bosqini, Germaniya inqilobi davri, jahon urushlari, Yugoslaviya mojarolari davrlarini aks ettirgan nemis yozuvchilarining asarlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Fridrix Shiller, Ernst Yunger, Erix Mariya Remark, Geynrix Byoll, Gyunter Grass, Peter Handke kabi adiblarning urush mavzusidagi asarlari umumiy tahlil qilingan. Ushbu kitobda "Qaroqchilar" (F.Shiller), "Po'lat bo'roni" (E.Yunger), "Qayerda eding, Odam Ato?" (G.Byoll), "Mushuk va sichqon" (G.Grass), "Daryolar bo'ylab sayohat: Serbiya haqiqati" (P.Handke) singari asarlar misolida nemis adabiyotida urush mavzusining tadrijiy evolyutsiyasini tadqiq etadi.

²⁵ Bevan D. Literature and War. – Amsterdam: "Rodopi", 1989

²⁶ McLoughlin K. Companions to Literature. – New-York: "Columbia University Press", 2009

²⁷ Krimmer E. Representation of War in German literature. – Cambridge, UK: "Cambridge University Press", 2000

Amerikalik tadqiqotchi Lorri Goldenson “XX asr harbiy she’riyati” (“XXth century Soldier-Poetry”)²⁸ qo‘llanmasida urush mavzusi doirasida ijod qilgan to‘rt amerikalik shoir: U.Ouen, V.Auden, K.Duglas, R.Jarrellarning she’rlarini tahlil qiladi. Kitobining “Vetnam urushi davri Amerika shoirlari” nomli maxsus bobida AQSH she’riyatida urush mavzusi masalasiga yanada kengroq to‘xtaladi. Yuqoridagi ilmiy asarlardan farqli ravishda ushbu tadqiqot ma’lum bir davr va adabiy tur bilan cheklanadi. L.Goldensonning ushbu tadqiqoti Amerika harbiy she’riyati bo‘yicha asosiy manba hisoblanadi. Margot Norrisning “XX asrda urush talqini” (“Writing War in XXth century”)²⁹ kitobida esa XX asr AQSH prozasida urush mavzusining ifodalanishi tadqiq etilgan. Bu kitob I va II jahon urushlari, Vyetnam, Arab – Isroil urushlarining adabiyotga ta’siri masalasiga bag‘ishlangan. E.Xemingueyning “Alvido, qurol!”, U.Folknerning “Askar mukofoti”, T.O’Brayansning “Yomg‘irli daryoda”, J.Uebbnig “Olovli kengliklar”, J.Morrisning “Bir urush tarixi”, N.Trippning “Ota, askar, o‘g‘il” asarlari misolida XX asr urushlarining AQSH prozasidagi talqini masalasiga e’tibor qaratilgan.

Ingliz olimi Semyuel Haynes “Urush tasviri: Birinchi jahon urushi va ingliz madaniyati” (“War Imagined: The First World War and English Culture”)³⁰ kitobida I jahon urushi yillari Angliya madaniy hayoti, shu jumladan, adabiyoti haqida batafsil ma’lumot beradi. Ayniqsa, ingliz yozuvchisi Richard Oldintonning “Urush va muhabbat” she’rlar turkumi, “Hamma odamlar – dushman”, “Qahramonning o‘limi”, “Polkovnikning qizi” romanlari, Robert Gravesning “David va Goliat”, Streych Lyuttonning “Nomdor g‘oliblar”, Grehem Grinning “Bu – jang maydoni”, Tomas Elliotning “Chiqindilar oroli” kabi asarlari haqida to‘xtalib, shu asarlar misolida birinchi jahon urushining Angliya adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri masalasiga e’tibor qaratadi. Bu kitobdan urush ta’sirida yaratilgan boshqa san’at asarlari, tarixiy va falsafiy asarlar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Ammo, ma’lumot va tahlillar faqat Angliya bilan chegaralanadi.

²⁸ Goldenson L. XXth century Soldier-Poetry. – New-York: “Columbia University Press”, 2003

²⁹ Morris N. Writing War in XXth century. – Charlottesville: “University Press of Virginia”, 2000

³⁰ Hynes S. War Imagined: The First World War and English Culture. – London: “Bodley Head”, 1990

Rus tadqiqotchisi Y.V.Staroverovanning “Badiiy adabiyotda “yo‘qotilgan avlod” (“Потерянное поколение в литературе”)³¹ qo‘llanmasida G‘arb adabiyotida I jahon urushidan keyin shakllangan “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishi tadqiq etilgan. Bu kitobda I jahon urushining adabiyotga ta’siri, “yo‘qotilgan avlod” atamasining kelib chiqishi, Ernest Xeminguey, Frensis Skott Fitsjerald, Richard Oldington, Erix Mariya Remark, Uilyam Folkner kabi ijodkorlarning bir qator asarlari misolida “yo‘qotilgan avlod” adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, bunday asarlarda urush va tinchlik, hayot va o‘lim, muhabbat va fojia kabi tushunchalar o‘rtasidagi munosabat aks ettirilishini alohida ta’kidlaydi.

Rus adabiyotida jahon urushlari talqini masalasi bir necha olimlarning e’tibor markazida bo‘ldi. Xususan, I.F.Gerasimovanning “Birinchi jahon urushining dastlabki davri rus harbiy she’riyatida vatanparvarlik motivi” (“Патриотические мотивы в русской военной поэзии начального периода Первой мировой войны”)³² nomli ilmiy maqolasida I jahon urushining rus she’riyatida tutgan o‘rni masalasi o‘rganilgan. 1914 – 1915-yillarda harbiy mavzuda, vatanparvarlik ruhida yozilgan she’rlar, xususan, F.Sologub, N.Agnivtsev, S.Gorodetsko, V.Bestujev kabi shoirlarning she’rlari tahlil qilingan. P.M.Toperning “Urush va tarix (Ulug‘ Vatan urushi mavzusidagi Sovet adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida)” (“Война и история (Советская литература о Великий Отечественной войне в контексте мирового литературного контекста))”³³ kitobida esa sobiq SSSR adiblari tomonidan II jahon urushi mavzusida yaratilgan asarlar tahlil etiladi. Konstantin Simonov, Mixail Sholoxov, Boris Polevoy, Mixail Svetlov, Aleksey Surkov, Anatoliy Safronov asarlari misolida Sovet adabiyotining jahon miqyosida tutgan o‘rni masalasiga alohida urg‘u beradi. II jahon urushi haqidagi asarlarning umumiy xususiyatlari, obrazlarning o‘xshash va o‘ziga xos jihatlari tadqiq etiladi.

³¹Староверова Е.В. Потерянное поколение в литературе – Санкт-Петербург: “Лицей”, 2005 <http://navoine.info/lost>

³²Герасимова И.Ф. Патриотические мотивы в русской военной поэзии начального периода Первой мировой войны // Вестник Нижегородского университета. Языкознание и литературоведение. – 2014, № 2. ст. 19 – 22.

³³Топер П.М. Война и история (Советская литература о Великий Отечественной войне в контексте мирового литературного контекста). – Москва: “Наука”, 1985.

O'zbek olimlaridan U.O'ljaboyev "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi muammolari"³⁴ kitobida XX asr o'zbek adabiyotida yaratilgan eng sara harbiy mavzudagi qissa va romanlar: Abdulla Qahhorning "Qizil yulduz" qissasi, Oybekning "Quyosh qoraymas", Shuhratning "Shinelli yillar", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" kabi romanlari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu asarlarda tasvirlangan urush kishilarining obraz xususiyatlari adabiy qahramon, xarakter va tip munosabatlari asosida o'rganilgan.

N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, A.Rasulovlar hammuallifligida yozilgan "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" darsligida II jahon urushi yillari adabiyoti haqida shunday fikr bildiriladi: *"1941–1945-yillar o'zbek she'riyati, nasri va dramaturgiyasida ham safarbarlik ruhi hukmron bo'ldi. G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda kabi ijodkorlar o'z she'rlarida vatanparvarlik va qahramonlik g'oyalarini ilgari surib, xalqni mardonavor kurashga da'vat etdilar. Bu davr adabiyotida lirika yetakchi tur bo'ldi."*³⁵

Saydulla Mirzayev ham o'zining "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmasida bu davr adabiyotiga, xususan, she'riyatiga baho berar ekan,, shunday fikrni ilgari suradi: *"Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Ikkinchi jahon urushi yillarida she'riyat qanchalik safarbarlik ruhini o'zida aks ettirmasin, baribir she'rlarning badiiy saviyasi pasayib ketmadi. Mualliflar yangicha ifodalar, badiiy kashfiyotlar topa oldilar. Ayniqsa, jangchining onasiga yoki sevgilisiga maktub tarzida yozilgan she'rlarda biz lirik turga xos bo'lgan hissiy kechinmaning ajoyib namunalarini ko'ramiz."*³⁶ Ayni paytda, ushbu darliklarda II jahon urushi yillari o'zbek adabiyotida lirika bilan birgalikda dramaturgiyaning ham muhim o'rin tutganligi, dramatik asarlarda tarixiy mavzuning yetakchi xususiyat kasb etganligi ta'kidlangan.

E.M.Remark ijodining o'rganilishi masalasida dunyo olimlaridan H.Kleyn, M.Parvanova, O.Poxalencov kabi tadqiqotchilar ilmiy ish olib borganlar.

³⁴Ўлжабоев У. Ўзбек ҳарбий прозасида характер яратишнинг баъзи муаммолари. – Toshkent, 1989

³⁵ Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Расулов А. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: "Ўқитувчи", 1999 – 51-бет

³⁶ Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, – T.: "Yangi asr avlodi", 2005 – 39-бет

H.Kleynning maqolasi³⁷ da Remarkning I jahon urushi mavzusidagi romanlari tahlil qilingan. Ijtimoiy voqelik va qahramon masalasi, urush va inson fojiasi tasviri kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, qahramonlar psixologiyasi tasviri jarayonida inson ongidagi evrilish jarayonlari tadqiqot markazida turadi. M.Parvanova³⁸ esa o'z tadqiqotida Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Qaytish", "Uch og'ayni" kabi romanlarini tahlilga tortib, ularda ifodalangan motivlar masalasiga asosiy e'tiborini qaratgan. "Taqdir", "o'lim", "do'stlik", "muhabbat", "ayriliq", "ong va ruhiyat" motivlarining Remark asarlarida keng ifodalanishini qayd etgan.

O.Poxalenkov o'z maqolasida nemis yozuvchilari E.M.Remark va A.Zurminskilarning urush mavzusidagi "G'arbiy frontda o'zgarish yoq" va "Otasiz yurt" romanlarining qiyosiy tahlili orqali nemis harbiy prozasida o'zaro ijodiy ta'sir masalasiga e'tibor qaratgan. Bu orqali nemis adabiyotida birinchi jahon urushining turli davr yozuvchilari tomonidan ifodalanishi bo'yicha ham muhim ma'lumotlar keltirgan. O.Poxalenkovning fikricha, bu romanlar qahramonlari "yo'qotilgan avlod" vakillari bo'lib, ularning asardagi hayoti 3 bosqichda kechadi: 1) odamlardan uzoqlashish; 2) front voqealari; 3) qayta tug'ilish.³⁹ Ushbu bosqichlar qahramonlarning ong va ruhiyatidagi jarayonlar asosida ajratiladi.

I.Framkinning "Remarkning antifashistik romanlari" ("Антифашистские романы Ремарка")⁴⁰ maqolasida nemis yozuvchisining II jahon urushi yillari voqealarini aks ettirgan muhojirlik mavzusidagi romanlari haqida umumiy so'z boradi. "Zafar darvozasi", "Hayot uchquni", "Lissabondagi tun" romanlari misolida Remark ijodida antifashizm ruhi katta o'rin tutishi, ushbu romanlarda avtobiografik xarakter yetakchi xususiyat kasb etishi alohida ta'kidlanadi.

O'zbek olimi Rahmon Qo'chqor "Mavjudlik muammosi"⁴¹ maqolasida

³⁷Klein H. Basic Attitude and Enemy Images in the Representation First World War by Remarque // War and Literature – 1989, 4, Vol. I

³⁸Parvanova M. "...das Symbol der Ewigkeit ist der Kreis". Eine Untersuchung der Motive in den Romanen von Erich Maria Remarque. – Berlin: "Tenea", 2003

³⁹Похаленков О.Е. Эрих Мария Ремарк и Арно Зурмински (проблема взаимодействия литературной традиции в военной прозе). // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2017, Т.9, вып. 3

⁴⁰Фрамкин И. Антифашистские романы Ремарка. // Ремарк Э.М. Избранное. – Москва: "Правда", 1990

⁴¹Qo'chqor R. Mavjudlik muammosi // "Tafakkur" jurnali. 2014-yil, 4-son

Remarkning “Uch og‘ayni” romani haqida to‘xtaladi. Maqolada olim romanning bosh qahramonlari emas, Grau, Roza, Xasse, Lili, Artur kabi ikkinchi darajali qahramonlariga asosiy e‘tiborini tortadi. Maqolada inson va borliq munosabati masalasi “Uch og‘ayni” romani qahramonlari vositasida talqin etiladi.

Saidjalol Saidmurodovning “Tinchlik nomi ila”⁴² nomli obzor maqolasida Remark ijodida tinchlikparvarlik prinsipi masalasi markaziy o‘rinda turadi. Muallif maqolada Remark romanlarini ikki guruhga ajratgan. Birinchi guruhga I jahon urushi mavzusida yozilgan, “yo‘qotilgan avlod”ga mansub qahramonlar haqidagi “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish”, “Uch og‘ayni”, “Qora haykal” kabi romanlarni, ikkinchi guruhga esa antifashistik xarakterda, muhojirlik mavzusida yozilgan romanlar: “Zafar darvozasi”, “Hayot uchquni”, “Hayot-mamot pallasi”, “Lissabondagi tun” asarlarini kiritgan.

O‘tkir Hoshimovning urush mavzusida yozilgan “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari haqida ham bir qator maqolalar e‘lon qilingan. Xususan, “Ikki eshik orasi” romani haqida yozilgan Umarali Normatovning “Taqdirlar romani”⁴³ maqolasida yozuvchining uslubi, obrazlar yaratish mahorati bilan bir qatorda taqdirlari urush bilan bog‘liq bo‘lgan qahramonlarning o‘ziga xos jihatlari, xarakter sifatleri tahlil qilingan. Asarning asosiy personajlari: Muzaffar, Shomurod, Robiya, Orif oqsoqol, Husan duma, Umar zakunchi, Ra‘no, Kimsan singari qahramonlar taqdiri misolida XX asr o‘zbek adabiyotida urush odamlari obrazining tipik xususiyatlari masalasi ham talqin etilgan. T.Rasulovning “E‘tiqodlar romani”⁴⁴ maqolasi ham “Ikki eshik orasi” romani haqida bo‘lib, unda romanning axloqiy-didaktik xususiyatlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Asar qahramonlarining ichki nutqlari tahlili vositasida yozuvchining psixologik tasvir mahoratiga ham yuqori baho berilgan.

“Tushda kechgan umrlar” romani bo‘yicha U.Normatovning “Badiiy kashfiyot”⁴⁵, S.Ahmadning “Qo‘rqinchli tushlar”⁴⁶, Q.Norqobilovning “Qizg‘aldoq

⁴² Saidmurodov S. Тинчлик номи ила. // Ремарк Э.М. Лиссабондаги тун. – Т.: “O‘ZBEKISTON”, 2016

⁴³ Normatov U. Тақдирлар романи. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1985-yil 27-noyabr

⁴⁴ Ётиқодлар романи. “Ўқитувчилар газетаси”, 1985-yil 20-dekabr

⁴⁵ Normatov U. Бадий кашфиёт. “Ўзбекистон овози” gazetasi, 1996-yil 30-oktabr

va tank”⁴⁷, U.To‘rayevaning “Davr va qahramon”⁴⁸ kabi maqolalari chop etilgan bo‘lib, ularda romanga yozuvchining badiiy mahorati, qahramon va xarakter, obrazlar tipologiyasi, ijtimoiy hayot tasviri kabi masalalar yuzasidan yondashilgan. Jumladan, U.Normatov romanni g‘oyaviy tomondan tahlil qilish jarayonida muallif uslubi, asar syujeti va kompozitsiyasining o‘ziga xosligi bo‘yicha ham fikr bildirib o‘tgan. S.Ahmad va Q.Norqobilovlar ushbu romanga tanqidchi sifatida emas, ijodkor sifatida baho berib, asarning badiiy xususiyatlari, qahramonlarning ruhiy holati tasvirlariga alohida e‘tibor qaratgan. U.To‘rayeva esa o‘z maqolasida romanda aks ettirilgan shaxs va jamiyat muammosi, davrning global ijtimoiy muammolari talqini masalasiga urg‘u bergan. Bulardan tashqari, Said Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, Abdug‘ofur Rasulovning “Ardoqli adib”, Yo‘ldosh Solijonovning “Ko‘zgudagi hayot” kitoblarida ham “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlari haqida turli yondashuvlar asosidagi talqinlar keltirilgan.

Xullas, jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusi bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy tadqiqot, maqola, o‘quv qo‘llanma, monografiyalar yaratilgan. Ularda urush mavzusining badiiy adabiyotdagi o‘rni, turli davrlar va mamlakatlar adabiyotida urush odamlari obrazlarining turli talqinlari, harbiy she‘riyat va prozada mavzu, g‘oya va motiv ifodasi, “yo‘qotilgan avlod” muammosi, jahon urushlarining badiiy adabiyotga ta’siri kabi masalalar o‘rganilgan.

1.2. Urush hodisasi va uning badiiy adabiyotdagi talqini masalasi

Urush deganda ijtimoiy guruhlar, millatlar, dinlar, davlatlar va harbiy-siyosiy bloklar o‘rtasidagi ziddiyatlarning qurol kuchi vositasida hal qilinishi tushuniladi. Urush hodisasi insoniyat tarixining eng ko‘p kuzatiluvchi jarayonlaridan biridir. Urushlar kelib chiqishining omillari turlicha bo‘lib, bu omillar urushning xususiyati va sodir bo‘lgan davriga bog‘liq. Urushlarni maqsadi, kelib chiqish asosi yoki ko‘lamiga ko‘ra shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish

⁴⁶ Аҳмад С. Қўрқинчили тушлар. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – 1996-yil, 25-sentabr

⁴⁷ Норқобилов Қ. Қизғалдоқ ва танк. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – 1993-yil, 16-iyul

⁴⁸ To‘rayeva U. Davr va qahramon. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. – 2000-yil, 2-son

mumkin: 1) jahon urushlari; 2) milliy urushlar; 3) fuqarolar urushi; 4) diniy urushlar; 5) ozodlik urushlari; 6) mustamlakachilik urushlari. Urush insoniyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Davlatchilik taraqqiyoti, imperiyalarning paydo bo'lishi yoki barham topishi, jahon siyosiy xaritasining o'zgarishi kabi tarixiy hodisalar bevosita urush bilan bog'liq holda ro'y bergan. Bu muhim jarayonlar badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topgan.

Urush va qahramonlarning jasoratlari haqidagi asarlar qadimiy tarixga ega. Barcha xalqlarning og'zaki ijodida qahramonlik eposlari va jangnomalar mavjud bo'lib, ular urush hodisalarini o'zida aks ettirgan dastlabki asarlar hisoblanadi. Qadimgi Yunoniston va Rim afsonalarida, shuningdek, Gomerining "Iliada", Vergiliyning "Eneida" dostonlarida tasvirlangan Gerakl, Tesey, Axilles, Ayaks, Odissey, Eney kabi bahodirlar, rus folklori qahramonlari: Ilya Muromets, Dobrinya Ivanovich, Alesha Popovich obrazlari, "Roland haqida qo'shiq" (fransuz jangnomasi), "Sid haqida qo'shiq" (ispan qahramonlik dostoni), "Nibelunglar haqida qo'shiq" (nemis xalq eposi), "Beovulf haqida doston", "Xildebrant haqida qo'shiq" (german qabilalari qahramonlik qo'shiqlari), "Artur va dumaloq stol" (Britaniya ritsarlik romanlari turkumi); Sharq xalqlari adabiyotida esa "Ramayana", "Mahabhorat" (hind xalq eposlari), "Gilgamish" (Mesopotamiya afsonasi), "Manas" (qirg'iz xalq eposi), "Qirg'iz" (qoraqalpoq xalq dostoni), Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni kabilar shular jumlasidandir. Ularda qahramonlarning kuch-qudratini, fazilatleri va ma'naviy qiyofasini tasvirlashda urush asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Qahramonlarning botirlik, mardlik, vatanparvarlik, matonat va qat'iyat kabi xislatlari aynan urush epizodlari orqali bo'rtib ko'rinadi.

Qadimgi yunon afsona va miflarining "Troya" turkumidan o'rin olgan afsonalar asosida yaratilgan Gomerining "Iliada" dostoni jahon yozma adabiyotining urush mavzusida yaratilgan dastlabki asari hisoblanadi. Adabiyotshunoslar "ko'hna dunyo qomusi" deya ta'rif beradigan bu doston uzoq muddat qadimgi Yunoniston va Rim bilim yurtlarida asosiy manba bo'lib xizmat

qilgan.⁴⁹ Ushbu asarning qahramonlari: Axilles, Ayaks, Gektor, Odissey, Agamemnon, Menelay, Diomed kabilarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda urush tasvirlari muhim rol o'ynaydi. Bu holat ayniqsa doston bosh qahramoni Axilles obrazi tasvirida aniqroq ko'rinadi. Axilles – jasoratlarga, qahramonliklarga tashna, qo'rquvni bilmaydigan obraz. U qadimgi yunon xalqining botir jangchi haqidagi ideallarini mujassamlashtirgan obraz bo'lib, yengilmas va tengsiz qahramon sifatida tasvirlanadi. Bolaligida onasi Fetida uni Stiks daryosida cho'miltiradi. Natijada Axillesning tanasi o'q o'tmaydigan bo'lib qoladi. Faqatgina, uning suv tegmay qolgan tovonigina nozik nuqtasi edi. Bunday “o'q o'tmaslik” va “nozik joy” kabi belgilar sayyor xususiyatga ega bo'lib, bir qator boshqa xalq folklorlarida, xususan nemislarning “Nibelunglar haqida qo'shiq” eposi qahramoni Zigfrid obrazida ham uchraydi.

Voyaga yetgach, Axill butun Ellada jangchilari ichidagi tengsiz bahodirga aylanadi. Uning jangovar qobiliyati, chaqqonligi mukammal darajada edi. “Iliada” dostonida Axillesga nisbatan “chaqqonoyoq” degan sifatlash qo'llanilishining sababi ham mana shunda edi. Biroq Axilles nafaqat jismoniy imkoniyatlari va jangovarligi bilan, balki o'zining yuksak ma'naviy qiyofasi bilan ham ajralib turardi. Qahramonning yuqoridagi barcha xislatlari “Iliada” dostoni voqealari orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Dostonda o'n yillik urushning ma'lum bir davrigina tasvirlangan. Voqealar markazida Axillesning yunon qo'shinida tutgan o'rnini masalasi turadi. Muallif bu urush qanday boshlangani, o'ninchi yilgacha nimalar yuz bergani va urush qanday tugaganiga to'xtalmaydi. Chunki asardan ko'zlangan asosiy maqsad Troya urushi voqealarini batafsil bayon etish emas, ushbu katta urushdagi kichik bir voqelik asosida Axillesning buyukligini ko'rsatish edi. Troyaliklarning o'n yil davomida Axillesdan qo'rqib shahar tashqarisiga chiqishga jur'at qila olmaganliklari, uning Agamemnon bilan janjallashib, jangdan bosh tortganidan so'ng troyaliklarning qo'li baland kela boshlagani, Axilles jangga qaytgach ustunlik yana yunonlar tomonga o'tishi, u mahv etgan dushman jangchilarining son-sanoqsiz jasadlaridan Ksanf daryosiga to'g'on paydo bo'lishi

⁴⁹Мухтор А. Кўҳна дунё комуси. // Ҳомер. Илиада. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1988 – 7-бет.

kabi epizodlar ushbu qahramonning cheksiz jangovar qudratini aks ettiradi. Do'sti Patroklning o'limidan larzaga tushib, qattiq faryod qilishi, do'stining jasadi tepasida tinimsiz ko'zyosh to'kishi, Patrokl uchun qasos olish yo'lida hech narsadan qaytmasligi do'stga bo'lgan mehr-muhabbatini; o'g'li Gektorning jasadini so'rab kelgan dushman podshosi Priamga shafqat qilib, o'z ontini buzgan holda jasadni qaytarib berishi Axillesdagi tantilik va oliyjanoblikni ko'rsatadi. Mana shu belgilarga asoslangan holda A.Alimhammedov o'zining "Antik adabiyot tarixi" darsligida Axilles obraziga quyidagicha ta'rif beradi: "*Axilles nafrat va sadoqatda, sevgi va g'azabda, qasos va muruvvatda bab-baravar ulug'dir*"⁵⁰. Bunday misollarni yana ko'plab asarlar orqali keltirish mumkin.

To'g'ri, ayrim asarlarda urushning vayronkor mohiyati, uning insonlar boshiga soladigan iztiroblari ham ko'rsatilgan. Xususan, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarining Siyovush haqidagi qismida Turon hukmdori Afrosiyobning tush ko'rishi bilan bog'liq voqea bayon qilinadi. Dahshatli tushdan so'ng saroy a'yonlari bilan kengashgan Afrosiyob Eron bilan sulh tuzishga qaror qiladi. Ikki tomonning o'zaro kelishuvi bilan sulh tuziladi. O'sha parcha so'ngida keltirilgan quyidagi baytlar bugungi kun uchun ham ahamiyatli:

*Eron bilan Turon bir edi doim,
Nizo bilmay yashar erdi ko'p qoyim,

Faridundek oqil bo'lsak bo'lmasmi,
Dunyoni beurush bo'lsak bo'lmasmi?

Avf etib, yuz bursak ezgulik tomon,
Urush unutilsa, yo'qolsa yomon.

Bu ishlardan ogoh bo'liboq Rustam,
Gumoni qolmadi, bo'ldi xotirjam.*⁵¹

⁵⁰ Алимхаммедов А. Антик адабиёт тарихи. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1969 – 25-бет.

⁵¹ Qo'chqorov R., Ahmedov S. Adabiyot, 8-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2006 – 337-bet

Ko‘rinib turganidek, ushbu parchada sulh tasviri vositasida mamlakatlar o‘rtasidagi urush, xalqlar o‘rtasidagi jang-u jadal, odamlar orasidagi nizoni bartaraf etish, vayronkor urushni qoralovchi patsifizm g‘oyasi ilgari surgandek bo‘ladi. Lekin ushbu sulh har ikki tomonning tashabbusi bilan emas, Afrosiyobning qo‘rqinchli tushi ta’biridan cho‘chishi natijasida sodir bo‘ldi. Afrosiyobning tushida tasvirlangan Eron qo‘shining qudrati, Eron bahodiri Siyovushning ta’rifi e’tiborga olinsa, Turon hukmdorining sulhga intilishi tinchliksevarlikdan emas, balki Siyovush boshliq Eron lashkaridan qo‘rqqani sababli yuz berganligi anglashiladi. Demak, ushbu parchada tuzilgan sulh tasvirida tinchliksevarlik g‘oyasini ifodalashdan ko‘ra Siyovush va Eron lashkarining qudratini madh etish ruhi ko‘proq o‘rinni egallaydi.

Urush hodisasiga bo‘lgan munosabat o‘rta asrlar Yevropasida diniy tus olib, ritsarlik adabiyotida faol o‘rin oldi. Ayniqsa, qirol Artur va uning jangchilari haqidagi ritsarlik romanlari bu borada ajralib turadi. Ulardagi Lonselot, Iven, Erek va boshqa shu kabi qahramonlarning jasoratlari mahbubaga ritsarcha xizmat va xristiancha sadoqat ko‘rinishida tasvirlangan. Bu asarlarda bosh qahramonlar Vatan va xalq manfaati uchun emas, o‘z ma’shuqasi oldidagi burchini bajarish uchun harakat qiladilar. Shu xususiyatiga ko‘ra o‘rta asr ritsarlik romanlari qahramonlari qadimgi xalq eposi qahramonlaridan farq qiladilar.

O‘zbek adabiyoti tarixida ham urush mavzusidagi asarlar yetarlicha uchraydi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining qahramonlik va jangnoma ruhidagi dostonlari, xususan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Hasanxon”, “Xoldorxon” kabi dostonlarda, yozma adabiyotimizda esa Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” (o‘zbek yozma adabiyoti tarixidagi dastlabki jangnoma-doston) kabi asarlarida urush tasvirlari muhim o‘ringa ega. Ularda ham jahon adabiyotining qadimgi namunalarida bo‘lganidek, urush qahramonlik va ulug‘vorlikni alohida ko‘rsatib beruvchi vosita sifatida tasvirlangan. “Alpomish”da bosh qahramon Hakimbek(Alpomish)ning Toychixon boshliq qalmoq qo‘shini bilan janggi, “Ravshan” dostonidagi Hasanxonning aka-uka kallar bilan birgalikda

dushmanlarning dodini berishi tasvirlari qahramonlarning jangovar xislatlarini boʻrttirib ifodalagan boʻlsa, “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning Doro ustidan qozongan gʻalabasi orqali adolat tantanasi gʻoyasi ifodalangan. “Shayboniynoma” dostonida hukmdorning qudratini ifodalashda uning qoʻshini janglarda koʻrsatgan bahodirlik va jasorat namunalarini madh etish holatlari koʻzga tashlanadi. “Boburnoma”da esa muallifning oʻz boshidan kechirgan janglari, harbiy yurishlari realistik usulda ifodalangan.

XIV – XV asrlarga kelganda Gʻarbiy Yevropa ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy oʻzgarishlar yuzaga kela boshladi. Gumanizm gʻoyalari shakllanib, taraqqiy etdi. Bu jarayon adabiyotga ham oʻz taʼsirini oʻtkazib, eskicha anʼanaviy gʻoya va mavzular oʻrnini yangicha qarashlar egallay boshladi. Bu jarayon Sharq mamlakatlari, xususan, musulmon Sharqida ancha vaqt oʻtib, juda sekinlik bilan roʻy berdi. Sharq mamlakatlari adabiyotida (shu qatori oʻzbek adabiyotida ham) anʼanaviylik, turgʻunlik yana uzoq davom etdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelibgina bu yerlarda oʻzgarish va rivojlanish jarayoni boshlandi. Bundan farqli ravishda Gʻarbiy Yevropada yangi fikrli faylasuf va sanʼatkorlar avlodi yetishib chiqdilar. Natijada XIV – XVI asrlar Renessans (Uygʻonish davri) deb tarixga kirdi. Dante Alligeri, Franchesko Petrarka, Jovanni Bokachcho (Italiya), Fransua Rable (Fransiya), Uilyam Shekspir (Angliya), Migel de Servantes (Ispaniya) kabi adiblar ijodi natijasida adabiyotda yangi oqimlar paydo boʻldi. Ayniqsa, Migel de Servantesning “Don Kixot” romani urush va jangovar qahramonlik mavzusidagi ritsarlik romanlarining obroʻsini butunlay pasaytirib yubordi. Yozuvchining oʻzi taʼkidlaganidek, “ritsarlik romanlarini sidirgʻasiga fosh etish”⁵² maqsadida yaratilgan ushbu asar realistik romanchilikka asos soldi. Ushbu romanda satirik uslubda oʻrta asr ritsarlik romanlari keskin tanqid ostiga olinadi. Don Kixot obrazining ritsar boʻlish va jasoratlar koʻrsatish yoʻlidagi xomxayollari tasviri vositasida real hayotga mos kelmaydigan jangnoma va qahramonlik mavzusidagi ritsarlik romanlari rad etiladi.

XVIII – XIX asrlarda Yevropa ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yanada

⁵² Қажумов О. Чет ел адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1979 – 242-бет.

olgʻa siljishlar roʻy berdi. Buning natijasida adabiyotda turli oqimlar yuzaga keldi va taraqqiy etdi. Maʼrifatchilik, romantizm va tanqidiy realizm kabi yoʻnalishlarda ijod qilgan adiblarning asarlarida yangi davr, yangicha qarashlar ifodalandi. Bu davrlarda yaratilgan asarlar markazida, avvalo, inson qalbi, shaxs erkinligi singari taraqqiyparvar gʻoyalar turadi. Shuningdek, urushning gʻayriinsoniy mohiyati, insonlar boshiga soladigan kulfatlari ham oʻz aksini topdi. Masalan, mashhur fransuz adibi Viktor Gyugoning “Toʻqson uchinchi yil” romanida shu xususiyat mavjud. Ushbu asarda “Buyuk fransuz burjua inqilobi” (1789–1794) yillari voqealari tasvirlangan. Fransuz zodagonlaridan biri, inqilobga qarshi boʻlgan markiz de Lantenak inqilobchilar hukumatiga qarshi urush olib boradi. Unga qarshi yuborilgan Goven boshliq respublika qoʻshinlari Lantenak armiyasini magʻlub etadi. Lantenak eski qalʼaga yashirinib, qamalda qoladi. Dushmanga taslim boʻlishni istamay, qalʼaga oʻt qoʻyib yuboradi. Oʻzi esa fursatdan foydalanib, qochib ketmoqchi boʻladi. Biroq bir necha bolalari bilan qalʼa ichida qolib ketgan Fleshar ismli ayol dod soladi. Bu faryodni eshitgan Lantenak ortga qaytib, ayol va uning bolalarini olov ichidan olib chiqadi, buning natijasida oʻzi dushman qoʻliga asir tushadi. Lantenak hukumat tomonidan oʻlimga hukm qilinadi. Ammo Lantenakning xaloskorligini oʻz koʻzi bilan koʻrgan Goven uni yashirincha ozod qilib yuboradi. Shunday qilib, asar qahramonlari taqdiri misolida mehr-shafqat, insonparvarlik masalasi ilgari suriladi va urush qoralanadi. Bunday misollarni yana koʻplab uchratish mumkin. Masalan, fransuz yozuvchisi Prosper Merimening “Karl XIX saltanati solnomasi” asarida diniy urushlar, fuqarolik urushlari; buyuk ingliz shoiri Jorj Bayronning “Chayld Garoldning ziyoratlari” dostonida esa mustamlakachilik urushlari qoralanadi. Shu tariqa adabiyotda urushga nisbatan salbiy munosabat koʻproq oʻrin egallashda davom etdi.

XIX asr rus adabiyotida ham urush mavzusi muhim oʻringa ega. 1812-yilda boʻlib oʻtgan mashhur Borodino jangi, shuningdek, qariyb oʻttiz yil davom etgan Kavkaz urushi voqealari rus adiblarining asarlarida oʻz ifodasini topdi. L.Tolstoyning “Sevastopol hikoyalari” turkumida, “Urush va tinchlik” epopeyasida Fransiya – Rossiya urushi, A.Pushkinning “Kavkaz asiri”, M.Lermontovning

“Qochqin” dostonlarida, Lev Tolstoyning “Hojimurod” qissasida Kavkaz urushi voqealari tasvirlanadi. Ushbu asarlar qahramonlari jangovar jasoratlarga moyil holatda emas, aksincha, urushdan aziyat chekkan, jabrlangan insonlar sifatida tasvirlangan. Bu orqali urushning salbiy oqibatlari, vayronkor mohiyati ochib beriladi.

XX asrga kelib G‘arb adabiyotida urushga qarshi kayfiyat yanada kuchayib, adabiy jarayonda yetakchi o‘ringa chiqdi. Buning asosiy sababi jahon urushlari va ularning fojiali asoratlari bo‘ldi. Birinchi jahon urushidan keyingi davrda G‘arb mamlakatlarida patsifizm ruhi hukm surdi. Bu esa badiiy adabiyotda ham o‘z ifodasini topdi. I jahon urushining g‘ayriinsoniy mohiyatini ilk bor badiiy aks ettirgan asarlar fransuz yozuvchisi Anri Barbyusning “O‘t”, “Ravshanlik” kabi romanlarini hisoblanadi. “O‘t” romani haqida Q.Azizov va O.Qayumovlar hammuallifligida yozilgan “Chet el adabiyoti tarixi” darsligida quyidagicha ta’rif beriladi: *“Urush o‘zining qizg‘in pallasidaligidayoq yozib tugatilgan “O‘t” romani G‘arbiy Yevropa adabiyotida hammadan oldin imperialistik urush dahshatlarini fosh etibgina qolmay, keng xalq ommasiga bu urushni qanday qilib bartaraf etish yo‘lini ham ko‘rsatib berdi”*.⁵³ Bu romanning ikkinchi nomi “Bir vzvodning kundaligi” bo‘lib, 1916-yilda yozilgan. Roman qahramonlari I jahon urushida qatnashayotgan askarlarning tipik obrazlari sifatida tasvirlangan. Asardagi jangchilar afsonaviy qahramonlar emas, urushdan charchagan, azob chekkan, mansab va mukofotlarni emas, balki tinch hayot va o‘z oilasiga qaytishni orzu qiluvchi jonli, realistik obrazlardir. Yozuvchi romanda Bertran obrazi orqali urush borasidagi o‘z g‘oyalari va qarashlarini ifodalaydi. Bertran G‘arbiy Yevropa va butun dunyoda ko‘p sonli insonlarning halokatiga sabab bo‘layotganligiga guvoh bo‘ladi. Natijada Bertran bunday urush xalqqa umuman begona ekanligini anglab yetadi. Asar davomida fransuz askarlarining ko‘pchiligi asl haqiqatni tushunib yeta boshlaydi. Ular urush faqat hukmron doiralargagina naf keltirishini, urushga siyosatchilar uqtirganidek faqat nemislar emas, hamma davlatlar baravar aybdor ekanligini tushunib yetadilar. Shuning uchun askarlar “nemislarni emas,

⁵³ Азизов Қ., Қайумов О. Чет ел адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1987 – 229-бет

urushni yengish kerak”, degan xulosaga keladilar. Ushbu roman haqida taniqli yozuvchi Ernest Xeminguey: *“U birinchi bo‘lib maktab yoki talabalar partasidan urush domiga tushgan yoshlarga bu ommaviy, mudhish qotilliklarga qarshi norozilik bildirish mumkinligini ko‘rsatdi”*⁵⁴, – deb yozgan edi. A.Barbyus I jahon urushning asl mohiyatini birinchi bo‘lib fosh etdi va uni yengish uchun ozodlik kurashi olib borish kerakligini ko‘rsatdi. Shuning uchun bu roman umidvorlik ruhi bilan tugaydi: *“Qora bulutlar orasidan asta-sekinlik bilan yorug‘lik shu‘lasi ko‘rina boshladi. Bu nur qanchalik zaif bo‘lmasin, baribir osmonda quyoshning borligidan dalolat beradi.”*⁵⁵ “O‘t” romanining yaratilishi keyingi adabiy jarayonlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayni paytda, urushning asl mohiyatini fosh etuvchi, urush dahshatlarini haqqoniy tasvirlagan asarlar bilan bir qatorda sobiq askarlarning urushdan keyingi hayoti va taqdirini aks ettirgan asarlar ham yaratildi. Ushbu asarlarning A.Barbyusning “O‘t” romaniga o‘xshashlikdan tashqari, farqli tomonlari ham bor. Barbyus romanlarida kelasi hayotga bo‘lgan ishonch ruhi, kurashga chorlovchi da’vat mavjud. Keyingi ijodkorlarning asarlarida esa fojiaiylik, tushkun kayfiyat ustun turadi.

Birinchi jahon urushi ta’sirida G‘arb adabiyotida “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishi vujudga keldi. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti vakillariga misol sifatida Ernest Xeminguey, Skott Fitsjerald, Erix Mariya Remark, Richard Oldington, Uilyam Folkner kabi yozuvchilarni keltirish mumkin. Ular yaratgan “Jannatning bu tomoni bo‘ylab”, “Go‘zallar va halokatga mahkumlar”, “Buyuk Getsbi” (F.S.Fitsjerald), “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish”, “Uch og‘ayni”, “Qora haykal” (E.M.Remark), “Quyosh baribir chiqaveradi”, “Alvido, qurol!” (E.Xeminguey), “Askar mukofoti” (U.Folkner) kabi romanlarda urush tufayli hayoti izdan chiqqan insonlarning taqdiri va o‘y-kechinmalari realistik obrazlar vositasida tasvirlandi.

XX asr 30-yillaridan boshlab fashizmning kuchayishi, xalqaro siyosiy vaziyatning keskinlashuvi natijasida yangi urush xavfi paydo bo‘ldi. Dunyoning

⁵⁴ Qosimov A., Xo‘jayev S. XX asr G‘arb adabiyoti. – Toshkent: “Akademnashr”, 2011 – 78-bet

⁵⁵ Азизов Қ., Қаюмов О. Чет ел адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1987 – 231-бет.

ilg'or yozuvchilari bunday qaltis pallada o'z vazifalarini bajardilar. Ular antifashistik ruhdagi insonparvarlik g'oyalarini ifodalovchi asarlar yaratdilar. Xususan, fransiyalik taniqli yozuvchi Romen Rollanning "Jozibador qalb" (1934) romanida fashizmning asl mohiyati fosh qilingan. Fashizmning insoniyat hayoti uchun qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini Uilyam Folkner ham 1932-yilda yozilgan "Avgust yog'dusi" romanida tasvirlaydi. Ushbu asardagi Persi Grim obrazi irqchilik, shafqatsizlik va fashizmni o'zida ifodalaydi. Muallifning o'zi bu obrazga quyidagicha ta'rif beradi: *"U bir necha oq tanlilarni qutqarish maqsadida ko'plab negrlarni qirib yuboradi. Men uni 1931-yilda o'ylab topganman. Gitler gazetalarda paydo bo'lgunga qadar natsistlarni undan ham ilgariroq yaratganimni anglamasdim."*⁵⁶ Shuningdek, Ernest Xemingueyning 1940-yilda yozilgan "Motam qo'ng'irog'i" romanida ham fashizm qoralangan. Bu asar 1936 – 1939-yillarda Ispaniyada bo'lib o'tgan fuqarolar urushi haqida bo'lib, unda Franko boshchiligidagi ispan fashistlariga qarshi ko'ngilli ravishda kurashgan amerikalik yoshlar haqida hikoya qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq SSSR adabiyotida urush mavzusi yetakchilik qildi. Rus adiblari: K.Simonov, B.Polevoy, A.Safronov, V.Surkov kabi ijodkorlar o'z asarlarida vatanparvarlik, qahramonlik g'oyalarini ilgari surdilar. Bu urush haqida keying davrda ham ko'plab asarlar yaratildi. Mixail Sholoxovning "Inson taqdiri" romanidagi Sokolov, Vadim Kojennikovning "Qilich va qalqon" romanidagi Iogann Vayss (Aleksandr Belov), Yulian Semyonovning "Bahorning o'n yetti lahzasi" romanidagi Maks Shtirlits obrazlari urushda jasorat ko'rsatgan jangchi, ofitser va harbiy josuslarning qahramonliklariga bag'ishlangan. Umuman, sobiq SSSR adiblarining II jahon urushi mavzusida yaratilgan asarlarida qahramonlik motivi yetakchi o'rinda turdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arb mamlakatlarida ham urush va uning fojiali oqibatlari haqidagi asarlar yaratildi. Venger yozuvchisi Imre Kertisning "Angliya bayrog'i", "Izquvar" kabi romanlarida fashist konslagerlaridagi tutqunlar

⁵⁶ Саидов А. Уилям Фолкнер – инсонпарвар адиб // Фолкнер У. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2013 – 13-бет.

taqdiri hikoya qilinadi. Bu romanlari uchun muallif Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilgan. Angliyalik adib Bernard Shou esa urushdan keyin avj olayotgan yadro qurollarini yaratish va qurollanish poygasi haqida asarlar yaratdi. Xususan, uning 1948-yilda yozilgan “Olis kelajak haqida rivoyat” asarida atom urushi qoralangan.

XX asr o‘zbek adabiyotida ham urush mavzusi katta o‘rin tutib, ushbu mavzuda qator asarlar yaratildi. G‘afur G‘ulomning “Vaqt”, “Sog‘inish”, “Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak”, “Kuzatish”, “Sen yetim emassan”, “Men – yahudiy” kabi she‘rlari, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi, Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar” romanlari, Hamid Olimjonning “Jangchi Tursun”, Maqsud Shayxzodaning “Kapitan Gastello” balladalari, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” hikoyasi hamda shu nomdagi pyesasi, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Nega, nega-a-a?!” hikoyalari, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari bunga misol bo‘la oladi. Bu asarlarda ham urushning odamlar boshiga keltirgan azob-uqubatlari, urush yillarida jasorat va qahramonliklar ko‘rsatgan insonlar hayoti tasvirlangan. G‘afur G‘ulomning “Vaqt” nomli falsafiy she‘ri fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga yozilgan bo‘lsa, “Sog‘inish” she‘rida o‘g‘li urushga ketgan otaning his-tuyg‘u va kechinmalari kuylangan. “Sen yetim emassan” she‘rida esa shoirning yuksak insonparvarligi, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan bag‘rikenglik va bolajonlik xislatlari zo‘r mahorat va pafos bilan she‘rga solingan. Yuqoridagi she‘rlarida G‘afur G‘ulom II jahon urushi yillari voqealariga hissiy munosabatini ifodalagan bo‘lsa, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida I jahon urushi yillarida Turkiston o‘lkasidagi og‘ir hayot, yo‘qchilik va chorasizlik kabi holatlar o‘g‘ri va Qorabuvining o‘zaro suhbatlari orqali tasvirlangan. Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar” kabi romanlarida, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida II jahon urushi yillarida front va front ortida ko‘rsatilgan qahramonliklar badiiy ifodasini topgan.

XX asr o‘zbek adabiyotida urush haqida yaratilgan asarlarning katta qismi jahon urushlari, ayniqsa II jahon urushi davri hayotini tasvirlagan. Urush yillari adabiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri safarbarlik ruhining ustunligi edi.

Hukumat va partiya buyurtmasi asosida bir qator she'rlar, hikoya, qissa va romanlar hamda dramatik asarlar yaratildi. Biroq bu davrda yaratilgan asarlarning barchasini ham siyosiy buyurtma mahsuli deb qarash to'g'ri emas. Masalan, G'afur G'ulomning "Sharqdan kelayotirman" to'plamiga kiritilgan insonparvarlik g'oyasini ilgari suruvchi antifashistik ruhdagi she'rlari, Oybekning "Mahmud Torobiy", Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", Hamid Olimjonning "Muqanna" kabi tarixiy mavzudagi dramatik asarlari mualliflarning shaxsiy tashabbusi va ijodiy rejalari mahsuli edi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, II jahon urushi yillari o'zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzudagi asarlarning salmoqli o'rin tutgan. Tarixiy dramalarda o'tmishdagi buyuk shaxslarning qahramonliklari, mardlik va jasoratini tasvirlash vositasida xalqni kurashga, g'alabaga ruhlantirish, shuningdek, o'zbek xalqining buyuk o'tmishi borligini eslatish ham maqsad qilingan. Epik tur esa bu davrda lirika va dramaturgiyaga nisbatan ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsa-da, Abdulla Qahhorning "Asror bobo", "Xotinlar" singari hikoyalari, "Oltin yulduz" qissasi, Oydinning "Umr sovg'asi", "Asl yor", "Er yurak" kabi hikoyalari yaratilib, jang va mehnat frontlarida jonbozlik ko'rsatgan insonlarning qahramonliklari, ichki kechinmalari va ruhiyati badiiy bo'yoqlarda tasvirlandi.

1979-yilda qo'shni Afg'onistonda "Savr inqilobi" deb nomlangan davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Buning natijasida fuqarolar urushi avj oldi. Sobiq SSSR hukumati Afg'onistonda bo'lib o'tayotgan ushbu fuqarolar urushiga aralashib, internatsionalizm niqobi ostida bu davlatga hujum uyushtiradi. Bu harbiy harakatlarga ko'plab o'zbek yigitlari ham safarbar qilinadi. Afg'on urushi ko'plab insonlarning hayotini izdan chiqardi. Bu jarayonlar badiiy adabiyotimizda ham o'z aksini topdi. Bu borada O'tkir Hoshimov alohida ajralib turadi. Yozuvchining shu mavzudagi "Nega, nega-a-a?!" hikoyasi va "Tushda kechgan umrlar" romanida behuda qurbon bo'lgan insonlarning fojiali taqdirini bayon etdi. Undan tashqari, Abdurashid Normurodovning "Qonli yo'rgaklar" romani, G'afur Po'latovning "Xerirud faryodi" harbiy-dala qissasida ham afg'on urushi fojialari tasvirlanadi. Ushbu asarlarga xos umumiy xususiyat fojiaiy ruhning ustunligidir.

Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarning ko‘pchiligida, vatanparvarlik, qahramonlik g‘oyalari ustun tursa, afg‘on urushi mavzusida yozilgan barcha asarlarda tragik pafos yetakchi o‘rinda turadi. Chunki bu urush mohiyat jihatdan II jahon urushidan farq qilardi. II jahon urushi ham katta fojia va kulfatlarga sabab bo‘lgan, lekin unda qatnashgan o‘zbek sovet jangchilari Vatan himoyasi yo‘lida jang qilgandilar. Shu tufayli ham II jahon urushi haqidagi asarlarda qahramonlik ruhi yetakchilik qiladi. Afg‘on urushi esa yurt ozodligi uchun emas, Sovet hukumatining siyosiy rejalari uchun xizmat qildi. Shu tufayli ham afg‘on urushi mavzusidagi asarlarda qahramonlik emas, fojiaiylik ruhi yetakchi xususiyat kasb etadi.

Umuman olganda, XX asr adabiyoti ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan hamnafas holda rivojlandi. Davrning muhim voqealariga hozirjavoblik bilan yondashdi. Ayniqsa, urush mavzusida juda ko‘p asarlar yaratildi. Ularda urushning vayronkor mohiyati realistik obrazlar vositasida aks ettirildi.

BOB BO‘YICHA QISQA XULOSA

G‘arb, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusi keng ko‘lamda o‘rganilgan. D.Bevan, M.Norris, K.Makloulun, T.Riggs, S.Haynes, L.Goldenson, E.Krimmer, A.Vernon, P.M.Toper, Y.V.Staroverova, I.A.Gerasimova, Y.Rikunina, U.O‘ljaboyev, S.Mirzayev, N.Karimov, S.Mamajonov, A.Rasulov, U.Normatov, O.Sharofiddinov singari olimlar badiiy adabiyotda urush mavzusi, turli davrlarda bo‘lib o‘tgan urushlarning badiiy adabiyotdagi talqini; H.Kleyn, M.Parvanova, O.Poxalnikov, I.Framkin, R.Qo‘chqor, S.Saidmurodovlar nemis yozuvchisi E.M.Remarkning, U.Normatov, T.Rasulov, Y.Solijonov, Q.Norqobilov, S.Ahmad, U.To‘rayevalar O‘.Hoshimovning urush mavzusidagi asarlari yuzasidan tadqiqot olib borganlar.

Urush va u bilan bog‘liq obrazlar ishtirok etgan asarlar juda qadimiy tarixga va o‘ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Bunday asarlardagi g‘oya va qahramonlarning xususiyatlari davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ta‘sirida o‘zgarib borgan. Badiiy adabiyotda urush tasvirlari dastlab qahramonlik va jasorat

vositasi sifatida tasvirlangan. Bu barcha xalqlar adabiyotiga taalluqli bo‘lib, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas”, “Ramayana”, “Mahabhorat”, “Gilgamish” kabi xalq eposi namunalari, Gomerining “Iliada”, Firdavsiyning “Shohnoma” dostonlarida bu xususiyat aniq ko‘rinadi.

O‘rta asrlar davri Yevropa adabiyotida “Roland haqida qo‘shiq”, “Sid haqida qo‘shiq”, “Nibelunglar haqida qo‘shiq” singari qahramonlik eposlari, “Artur va dumaloq stol” turkumidagi ritsarlik romanlari ham urush mavzusini o‘zida aks ettirgan. Lekin ularda katolik cherkovi ta’sirida diniy tendensiya yetakchilik qilgan.

Uyg‘onish davridan keyin Yevropa adabiyotida urushga munosabat o‘zgarib, salbiy tus ola boshladi. Bu o‘zgarish M.Servantes, J.Bayron, V.Gyugo, P.Merime singari ijodkorlarning asarlari orqali aniq ko‘rinadi.

XX asrga kelib G‘arb adabiyotida urushga qarshi kayfiyat, patsifizm oqimi yetakchi xususiyat kasb etdi. Urush faqat qora bo‘yoqlarda, kulfat va fojia sababchisi sifatida tasvirlandi. O‘zbek adabiyotiga ham XX asrdan shunday talqin kirib keldi. Biroq, shu bilan bir qatorda front va front ortida jasorat ko‘rsatgan qahramonlar obrazlarini tasvirlash ham davom etdi. I jahon urushi, afg‘on urushi mavzularida yaratilgan asarlarda fojiaviy ruh hukm sursa, II jahon urushi mavzusini aks ettirgan asarlarda vatanparvarlik, qahramonlik g‘oyalari ifodalangan.

II BOB. XX ASR G‘ARB VA O‘ZBEK PROZASIDA URUSH VA INSON TASVIRI

2.1. Erix Mariya Remark romanlarida urush odamlari obrazi

Urush odamlari obrazi deganda harbiy mavzuda yozilgan asarlarning qahramonlari tushuniladi. Bunday obrazlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) bevosita urush ishtirokchisi bo‘lgan askar yoki ofitser obrazi; 2) urushda qatnashmagan, lekin asardagi taqdiri urush bilan bog‘liq bo‘lgan insonlar obrazi. Birinchi toifa front voqealari, jang lavhalari va ularning askar ruhiyatiga ta’sirini aks ettirishga xizmat qiladi. Askar va ofitser obrazlari orqali urushda bevosita ishtirok etgan insonlar tasvirlanadi. Ularning harakatlari va o‘y-kechinmalari yordamida urushning mohiyati ochib beriladi. Ayni paytda, urush faqat janggohdagi askarlarninggina emas, frontdan uzoqda bo‘lgan oddiy xalq vakillarining ham taqdiriga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu jarayonni tasvirlashda ikkinchi guruhga mansub qahramonlar muhim o‘rin tutadi.

XX asr harbiy prozasida urushlarining vayronkor mohiyati, fojiali oqibatlarini tasvirlash asosiy o‘rinda turdi. G‘arbiy Yevropa va AQSH yozuvchilaridan A.Barbyus, R.Oldington, F.S.Fitsjerald, E.Xeminguey, U.Folkner singari ijodkorlarning asarlarida jahon urushlarining insoniyat hayotiga salbiy ta’siri masalasi urush odamlari obrazi vositasida badiiy ifodasini topgan. Urush va inson munosabati, ayniqsa, nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ijodida asosiy o‘rinni egalladi.

Erix Mariya Remark 1898-yilning 22-iyun kuni Germaniyaning Osnabryuk shahrida tug‘ilgan. Bolaligidan adabiyot, san’at va falsafaga qiziqqan. Adabiy-falsafiy to‘garakka qatnashgan, jurnalistika sohasida faoliyat yuritgan. Musiqa bilan ham shug‘ullangan. Remark maktabni bitirish arafasida urushga jo‘naydi, ellik kun frontda bo‘ladi. Urushdan keyin badiiy ijod bilan shug‘ullana boshlaydi.

Remarkning nomini yozuvchi sifatida tanitgan asar 1929-yilda yozilgan “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani bo‘ldi. Shundan so‘ng yozuvchining “Qaytish” (1931), “Uch og‘ayni” (1938), “Zafar darvozasi” (1946), “Hayot

uchquni” (1952), “Hayot-mamot pallasi” (1954), “Qora haykal” (1956), “Osmon hech qanday seviklini bilmaydi” (1961), “Lissabondagi tun” (196), “Jannatdagi soyalar” (1971) va boshqa asarlari yozilgan.

1933-yilda Germaniyada natsistlar hokimiyatni egallagach, Remark Shveytsariyaga jo‘nab ketadi. Buning sababi Remarkning shu paytgacha yozilgan “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish” romanlarida urush qoralangan, urushning yoshlar hayoti va ongiga keltirgan halokatli oqibatlari haqqoniy aks ettirilgan edi. Bu esa yangi urush boshlashni maqsad qilgan natsistlar hukumatiga yoqmasligi aniq edi. Buni yaxshi anglagan Remark Germaniyani tark etishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng yozuvchining muhojirlik hayoti boshlanadi. Remark dastlab Shveytsariya va Fransiya, II jahon urushi yillarida AQSHda yashadi. Urushdan so‘ng Shveytsariyaga qaytib, umrining oxiriga qadar shu mamlakatda yashab, ijod qildi. Adib 1970-yilning 25-sentabrida Shveytsariyaning Lokarno shahrida yurak huruji natijasida yetmish ikki yoshida vafot etgan.

Remarkning ilk asarlari chet tillariga tarjima qilinib, chop etilishi bilanoq katta shuhratga erishdi. Xatto Shvetsiya akademiyasi tomonidan adabiyot sohasida Nobel mukofotiga ham laureat bo‘ldi. Buning sababi Remark yaratgan asarlarning qahramonlari XX asr kishilarining, urushda ishtirok etgan odamlarning taqdiri, murakkab tuyg‘ulari realistik tarzda tasvirlangan tiplari edi. Bu qahramonlar orqali urushdan aziyat chekkan ko‘plab insonlar o‘z qiyofalarini ko‘rganlar. Yozuvchining barcha asarlari urushning fojiali salbiy oqibatlarini real aks ettirish vositasida urushni qoralagan, patsifizm g‘oyasini ifodalagan asarlar edi.

O‘zbekistonda Remarkning ijodini o‘rganish va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish mustaqillikdan keyin boshlandi. Mustaqillik yillarida nemis yozuvchisining asarlarini tarjima qilishda birinchilardan bo‘lib Nizom Komil faollik ko‘rsatdi. E.M.Remarkning mashhur asari – “Uch og‘ayni” romani birinchi marta “Jahon adabiyoti” jurnalining 1998-yil 7 – 9-sonlarida aynan Nizom Komil tarjimasida bosib chiqarildi. 2002-yilda “Ma’naviyat” nashriyoti bu asarni kitob ko‘rinishida chop etdi. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani ham ilk marta “Jahon adabiyoti” jurnalda Nizom Komil tarjimasida bosildi (2001-yil 5–6-sonlar).

Ushbu roman 2004-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida “Esizgina, yoshligim” nomi bilan chop etilgan. 2016-yilda bu roman “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” nomi bilan “Kamolot kutubxonasi” rukni ostida nashr qilindi.

Yozuvchining yana bir asari – “Lissabondagi tun” romani Saidjalol Saidmurodov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu kitob 2016-yili “Jahon adabiyoti kutubxonasi” rukni ostida chop etildi.

Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” (*“Im Westen nichts Neues”*) romani 1928-yili “Vossische saytung” gazetasida chop etila boshlagan. 1929-yilda kitob holida nashr etilgan. Bu asar katta muvaffaqiyat qozonib, tez orada butun Yevropaga taniladi. Romanda urush dahshatlarini boshdan kechirgan, ruhan ezilgan va jamiyatdan begonalashgan “yo‘qotilgan avlod”ning fojiali taqdiri Paul Boymer, Kemmerix, Tyaden, Xaye, Myuller singari yosh askarlar obrazi vositasida bayon etiladi. Roman bosh qahramon Paul Boymer tilidan hikoya qilinadi. Paulning kechmishlari urushda ishtirok etgan butun bir avlodning tajribasini aks ettiradi. Boymer va uning do‘stlari urush natijasida dunyoqarashi o‘zgargan, hayot haqida keksalardek fikrlaydigan yoshlar sifatida tasvirlanadi. Urush ularning hayotga munosabatini keskin o‘zgartirgan. “Daryo” kolumnisti, journalist Nurbek Alimov roman haqidagi maqolasida bu jarayonni alohida ta’kidlab, frontdagi askarlarning urushga munosabati tasviriga alohida e’tibor qaratadi: *“Qahramon urushda qancha uzoq umr ko‘rsa, shunchalik hayotdan nafratlanadi va azoblanadi. Shuningdek, ushbu romanda ikki avlod o‘rtasidagi urush tufayli paydo bo‘lgan “jarlik” tasvirlanadi. Yozuvchi urushni yosh avlodga nisbatan qilingan adolatsizlik sifatida baholaydi. Muallifning bu munosabati qahramonlarning kechinmalari orqali ifodalanadi. Romanda Paul Boymer va uning do‘stlari dushmanlari haqida so‘zlashganda boshqa tarafdagi askarlarni emas, o‘zlarining yuqori martabali rahbarlarini nazarda tutadilar.”*⁵⁷ Ayniqsa, Kantorek va Ximmelshtoss obrazlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Kantorek – maktab o‘qituvchisi, Boymer va uning sinfdoshlari, shu qatori butun maktabning o‘smir yigitlarini shovinistik ruhda, soxta vatanparvarlik g‘oyalari ostida tarbiyalagan,

⁵⁷ Alimov N. “Davlat va Vatan bitta narsa emas”. www.daryo.uz

frontga yosh askarlarni mafkuraviy targ‘ibot yo‘li bilan yetkazib beruvchi personaj. Ximmelshtoss esa ana shu “tarbiyalangan” yoshlarni frontga jo‘natish oldidan ularga harbiy mashqlarni o‘rgatuvchi kichik ofitser. Romanda Kantorek va Ximmelshtosslar nemis yoshlarini urushga safarbar qilgan davlat vakillarining tipik vakillari sifatida talqin etiladi. Biroq urush ko‘rgan yosh askarlarning ularga munosabati salbiy ko‘rinishda tasvirlanadi. Ular tez-tez Kantorekni eslab, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘ladilar. Ximmelshtossni payt poylab, do‘pposlaydilar.

Romanning to‘qqizinchi bobida askarlarning kayzer bilan uchrashuvi tasvirlanadi. Mana shu jarayonda Tyaden tiliidan aytilgan urush haqidagi fikrlar asarning asosiy g‘oyalaridan birini belgilab beradi. Tyaden uchun barcha askarlar kelib chiqishi va qayerlik ekanligidan qat’iy nazar qurbonlardir. Garchi asarda nemis yoshlarining urushdagi fojiali qismati tasvirlangan bo‘lsa-da, uni barcha yevropaliklar birday qabul qiladilar. Chunki romanda ko‘tarilgan muammo faqat nemis xalqining emas, I jahon urushida ishtirok etgan barcha xalqlarning, butun insoniyatning global muammosi edi.

1931-yilda chop etilgan “Qaytish” (*“Der Weg zurück”*) romani birinchi romanning mantiqiy davomi bo‘ldi. Agar “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida urush frontlarida jang qilayotgan yosh askarlarning fojiasi, urushga munosabati va ruhiyati tasvirlangan bo‘lsa, “Qaytish” romanida urushdan tirik qolib, vataniga qaytgan askarlar taqdiri haqida hikoya qilinadi. Roman qahramonlari: Ernst Birkxolts, Villi Xomayer, Ferdinand Kozle, Yupp, Geynrix Vesling, Georg Rax kabi obrazlar tipik xususiyatga ega bo‘lish bilan birgalikda, hayotiy prototiplariga ham ega. Bu prototiplar Remarkning o‘zi va u bilan urush frontlarida birga bo‘lgan askarlardir. Bu romanda kelajakka bo‘lgan ishonchini yo‘qotgan yoshlar hayoti, urushning salbiy oqibati natijasida iqtisodiy va ma’naviy jihatdan tanazzulga yuz tutgan jamiyat tasvirlangan. A.Qosimov va S.Xo‘jayev hammuallifligida yozilgan “XX asr chet el adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmasida “Qaytish” romani qahramonlariga quyidagicha ta’rif beriladi: *“Dahshatli azoblarni boshdan kechirgan, hech narsaga ishonmay qo‘ygan, tevarak atrofda faqat*

*“yolg‘on, bemaza keriklik, o‘z-o‘ziga mahliyo” bo‘lishni ko‘rgan sobiq askarlar tinch hayotda o‘z o‘rinlarini topa olmaydilar. Ulardan ayimlari o‘z joniga qasd qiladi, yana ayrimlari bo‘lsa aqldan ozadi yoxud qamoqqa tushadi.”*⁵⁸ Shu tariqa, Remark ikkinchi romanida ham “yo‘qotilgan avlod” vakillarining hayoti va taqdiriga murojaat qiladi. Tipik obrazlar vositasida davrning dolzarb muammosini badiiy talqin etadi. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Qaytish” romanlarida bosh qahramon sifatida yoshlarning tanlangani ham bejiz emas. Bu orqali yozuvchi, avvalo, hayotiy asosga ega bo‘lgan voqealarni tasvirlagan. Ikkinchidan, asarlarda tasvirlangan yosh avlodning fojiasi orqali urushning nafaqat bugungi kun uchun, balki jamiyat va insoniyat kelajagi uchun ham zararli ekanligini ta’kidlagan.

Remarkning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “Uch og‘ayni” (*“Drei Kameraden”*) romani 1938-yilda Shveytsariyada yozilgan. Romanda chin muhabbat va haqqoniy do‘stlik tasvirlangan. Yozuvchi avvalgi ikki asarida o‘smir yoshdagi yigitlarning taqdirini tasvirlagan bo‘lsa, “Uch og‘ayni”da o‘sha o‘spirinlarning ancha ulg‘aygan vakillari haqida hikoya qiladi. Asarda I jahon urushidan o‘n yil keyin ro‘y bergan voqealar bayon etiladi. Biroq, asar qahramonlari urushning salbiy ta’siridan qutula olmaganlar. Ularning ruhiyati, jamiyat bilan munosabati tasvirlarida bu aniq ifodalangan. Romanning asosiy qahramonlari uchun o‘zaro do‘stlik, ichkilik, mashina, poygalar asosiy yupanch vazifasini bajaradi. Bosh qahramon Robert Lokamp muhabbat tufayli yana hayotning go‘zal tomonlarini ko‘ra boshlaydi. Ammo, bu holat uzoq davom etmaydi. Lokampning asosiy najot farishtasiga aylangan Patriitsiya Xolman garchi front maydonlarida bo‘lmagan esa-da, urush yillarida to‘yib ovqat yemaganligi sababli og‘ir kasallikka chalinib, asar oxirida vafot etadi. Bunday fojiali yakun asar ruhini belgilab beradi. “Uch og‘ayni” romanida muallifning badiiy mahorati yorqin aks etgan. Unda qahramonlar tilidan aytilgan hayot, jamiyat, muhabbat va boshqa insoniy tuyg‘ular haqidagi o‘ziga xos fikrlar, tabiat tasvirlari, g‘amgin va quvnoq lavhalarning parallel ifodalanishi, inson ruhiyatining murakkab qirralarini bayon

⁵⁸ Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет эл адабиёти тарихи. – Фарғона, 2002 – 63-бет

etuvchi psixologik tasvirlar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.

“Uch og‘ayni” romanidan so‘ng yozuvchi yangi mavzularda asarlar yoza boshladi. Fashizmning avj olishi, II jahon urushi, fashistlar diktaturasi va urush tufayli chet ellarda sarson bo‘lgan insonlar taqdiri ifodalangan bir necha romanlar yaratdi. Bu orqali yozuvchi davrning dolzarb muammolariga hozirjavoblik bilan yondashdi. Biroq, 1956-yilda yozib tugatilgan “Qora haykal” (“*Der schwarze Obelisk*”) romani orqali yozuvchi yana bir bor “yo‘qotilgan avlod” mavzusiga murojaat qiladi. Ushbu roman voqealari Remarkning o‘z hayotida olingan bo‘lib, avtobiografik xususiyat kasb etadi. Romanning bosh qahramoni Lyudvig Bodmer, shuningdek, aka-uka Georg va Genrix Krollar taqdirida va ruhiyatida “yo‘qotilgan avlod”ga xos xususiyatlar mavjud. Mavzu va g‘oyaning umumiyliigi hamda qahramonlar taqdirining o‘xshashligi kabi xususiyatlariga ko‘ra bu roman “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish” va “Uch og‘ayni” bilan umumiylik kasb etadi. Bu umumiylik “yo‘qotilgan avlod”ga mansublikdir.

Ma’lum bo‘ladiki, Remarkning “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi barcha romanlari avtobiografik xususiyatga ega. Bu xususiyat uning muhojirlar mavzusida va antifashistik ruhda yozilgan asarlariga ham tegishli. Bu xususiyatni rus olimi I.Framkin alohida qayd etadi: “*Remark asarlari o‘z davri hayoti va jamiyatini tasvirlaydi. Bu borada ijodkorning o‘zi shunday deydi: «Mening qahramonlarim – asrimiz insonlari, men ular misolida o‘z hayotim va kechinmalarimni bayon etaman».* Bu orqali yozuvchi o‘z asarlarining avtobiografik xarakter kasb etishini ham ta’kidlaydi”⁵⁹

Remark “Zafar darvozasi”, “Hayot uchquni”, “Lissabondagi tun”, “Jannatdagi soyalar” kabi romanlarida fashizm zulmi tufayli chet ellarga qochib ketishga majbur bo‘lgan muhojirlar taqdiri haqida hikoya qiladi. Bu romanlar voqealari ham muallifning o‘z hayoti asosida yozilgan. Demak, ushbu asarlar ham avtobiografik xususiyat kasb etib, o‘z prototiplariga ega bo‘lgan tipik obrazlarni tasvirlaydi.

⁵⁹ Фрамкин И. Антифашистские романы Ремарка. \ \ Ремарк Э.М. Избранное. – Москва: “Правда”, 1990 – стр. 7

1946-yilda yozilgan “Zafar darvozasi” (*“Arc de Triomphe”*) romanida II jahon urushi arafasida Fransiyaning poytaxti Parijdagi nemis qochoqlari hayoti tasvirlanadi. Birinchi jahon urushi qatnashchisi, iste’dodli jarroh Ravik natsistlar hokimiyat tepasiga kelgach, Germaniyadan qochib ketishga majbur bo‘ladi. O‘tgan siyosiy harakatlardan mutlaqo chetda bo‘lgan Ravik oxir-oqibat Ispaniyada Franko boshliq ispan fashistlarga qarshi kurashda qatnashadi. Romanda yozuvchi ilk bora fashizmga qarshi kurash mavzusiga murojaat qildi. Bu mavzu bundan keyingi asarlarida bosh mavzuga aylanadi. Parijda Ravik gestapochi Xaakeni uchratib qoladi va uni o‘ldirishga qaror qiladi. Yozuvchi yuksak mahorat bilan, bosh qahramonning murakkab va ziddiyatli ma’naviy qiyofasini ochib beradi.⁶⁰

1952-yilda yozilgan “Hayot uchquni” (*“Der Funke Leben”*) romanida fashizmning yovuzliklari fosh etilgan. Bu romanni muallif fashistlar tomonidan qatl etilgan singlisi Elfrida Sholtsning xotirasiga bag‘ishlaydi. Bu roman 1943-yilda bo‘lib o‘tgan real voqealarga asoslangan. Asarda natsizmning g‘ayriinsoniy mohiyati va shafqatsiz qiyofasi realistik obrazlar vositasida tasvirlangan.

“Hayot-mamot pallasi” (*“Zeit zu leben und Zeit zu sterben”*) romanida ham Remark fashizmni qoralaydi. Bu roman yozuvchining boshqa asarlaridan ajralib turadi. Ayniqsa, asar bosh qahramoni Ernest Grebber obrazi muallifning yangi tipdagi obrazidir. U kurashuvchanlik va isyonkorlik xususiyatining kuchliligiga ko‘ra Remarkning boshqa qahramonlaridan farq qiladi. U natsistlar partiyasi a’zosi bo‘lishiga qaramay, urush davomida fashizmdan yuz o‘giradi. Ashaddiy natsist Shteynbrennerni o‘ldirishga qaror qilishi va buni bajarishi orqali undagi antifashistik ruh sezilib turadi. Urush davomida vayronkor mafkuraning asl mohiyatini anglash jarayoni tasvirlanishiga ko‘ra bu roman va uning qahramoni Ernest Grebber “yo‘qotilgan avlod” obrazlariga yaqin turadi. Biroq, Grebber obrazida tushkunlik va hayotdan bezish jarayoni kuzatilmaydi.

Remarkning muhojirlik mavzusidagi yana bir asari “Lissabondagi tun” (*“Die Nacht won Lisbon”*) romanidir. Roman voqealari kechadigan Osnabryuk (Remark tug‘ilgan shahar), Fransiya, Shveytsariya va AQSH safari (Remark yashagan

⁶⁰ Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет эл адабиёти тарихи. – Фарғона, 2002 –

joylar) hududlarning geografiyasiga e'tibor bersak, bu asar ham avtobiografik xususiyatga egaligi ma'lum bo'ladi. "Lissabondagi tun"da ham shu mavzudagi boshqa asarlarida bo'lgani kabi muhojirlik azoblari, fashizmning yovuzliklari tasvirlanadi.

Romanning dastlabki jumllarida qahramon tilidan XX asr Yevropasiga ta'rif beriladi: *"Lissabonga kelganimga bir hafta bo'lganimga qaramay, shaharning charaqlab yonib turgan chiroqlariga hamon ko'nikolmasdim. Kamina bo'lgan yurt va shaharlarda tun ko'mir shahtalari kabi zulmatga cho'mgan, chiroq nuri esa o'rta asrlardagi vabodan xavfliroq edi. Men yigirmanchi asr Yevropasidan kelgandim."*⁶¹ Fashizm va urush tufayli halokat arafasiga kelib qolgan Yevropaning tasviri keyingi jumllarda yanada batafsil tasvirlanadi. Qochoqlik, vatangadolik avj olayotgani ta'sirli yo'sinda quyidagicha ifodalanadi: *"1942-yilda Yevropani tark etadigan barcha kema najot kemasi edi. Amerika Araratmonand yuksalib borar, toshqin ham kun sayin ko'tarilardi. Toshqin allaqachon Germaniya va Avstriyani g'arq qilgan, Parij cho'kib ketgan, qo'lansa oqimda qolgan Italiya shaharlari bo'g'ilib entikar, xatto Ispaniyadan ham najot qolmagandi... Amerikaga qochmaganni muqarrar halokat kutardi. Ular urush tamom bo'lguncha ozodlikdan mahrum etilishga, yolg'izlik qismatiga, urushning doimiy ta'qibiga, qo'rquv va muhtojlikka mahkum edilar. Inson degani keraksiz matohga aylangan, ishonchli pasport tirik qolishning yagona kafolati edi."*⁶² Mana shu kichik parchalarning o'ziyoq urush yillaridagi og'ir ahvol haqida tasavvur beradi. Bu yerda "toshqin" ramz sifatida kelgan bo'lib, fashizmning Yevropa uchun halokatli ta'sirini anglatadi. Fashistlar boshlagan II jahon urushi tufayli insonning "keraksiz matoh" bo'lib qolganligi, inson hayoti yoki taqdiridan ko'ra "ishonchli pasport"ning ko'proq qadr-qimmatga egaligini tasvirlash orqali yozuvchi urushning vayronkor mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, real voqealarning badiiy tasviri yordamida fashizmni fosh etadi va davr muammolarini haqqoniy aks ettiradi. Asar bosh qahramoni vatanini, sevimli rafiqasini, kelajakka

⁶¹ Ремак Э.М. Лиссабондаги тун. — Тошкент: "O'ZBEKISTON", 2016 — 9-bet

⁶² yuqoridagi manba, 10-bet

bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi. Yevropa bo‘ylab besh yillik sarson-sargardonlikdan so‘ng bosh qahramon Iosif Shvarts nomi ostida Germaniyaga qaytib, ayolini izlab topadi va uni Germaniyadan olib chiqib ketadi. Saraton kasaliga chalingan ayol ham muhtojlik, xavf-xatardan cho‘chimay fashistlar hukmronligidagi mamlakatdan Shvarts bilan birga chiqib ketadi. Bu ikki qahramonning o‘zaro muhabbati va birgalikdagi ozodlik uchun kurashi fojiali mavzudagi ushbu romanga optimistik ruh beradi. Garchi ularning taqdiri ayriliq va o‘lim bilan yakunlansa-da, samimiy muhabbat tasviri orqali ezgulik tantanasiga ishonch ruhi sezilib turadi. Romanda yovuzlik hukmronlik qilayotgan muhitda ham ezgulik mavjudligi hamda urushning insonlar taqdiri uchun salbiy oqibatlari tasviri parallel ifodalanadi. Bu orqali Remark ijodida yetakchi o‘rin tutgan patsifizm g‘oyasi yana bir bor o‘z badiiy ifodasini topgan.

Saidjalol Saidmurodov “Tinchlik nomi ila” nomli maqolasida Remark yaratgan qahramonlarni quyidagicha tasniflaydi: *“Remark romanlarining qahramonlari ikki guruhga bo‘linadi: birinchisi – urushdan qaytgan, nima uchun qurol ko‘tarib jang qilganini tushunishga intilayotgan, urushdan keyingi vayron bo‘lgan dunyoni zig‘ircha bo‘lsa-da o‘zgartirmoqchi bo‘lgan sobiq askarlar; ikkinchisi esa nohaqlik va zulm sababli o‘z vatanlarini tashlab chiqishga majbur bo‘lgan muhojirlar.”*⁶³ Ushbu tasnif faqat bosh qahramonlarga mos keladi. Lekin Remark ijodida obrazlar xilma-xil bo‘lib, ularni yuqoridagi tasniflash bilangina cheklab bo‘lmaydi. Ayniqsa, Remark romanlaridagi ayol personajlarga alohida e‘tibor qaratish lozim. “Uch og‘ayni” romanidagi Patriitsiya, “Lissabondagi tun” romani qahramoni Yelena kabi obrazlar pok va samimiy muhabbat ramzi sifatida tasvirlanadi. Bu qahramonlar fojiali taqdir egalari sifatida talqin etilsa-da, ular asar davomida boshqa qahramonlar uchun “najot farishtasi”ga aylanadilar. Shu sababli S.Saidmurodovning yuqoridagi tasnifiga qo‘shimcha ravishga uchinchi guruhni ham qayd etib, bu guruhga muhabbat vositasida sobiq askarlar va muhojirlarni hayotga qaytishiga yordam beruvchi ayollar obrazlarini kiritish mumkin. Bu orqali

⁶³ Саидмуродов С. Тинчлик номи ила. // Э.М. Ремарк. Лиссабондаги тун. – Тошкент: “O‘ZBEKISTON”, 2016 – 7-bet

ko‘rinadiki, Remark ijodida faqat o‘lim, fojia, tushkunlik motivlari emas, samimiy muhabbat tasviri ham muhim o‘rin tutadi.

Demak, Remark har ikki jahon urushining jonli guvohi sifatida o‘z asarlarida urushni qoralaydi. Urush va inson munosabatlari, urush odamlari obrazlarining frontdagi va urushdan keyingi taqdirini badiiy aks ettirish Remark ijodining markazida turadi. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish”, “Uch og‘ayni”, “Qora haykal” romanlari I jahon urushining insonlar hayotiga ta’siri, “yo‘qotilgan avlod” vakillarining fojiali taqdiri masalasini ifodalagan bo‘lsa, “Zafar darvozasi”, “Hayot uchquni”, “Hayot-mamot pallasi”, “Lissabondagi tun” romanlarida II jahon urushi yillari voqealari, fashizmning salbiy oqibatlari, muhojir qochoqlarning taqdiri aks ettirilgan.

2.1. O‘tkir Hoshimov nasrida patsifizm g‘oyasining ifodalanishi

XX asrda yuz bergan ko‘plab urushlar, shu jumladan I va II jahon urushlari jahon siyosati va madaniyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu urushlar ta’sirida bir qator oqim, ta’limot va g‘oyalar paydo bo‘ldi. Ular orasida urushning barcha ko‘rinishini rad etuvchi patsifizm alohida o‘ringa ega.

Patsifizm – lotincha “*pacificus*” so‘zidan olingan bo‘lib, “tinchlantiruvchi”, “kelishtiruvchi” degan ma’noni anglatadi. Har qanday urushga qarshi bo‘lgan va yer yuzida tinchlik bo‘lishini yoqlovchi dunyoqarash, oqim⁶⁴. Patsifizm oqimi XX asrda jahon adabiyot va san’atida keng tarqaldi.

XX asr o‘zbek nasrida urush mavzusi salmoqli o‘ringa ega. Jahon urushlari va ularning xalq hayotiga ta’siri, afg‘on urushining fojiali oqibatlari bir qator o‘zbek yozuvchilarining nasriy asarlarida o‘z ifodasini topdi. Masalan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” kabi qissalarida I jahon urushi davri voqealari, urushning Turkistondagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotiga salbiy ta’siri tasvirlangan. Abdulla Qahhorning “Asror bobo”, “Xotinlar” hikoyalari, Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasi, Oybekning “Quyosh qoraymas”,

⁶⁴<https://uz.m.wiktionary.org>

Shuhratning “Shinelli yillar”, Said Ahmadning “Ufq” romanlarida II jahon urushi davri hayoti aks ettirilgan. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, Abdurashid Normurodovning “Qonli yo‘rgaklar”, G‘afur Po‘latovning “Xerirud faryodi” singari asarlarida esa XX asrning 80-yillarida bo‘lib o‘tgan afg‘on urushi fojialari hikoya qilinadi. Zamonaviy o‘zbek prozasida urush mavzusida eng sermahsul va muvaffaqiyatli ijod qilgan yozuvchilardan biri O‘tkir Hoshimovdir.

O‘tkir Hoshimov XX asr o‘zbek prozasining yirik vakillaridan biri bo‘lib, o‘z asarlarida turli insoniy munosabatlarni badiiy mahorat bilan ifodalagan yozuvchidir. Adib o‘ndan ortiq qissa va romanlar, o‘nlab hikoyalar, bir necha pyesalar yaratgan. O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Oq bulut, oppoq bulut”, “O‘zbeklar”, “Uyqusiz tunlar”, “Nega, nega-a-a?!” kabi hikoyalari; “Qatag‘on”, “Inson sadoqati”, “To‘ylar muborak” nomli pyesalari; “Cho‘l havosi”, “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Qalbingga quloq sol”, “Ikki karra ikki – besh”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari” singari qissalari; “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi romanlari XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shilgan munosib xissa bo‘ldi.

O‘tkir Hoshimovning so‘nggi asari bo‘lgan “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”da adibning falsafiy mulohazalari, hayot, ijod, insoniy tuyg‘ular va urushlar haqidagi o‘z qarashlari hamda farzandlariga o‘gitlari o‘z aksini topgan. Unda keltirilgan aforizmlar orqali O‘.Hoshimov nafaqat yozuvchi, balki faylasuf sifatida ham namoyon bo‘ladi.

O‘tkir Hoshimovning asarlarida milliylik, insonparvarlik, tinchliksevarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Adib ham hajviy usulda, ham dramatism va konfliktga boy tarzda ijtimoiy voqelik, insonlar o‘rtasidagi turli munosabatlarni tasvirlaydi. Uning asarlarida muhabbat, milliy o‘zlikni anglash, adolat va haqiqat uchun kurash, johillikning oqibatlari, ona mehri, urushning g‘ayriinsoniy mohiyati kabi masalalar realistik tarzda tasvirlanadi. Adabiyotshunos olim Abdug‘ofur Rasulov yozuvchi ijodining muhim xususiyatlari sifatida ikki jihatni keltiradi: *“Birinchidan, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida shunchaki targ‘ibot qilish yoki*

shiorlar keltirish yoʻlidan bormaydi. Balki davrning eng dolzarb muammolarini oʻrtaga tashlaydi va bu muammolarga qahramonlarining harakatlari, oʻy-kechinmalari vositasida javob izlaydi. Ikkinchidan, adib bu jarayonlarni ajoyib badiiy shakllarda aks ettiradi.”⁶⁵

Oʻtkir Hoshimovning “Muhabbat” hikoyasi, “Choʻl havosi”, “Qalbingga quloq sol” qissalari yoshlar oʻrtasidagi sevgi-muhabbat masalasiga bagʻishlangan boʻlsa, “Oʻzbeklar” hikoyasi, “Dunyoning ishlari” qissasida oʻzbek onasi siymosi tasvirlangan. Bu asarlarda samimiy tuygʻular, insoniy fazilatlar tarannumi sof milliy ruhda bayon etilgani bilan ahamiyatlidir. “Bahor qaytmaydi” qissasida ham dolzarb muammolar koʻtarilgan. Sanʼatkor axloqi, oila va muhabbat masalalari, doʻstlik, ota-ona va farzand munosabatlari bu asarning asosini tashkil qiladi.

Yozuvchi ijodida urush mavzusi yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi. “Urushning soʻnggi qurboni”, “Nega, nega-a-a?!” hikoyalari, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlarida Ikkinchi jahon urushi va afgʻon urushi yillari oʻzbek xalqi boshiga tushgan sinovlar, kulfatlar: urush frontlaridagi fojiali manzaralar, urushning vayronkor va zararli oqibatlari tasvirlangan. Shoikrom, Umri xola (“Urushning soʻnggi qurboni”); Hamidulla, Rahmatilla (“Nega, nega-a-a-a?!”); Kimsan, Robiya, Shomurod, Raʼno (“Ikki eshik orasi”); Rustam, Xayriddin (“Tushda kechgan umrlar”) kabi qahramonlarning hayoti, murakkab taqdirleri vositasida urushni qoralash, tinchliksevarlik ruhi yaqqol koʻzga tashlanadi.

Yozuvchining “Urushning soʻnggi qurboni” hikoyasi urush va uning fojiali oqibatlari haqida. Insoniyat tarixidagi eng katta talafot keltirgan Ikkinchi jahon urushi millionlab kishilarning halokatiga sabab boʻlish bilan birga, uning oqibatlari odamlar ongida ham salbiy oʻzgarishlar yuz berishiga olib keldi. Ochlik, muhtojlik odamlarni bir-biriga dushman qilib qoʻydi, yana ayrimlarni qingʻir yoʻlga boshladi. Aka-uka, ona va farzand oʻrtasidagi muqaddas oilaviy munosabatlarga ham putur yetkazdi. Hikoyada mana shu jarayonlar oʻz ifodasini topgan.

Hikoya quyidagi tasvir bilan boshlanadi: *“Shoikrom ayvon toʻridagi sandal chetida xomush oʻtirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay,*

⁶⁵ Rasulov A. Ardoqli adib – T.: “Sharq”, 2001 – 36-bet

hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to'g'rida hech kim o'ylab ko'rmagananini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham, uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi".⁶⁶ Ushbu jumlar orqali hikoya qahramoni Shoikromning ruhiy holati qisqacha tasvirlanadi. Bu tasvirdan qahramonning asabiy, tajang kayfiyati ko'rinadi. Undagi bu noxush kayfiyatning sabablari voqealar rivoji davomida ma'lum bo'ladi: urush hamon davom etmoqda. "Garchi urushning qora qanoti uzoqlab, erta-indin Gitlarning to'ng'iz qo'pishi ko'rinib qolgan bo'lsa ham, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turgan, hali u qo'shninikida, hali bu qo'shninikida aza ochilayotgan" kunlar. Ayrim sabablarga ko'ra urushga bormagan, to'qimachilik kombinatida montyor bo'lib ishlaydigan Shoikrom bir hovlida bo'la turib sil kasali bilan og'rib yotgan ukasi Shone'matning holidan xabar ololmaydi. Bir yil avval hovliga ekilgan qulupnay tufayli Shoikromning xotini Xadicha va onasi Umri xola o'rtasida nizo kelib chiqqan. Qolaversa, atrofda o'g'ri ko'paygan: "Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqqandan buyon o'g'ri ko'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan yomg'ir sharros quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda ko'ngli g'ash tortib, bir nimani sezganday uyga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o'tiribdi. Xadicha og'iroyoq emasmi, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko'cha eshigi lang ochiq, yong'oqda bog'log'liq sigir yo'q.

"Shu paytgacha sigir tug'ardi, ukamning og'ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o'yladi Shoikrom o'kinib. – Qani o'shalar qo'limga tushsa, chopib tashlardim".⁶⁷ Shoikromning ushbu alamzadalik holati fojining boshlang'ich nuqtalaridan biri hisoblanadi.

Kechasi Umri xola bilan Shone'mat to'g'risida gaplashgan Shoikrom

⁶⁶ Hoshimov O'. Uzun kechalar. – T: "O'ZBEKISTON", 2018 – 34-bet

⁶⁷ yuqoridagi manba, 38-bet

onasidan Komil tabibning tavsiyasini eshitadi. Unga ko‘ra, Shone‘mat tuzalishi uchun har kuni nahorga qo‘y suti ichishi kerak edi. Shoikrom o‘sha kecha onasi o‘z uyiga kirib ketgach, Xadicha bilan ham suhbatlashadi va xotinidan qulupnay pushtalariga o‘g‘ri oralay boshlaganini eshitadi. Bundan ikki oycha avval Ilhom samovarchining uyiga tushgan o‘g‘rilar uning xotinini pichoqlab ketishganini, kuzda o‘zi bilan birga ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ritokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarni o‘g‘irlab ketishganini eslab, Shoikromning diliga g‘ulg‘ula tushadi: *“Xadicha rost aytadi. O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradida. Bordi-yu, o‘zi yo‘qligida hovlini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... Vijdonsizlar! Odamlarning boshiga tushgan kulfatdan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak!..”* (39-bet) Shundan so‘ng Shoikrom o‘g‘rilarga tuzoq qilib qulupnay pushtalariga elektr toki ulangan uzun simni tashlab qo‘yadi va xotini hamda bolalarini kechasi hovliga chiqmasligini tayinlab, joyiga yotadi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, hovlidan odamning faryodi eshitiladi. Shundan keyin ma‘lum bo‘lishicha, tok urib o‘lgan odam, ya‘ni “o‘g‘ri” Umri xola bo‘lib chiqadi. Behosdan o‘z onasining qotiliga aylangan Shoikromning holati, ukasi Shone‘matning aytgan gaplari (*“Sut ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi! Kechayam aytuvdim, ko‘nmadilar. Qulupnayga qo‘y suti almashadi dedilar”*) asarning kulminatsiyasi hisoblanadi.

Ertasiga Umri xolani dafn etib qaytishayotganda urush tamom bo‘lganini eshitishadi. Shuning uchun ham asarga “Urushning so‘ngi qurboni” deb nom berilgan. Aynan urush keltirib chiqargan musibatlar sabab halok bo‘lgan Umri xola frontga bormagan bo‘lishiga qaramay, urush qurboni sifatida aks ettiriladi. Ushbu hikoya orqali muallif urush faqat jangchilarning emas, jang maydonidan uzoqda bo‘lgan insonlarning ham fojiasiga sabab bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, urush va uning salbiy oqibatlari jamiyatning ma‘naviy holatiga katta zarar keltirishi ham hikoyada o‘z ifodasini topgan.

Yana bir e‘tiborli jihati, “Urushning so‘ngi qurboni” hikoyasi II jahon

urushi mavzusida yozilgan bo‘lishiga qaramay, unda vatanparvarlik, qahramonlik emas, fojiaiy ruh ustun turadi. Buning sababi O‘tkir Hoshimov o‘z ijodida urushning insonlar boshiga solgan kulfatlarini ko‘rsatishga asosiy urg‘uni beradi. Bu adibning boshqa asarlariga ham xos bo‘lgan xususiyat. O‘tkir Hoshimov uchun har qanday urush faqat vayronkor ahamiyatga ega. Adib “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida ham urush haqida mulohaza yuritib, shunday deydi: *“Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g‘olib va baxtli davlat, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo, g‘olib va baxtli odam bo‘lmaydi.”*⁶⁸ Ko‘rinadiki, urushga nafrat, patsifizm va tinchlikparvarlik O‘tkir Hoshimovning asosiy ijodiy prinsplaridan biridir.

“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi II jahon urushi mavzusida yozilgan bo‘lsa, “Nega, nega-a-a?!” hikoyasi muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, *“sho‘rolar bemaqsad boshlagan afg‘on urushi tufayli bevaqt qurbon bo‘lgan hamyurtlarimizga bag‘ishlab”* yozilgan. Ushbu hikoyada yosh o‘g‘lidan ayrilgan ota obrazi asosiy qahramon qilib olingan.

Hikoya nomidanoq uning mazmuni haqida tasavvur paydo bo‘ladi. “Nega-a-a?!” degan jumboqli faryodning hikoyaga nom sifatida tanlanganligi va hikoya so‘ngida ham bu savolga javob berilmaganligi o‘quvchini o‘ylantiradi. Hamidullaning boshiga tushgan og‘ir judolik, ya’ni yosh o‘g‘lining fojiali o‘limi, bu o‘lim tufayli otaning ayanchli holatga tushishi va hikoyaning mana shu “nega-a-a?!” xitobi bilan tugallanishi o‘quvchini hayajonga soladi. Shu bilan birgalikda kitobxonda afg‘on urushining qanday dahshatli oqibatlariga sabab bo‘lgani to‘g‘risida ma’lum darajada tasavvur hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Hikoyada ichki nutq, ruhiyat tasviri muhim o‘rin tutadi. Hamidullaning trolleybusda yo‘l-yo‘lakay o‘ylagan xayollari, yoshlik va yaqin o‘tmish xotiralari, ora-orada tashqi jarayonlarga munosabati mahorat bilan tasvirlangan. Hikoyaning eng kulminatsion qismi uning finalidir. Aynan so‘nggi epizodda afg‘on urushining oqibati bo‘lgan fojia yuz beradi. Ammo, hikoyada faqat afg‘on urushi fojiasi emas, mustabid tuzumning zo‘ravonligi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolar ham

⁶⁸ Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: “”, 20. – 112-bet

tasvirlangan. Masalan, Hamidullaning yomg'ir tufayli esiga tushgan qamalishi va unga sabab bo'lgan voqea orqali ayrim rahbarlarning ma'naviy buzuqligi, kirdikorlari ochib beriladi. Ministarning shofyori bo'lib ishlab yurgan paytida Hamidulla xo'jayinini "bir joy"ga olib borib, o'sha "bir joy"dan chiqishini ancha vaqt kutib, so'ng uni uyiga olib borib qo'ygani uchun yarim kechaga qolib ketgandi. Ustiga-ustak, o'sha kuni o'g'li Rahmatillaning tug'ilgan kuni edi. Shu sababli shoshilib ketayotgan Hamidulla behosdan bir odamni urib yuboradi. Falokatni eshitgan xo'jayin bunga o'zining "bir joy"ga borganini sabab bo'lganini anglab, shofyorining oldiga keladi. Xo'jayinning bu vaziyatdagi holati va Hamidullaga aytgan gaplari quyidagicha tasvirlanadi: *"O'zi stovosmoy, piyonista ekan. Oyog'i sinibdi. Baloyam urmaydi. Kasalxonaga olib borib yaxshi qilibsiz. Sizga hech nima qilmaydi. Men borman. Faqat birov so'rasa "anavi yoqqa" borganimizni aytmaydiz... Tirikchilik ekan, jinday kirakashlik qilayotgandim, deb qo'yaqolasiz."*⁶⁹ Xo'jayinining gapiga kirgan Hamidulla ikki yilga qamaladi. Yuqoridagi parcha orqali yozuvchi siyosiy rahbarlarning xudbin va makkor qiyofasini tasvirlaydi. Yolg'on-yashiq va'dalar berib, o'zini Hamidullaga g'amxo'rday ko'rsatgan ministr aslida o'zining siri fosh bo'lmasligi uchun harakat qiladi. Hamidullaning taqdiri bilan aslida uning ishi yo'q. Buni quyidagi parcha aniqroq dalillaydi: *"Xotini qon-qon yig'ladi. Xo'jayinning oldiga borsa, sekretar kimgazmabdi."*⁷⁰

Shuningdek, Hamidulla otasi haqida ham eslaydi. Otasi frontovik bo'lib, urushda oyog'idan ayrilgan edi. Shahardagi eski uylarning buzilishi jarayonida hovlisini tark etishni istamagan frontovik nogiron holatida ham juda ko'p joylarga arz qiladi. O'z hovlisini saqlab qolishga urinadi. Biroq hikoyada tasvirlanganidek: *"Otasining yelib-yugurishlarining natijasi shu bo'ldiki, uylarida chiroq o'chib qoldi. Gaz kelmay qo'ydi. Mahalladagi o'ttiz ikki xonadon "dom"ga ko'chishga rozi bo'пти. Yigirma bitta oilaga Qurbaqaoboddan yer berilibdi. Sakkiz xonadon*

⁶⁹ Hoshimov O'. Uzun kechalar. – T: "O'ZBEKISTON", 2018 – 144-bet

⁷⁰ yuqoridagi manba, 144-bet

*“buziladigan yer”ga rozi bo‘lib, qarindoshlarinikiga ko‘chib ketibdi.”*⁷¹ Bu tasvirda odamlarni boshpanasiz qoldirgan siyosiy zo‘ravonlik bayon etilgan. Umuman, O‘tkir Hoshimovning urush haqidagi asarlarida urush dahshatlari bilan birga mustabid tuzumning siyosiy kirdikorlari ham yonma-yon tasvirlanishi ko‘p uchraydigan holat. “Nega, nega-a-a?!” hikoyasining hozirgi parchalari buning isbotidir.

Hikoyaning so‘ngida urushdan og‘ir yarador holatda qaytgan o‘g‘ilning, ko‘z o‘ngida farzandining jon berishiga guvoh bo‘lgan otaning tasviri asarga tragik ruh bag‘ishlaydi. Bemaqsad urushda yosh qurbon bo‘lgan Rahmatilla va farzand dog‘ida qolgan Hamidulla kabi qahramonar tipik obrazlar bo‘lib, ularning fojiasi misolida afg‘on urushining xalq boshiga solgan kulfatlari bayon etilgan.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida ham urush va mustabid tuzum sababli xalq boshiga tushgan kulfatlarni tasvirlaydi.

“Ikki eshik orasi” romani 1986-yilda yozilgan bo‘lib, ushbu asarda qariyb qirq yillik voqealar tasvirlangan. Ammo, eng ko‘p o‘rinni II jahon urushi yillari voqealari egallaydi. Romanda polifonik nutq, psixologik tasvir kabi elementlardan unumli foydalanilgan holda turli obrazlarning o‘ziga xos xarakterlari ochib berilgan. Roman to‘laligicha qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. Asosiy hikoyachilar to‘qqizta personaj bo‘lib, bu usul orqali muallif har bir qahramoning ichki dunyosini batafsil tasvirlashga intiladi. Garchi har bir hikoyachi qahramon voqealarga o‘z dunyoqarashi va ruhiy holatidan kelib chiqib baho bersa-da, O‘tkir Hoshimov tanlagan bunday yo‘l asarning obyektivlik darajasini oshiradi. Ya’ni, yozuvchi har bir qahramonni tushunishga intiladi. Agar voqealar faqat bitta qahramon tomonidan hikoya qilinganida, asarning obyektivligi va holisligi sezilarli darajada kamaygan bo‘lardi. Voqelikka turli xarakterga ega qahramonlar tilidan turlicha munosabat bildirish orqali asarning ta’sirchan va tushunarli bo‘lishi ta’minlangan.

Romanda Muzaffar, Munavvar, Shomurod, Ra’no, Umar zakunchi, Orif

⁷¹ yuqoridagi manba, 147-bet

oqsoqol, Husan duma, Kimsan, Robiya kabi personajlar taqdiri urush yillari voqealari bilan bog‘liq holda kechadi. Kimsan Husanov asar voqealarida unchalik ko‘p ishtirok etmasa-da, ammo uning tilidan yozilgan maktublarda urush frontlaridagi voqealar, fashistlarning yovuzliklari tasvirlanadi. Kimsan obrazi urushning vayronkor mohiyatini ochib beruvchi eng muhim figuralardan biridir. Uylariga qo‘shib tiriklayin yoqib yuborilgan odamlar, vayron qilingan qishloqlar, “dyadya Vasya” ismli komandirning fojiali o‘limi, fashist olimlarining inson ustida o‘tkazayotgan shafqatsiz tajribalari aynan Kimsan obrazi tilidan hikoya qilinadi. Robiya obrazining taqdiri ham Kimsan bilan bog‘liq. Ularning samimiy muhabbati ifodalangan o‘rinlar asarga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi. Ammo bu muhabbat urush sababli ayriliqqa aylanadi. Kimsanning halok bo‘lishi natijasida Robiya avval uylangan bolali erkak – Shomurodga turmushga chiqadi. Robiya obrazi urush oqibatida sevgan yigitidan ayrilgan va baxtini yo‘qotgan ko‘plab o‘zbek qizlarining umumlashma obrazidir.

“Ikki eshik orasi” romanida Orif oqsoqol obrazi alohida ajralib turadi. Bu personaj orqali muallif fidoyi, xalqparvar inson haqidagi o‘z idealini tasvirlagan. Abdulla Qodiriyning Yusufbek hoji, Said Ahmadning Ikromjon, Asqad Muxtorning Ochil buva kabi qahramonlari bilan birgalikda O‘tkir Hoshimovning Orif oqsoqolini ham zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi xalq donishmandligini o‘zida ifodalagan yorqin obrazlar qatoriga kiritish mumkin. Orif oqsoqol asarda katta o‘rin tutadi, romanning asosiy personajlardan biri hisoblanadi. Lekin uning kechinmalari o‘z tilidan hikoya qilinmaydi, ya’ni bu obraz hikoyachi-qahramonlar sirasiga kirmaydi. Orif oqsoqolning hatti-harakatlari, fe‘l-atvori va ruhiyati boshqa personajlarning hikoyasi orqali tasvirlanadi. Buning ham o‘ziga yarasha sababi bor. Orif oqsoqolning asar davomida murakkab vaziyatlarda ham o‘zini irodali tutishi, doimo hammaga namuna bo‘lishini inobatga olinadigan bo‘lsa, bu qahramonning ana shu vaziyatlardagi holati o‘z tilidan bayon qilinishi uning badiiy saviyasiga biroz putur yetkazishi mumkin edi. Qahramonning barcha fazilatlarini tashqi tomondan, atrofdagi odamlarning munosabati tarzida ifodalanganligi Orif oqsoqol obraziga yanada ko‘proq mukammallik bergan. Bu personaj ham urushdan

katta jabr chekadi. Uning egizak o'g'illari frontda halok bo'ladilar.

Asarning markaziy qahramoni sifatida Muzaffar obrazini ko'rsatish mumkin. Urush yillarida Bo'rijar qishlog'ida kechgan voqealarga shu qahramon vositasida bolaga xos munosabat bildiriladi. Urush nafaqat uning bolalik davriga, balki keyingi hayotiga ham salbiy ta'sirini o'tkazadi. Uning Munavvar ismli qiz bilan muhabbati baxt emas, fojiaga sabab bo'ladi. Chunki, urush yillari ularni bir ona emizgan edi. Ya'ni ular ko'kaldosh bo'lib, aka-singil hisoblanardilar. Bu sir oshkor bo'lgach, ularning muhabbati fojiaga aylanadi. Buni ko'tarolmagan Munavvar o'z joniga qasd qiladi. Shu tariqa, bu fojia urushdan ancha keyin ro'y bersa-da, uning asosiy sababi urushning salbiy ta'siri edi. Urush mashaqqatlari Muzaffarni onasidan ayirgan edi. Muzaffarning onasi Ra'no yolg'iz hayotga uzoq bardosh bera olmaydi va oilasiga xiyonat qiladi. Uni bu yo'lga Umar zakunchi ismli rais boshlagan edi. Ra'no va Umar zakunchi obrazlari ham umumlashma xususiyatga ega bo'lib, Ra'no urush yillaridagi og'ir hayotga chidolmay irodasizlik qilgan ayollarning, Umar zakunchi esa urush yillaridagi mashaqqatli hayotdan foydalanib, xalqqa zulm o'tkazgan raislarning tipik vakilidir.

“Ikki eshik orasi” romani haqida Umarali Normatov quyidagicha fikr bildiradi: *“Muallif, birinchi navbatda urushni qoralaydi, uning g'ayriinsoniy mohiyatini ochadi. Uning jarohaatlari ko'p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, muallif oddiy odamlarning, ayniqsa, urush yillarida yorqin namoyon bo'lgan fazilatlarini, vatanparvarligini, bardoshini, matonatini ko'rsatadi.”*⁷²

“Ikki eshik orasi” romanida fojiaiy ruh yetakchi o'rinni egallab, urush qoralanadi. Bu orqali O'tkir Hoshimovning tinchlikparvarlik prinsipi aniq ko'rinadi. Urush mavzusidagi yana bir romani – “Tushda kechgan umrlar”da ham bu prinspga amal qilingan. Ushbu asarda afg'on urushi va qatag'on siyosati bilan bog'liq voqealar aks ettirilgan.

Said Ahmad o'zining “Ijod va jasorat” deb nomlangan O'tkir Hoshimov ijodi haqidagi maqolasida “Tushda kechgan umrlar” romaniga quyidagicha baho

⁷² Normatov U. Taqdirlar romani. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1985-yil 27-noyabr

beradi: *“Romanni loqayd – hayajonsiz o‘qib bo‘lmaydi. U kitobxonni larzaga soladi. Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg‘ish yog‘diradi.”*⁷³

“Tushda kechgan umrlar” romani mavzu va g‘oya jihatidan XX asrning birinchi yarmida G‘arb adabiyotida keng tarqalgan “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarga yaqin turadi. Biroq, bu o‘xshashlikni taqlidchilik deb baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. O‘xshash jihatlarning qanchalik ko‘pligiga qaramay, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani original asar bo‘lib, unda milliy xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. “Yo‘qotilgan avlod” yozuvchilarining asarlariga o‘xshashlik esa yozuvchilarning insonparvarlik, patsifizm g‘oyalarini ilgari surgani, urush fojialarini tipik obrazlar vositasida realistik tarzda tasvirlagani bilan belgilanadi.

Romanning asosiy qahramonlari: Rustam, Soat G‘aniyev, Qurbonoy xola, Shahnoza kabi obrazlar vositasida urush, mustamlakachilik zulmi, qatag‘on siyosati va “o‘zbek ishi” jarayonlarining salbiy oqibatlarini tasvirlagan. Roman mavzu va tasvir obyekti jihatidan “Nega, nega-a?!” hikoyasi bilan umumiylik kasb etadi. Har ikki asarda ham afg‘on urushi, mustamlakachilik zulmi ta’sirida halokatga duchor bo‘lgan personajlar taqdiri aks ettiriladi.

Demak, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida urushning vayronkor mohiyatini tipik obrazlar vositasida ifodalaydi. Yozuvchi ijodining tinchlikparvarlik prinsipi urushni qoralovchi hikoya va romanlari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi.

* * * * *

XX asr G‘arb va o‘zbek prozasida urush kishilari tasviriga bag‘ishlangan asarlar g‘oyasi, obrazlar tizimi va badiiy xususiyatlari jihatidan o‘xshashliklarga ega. Bu o‘xshashliklar E.M.Remark va O‘.Hoshimovlarning asarlari orqali aniq ko‘rinadi.

Har ikki yozuvchining urush mavzusidagi asarlari ikki guruhga bo‘linadi. Remark I va II jahon urushlarining, O‘.Hoshimov esa II jahon urushi va afg‘on

⁷³ Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: “SHARQ”, 2000 – 228-bet

urushining insonlar hayoti va taqdiriga ko'rsatgan ta'siri masalasini badiiy obrazlar vositasida ifodalagan.

E.M.Remarkning birinchi jahon urushi mavzusida yozilgan "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Qaytish", "Uch og'ayni" romanlarida "yo'qotilgan avlod" vakillarining urush ta'sirida izdan chiqqan hayoti tasvirlanadi. Remarkning bu guruhdagi asarlari g'oyasi va obrazlari jihatidan O'.Hoshimovning "Nega, nega-a-a?!" hikoyasi va "Tushda kechgan umrlar" romani bilan umumiylik kasb etadi. Har ikki yozuvchining ushbu asarlarida "yolg'on taqdir", "behuda umr" masalalari yosh askarlarning fojiali taqdiri vositasida aks ettiriladi.

Remark va O'.Hoshimovlarning II jahon urushi mavzusidagi asarlarida ham tragik pafos ustuvorlik qiladi. Remark "Zafar darvozasi", "Hayot uchquni", "Lissabondagi tun" kabi romanlarida muhojirlarning og'ir hayotini tasvirlasa, O'.Hoshimov "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi va "Ikki eshik orasi" romanida front ortidagi insonlar taqdiriga ko'proq urg'u beradi. Bu orqali O'.Hoshimov urushning faqat frontdagi askarlar emas, frontdan uzoqda bo'lgan oddiy xalq vakillari uchun ham katta fojialar olib kelganini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. E.M.Remark va O'.Hoshimovlarning bu guruhdagi asarlarini antifashistik ruh birlashtirib turadi.

Har ikki yozuvchi ham yuqoridagi asarlarida urushga dahldor bo'lgan insonlarni tipik obrazlarini tasvirlaydilar. Remarkning bu tiplari ko'proq avtobiografik xususiyatga ega. O'.Hoshimov esa turli insonlardan olingan ma'lumotlar, hayotiy kuzatuv vositasida urush odamlarining tipik obrazlarini yaratgan. Shuningdek, ichki nutq va psixologizmlardan keng foydalanilishi ham ikki yozuvchining umumiy xususiyatlaridan biridir. Remark asarlarida voqealarni birinchi shaxs (men) tilidan hikoya qiladi. O'.Hoshimov esa "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarida polifonik nutqdan unumli foydalangan.

E.M.Remark va O'.Hoshimovlarning urush mavzusidagi har qanday asarlarida qahramonlik motivi emas, fojia va o'lim motivi yetakchi o'rinda turadi. Har ikki yozuvchining qahramonlari jasoratlarga tashna bahodirlar emas, aksincha, urushdan jabr ko'rgan va hayoti izdan chiqqan insonlardir. Bu umumiylik

yozuvchilarning insonparvarlik prinsipi, shuningdek, patsifizm g'oyasini ilgari surganliklari bilan belgilanadi.

BOB BO'YICHA QISQA XULOSA

XX asr adabiyotida urush talqini o'ziga xos o'rin tutadi. I va II jahon urushlari, "sovuq urush", Vyetnam urushi, Yaqin Sharq mojarosi va Arab – Isroil urushlari, "Karib inqirozi", afg'on urushi kabi jarayonlar XX asrda sodir bo'lib, jahon iqtisodiyoti, siyosati, madaniyatiga, shu jumladan badiiy adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. XX asr adiblarining urush mavzusida yozilgan asarlarida inson fojiasi tasviri yetakchi o'rinda turdi.

Nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ijodida urush mavzusi asosiy o'rinni egallaydi. Remark asarlari tasvir obyekti jihatidan ikki guruhga bo'linadi: 1) "yo'qotilgan avlod" haqidagi asarlar. Bu guruhga "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Qaytish", "Uch og'ayni", "Qora haykal" romanlari kiradi. Ushbu asarlar I jahon urushi va undan keyingi davr voqealarini aks ettiradi. Ularning asosiy qahramonlari urushda ishtirok etgan askarlar, shuningdek, I jahon urushining salbiy oqibatlari natijasida hayoti izdan chiqqan turli toifadagi insonlar edi. Demak, bu guruhdagi asarlarning asosiy tasvir obyekti I jahon urushi va uning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri hisoblanadi. 2) Muhojirlik mavzusidagi asarlar. Bu guruhga "Zafar darvozasi", "Hayot uchquni", "Hayot-mamot pallasi", "Lissabondagi tun" romanlari kiradi. Ushbu asarlarda II jahon urushi yillari voqealari tasvirlanadi. Ulardagi asosiy qahramonlar fashizm ta'qibi natijasida o'z yurtini tark etgan muhojir insonlardir. Ushbu guruhga kiruvchi asarlarning tasvir obyekti II jahon urushi va fashizmning vayronkor mohiyati bo'ldi.

XX asr o'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimov ijodi patsifizm g'oyasini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. O'tkir Hoshimovning urush mavzusida yaratilgan asarlari ham ikki guruhga bo'linadi: 1) II jahon urushi haqidagi asarlar. Bu guruhga "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi va "Ikki eshik orasi" romani kiradi. Ularda II jahon urushining jamiyat hayotiga fojiali ta'siri Shoikrom, Umri xola, Muzaffar, Robiya, Kimsan, Shomurod kabi obrazlar vositasida aks ettirilgan.

2) Afgʻon urushi haqidagi asarlar. Bu guruhga “Nega, nega-a?!” hikoyasi va “Tushda kechgan umrlar” romani mansub boʻlib, ularda shu urush sababli behuda qurbon boʻlgan yoshlar haqida hikoya qilinadi. Oʻtkir Hoshimovning yuqoridagi asarlarida ham fojiali ruh ustun turadi. Urushning vayronkor va gʻayriinsoniy mohiyati realistik usulda ochib beriladi. Shu tariqa, Oʻ.Hoshimov ijodida patsifizm gʻoyasi asosiy oʻrinlardan birini egallaydi.

E.M.Remark va Oʻ.Hoshimovlarning urush mavzusida yozilgan asarlarida quyidagi umumiy xususiyatlar mavjud: 1) patsifizm gʻoyasining ifodalanishi; 2) tipik obrazlardan foydalanilishi; 3) ichki nutq va psixologik tasvirlarning keng qoʻllanilishi; 4) tragik pafosning ustunligi.

III BOB. E.M.REMARK VA O‘.HOSHIMOV ROMANLARIDA OBRAZLAR TIPOLOGIYASI

3.1. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida askar obrazining badiiy talqini

Badiiy asarning mavzusi, g‘oyasi va boshqa badiiy xususiyatlari obrazlar vositasida ifodalanadi. Obrazlilik san‘atning barcha turlari qatori badiiy adabiyotga ham xos. Lirik asarlarda tabiat tasvirlari, kechinma uyg‘otuvchi peyzaj tasvirlari obrazlilik kasb etsa, dramatik asarlarda qarama-qarshi qutb vakillaridan iborat bo‘lgan xarakterlar asosiy obrazlarga aylanadi. Epik turdagi asarlarda esa obrazlarning ifodalanishi yanada kengroq imkoniyatga ega. Ayniqsa, romanlarda obrazlarning barcha xususiyatlarini keng, batafsil yoritish imkoni mavjud. Ayni paytda, romanlarda ifodalanuvchi asosiy obrazlar qaysi toifa vakillari sifatida tasvirlanishi romanlarning mavzusiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tarixiy romanlarda tarixiy shaxslar: hukmdor, sarkarda, vazir, shoir, rassom, alloma obrazlari asosiy o‘rinda tursa, ilmiy-fantastik romanlarda ixtirochi olimlar, sayyohlar obrazi tasvirlanadi. Urush haqida yaratiladigan harbiy romanlarda askar obrazi yetakchi o‘rinni egallaydi. Askar obrazining xarakteri, psixologik holatlari tasviri orqali yozuvchilar urush voqeligini aks ettirish bilan birga, urushga qahramon tilidan o‘z munosabatlarini ham bildiradilar. Jahon adabiyotida Nikolay Rostov, Andrey Bolkonskiy (Lev Tolstoy, “Urush va tinchlik”), Bertran (Anri Barbyus, “O‘t”), Frederik Genri (Ernest Xeminguey, “Alvido, qurol!”), Sokolov (Mixail Sholoxov, “Inson taqdiri”), o‘zbek adabiyotida Ahmadjon Shukurov (Abdulla Qahhor, “Oltin yulduz”), Bektemir (Oybek, “Quyosh qoraymas”), Elmurod (Shuhrat, “Shinelli yillar”), Kimsan (O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”) kabi askar obrazlari vositasida urush voqealari, frontdagi jang manzaralari, shuningdek, urushning inson xarakteri va ruhiyatiga ta’siri badiiy ifodalangan. Demak, harbiy prozada askar obrazi yozuvchining bosh g‘oyalarini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Bu jarayon, ayniqsa, E.M.Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”

romanlarida yaqqol aks etadi.

XX asrga kelib jahon tarixidagi eng katta talafotli urushlar bo‘lib o‘tdi. Ayniqsa I va II jahon urushlari bu borada alohida ajralib turadi. Biroq, bu ikki jahon urushlari mohiyat jihatdan bir-biridan farq qiladi. II jahon urushi qurbonlari soni, vayronkorlik darajasi bo‘yicha I jahon urushidan bir necha barobar yuqori tursa-da, unda insonparvarlik, vatanparvarlik prinsplari yo‘lida hamda tinchlik uchun kurash bo‘lib o‘tgan. Aniqrog‘i, Germaniya, Italiya, Yaponiya singari fashistik va militaristik davlatlarning tajovuziga qarshi kurashgan kuchlar xalqlar ozodligi va insoniyat erki uchun, urushni bartaraf etish maqsadida kurash olib borganlar. Shu sababli II jahon urushi haqidagi aksariyat asarlarda tushkunlik kayfiyati emas, qahramonlik va kurashuvchanlik ruhi yuqori turadi. Birinchi jahon urushi esa, bundan farqli ravishda, ozodlik yoki tinchlik uchun emas, yangi o‘ljalar va iqtisodiy daromad maqsadida bo‘lib o‘tgan. Mustamlakachi davlatlar hukumatlari va yirik oligarxlar manfaati uchun olib borilgan bu urushda millionlab yoshlar qurbon bo‘lgan. Ushbu haqiqat “yo‘qotilgan avlod” haqidagi asarlarda, xususan “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida badiiy ifodasini topgan. Remarkning bu romani hali katta hayotga qadam qo‘yib ulgurmagan o‘smir yoshlarning jang maydoniga tashlanishi, front dahshatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan qahramonlar ongida, ruhiyatida paydo bo‘lgan o‘zgarishlar, jang maydonidagi fojiali holatlar tasviriga bag‘ishlangan. Roman quyidagi jumlar bilan boshlanadi: *“Bu kitob aybnoma ham, ayfnoma ham emas. Bu shunchaki urush dastidan juvonmarg bo‘lgan avlod haqidagi, garchi zambarak o‘qidan omon qolgan bo‘lsa-da, shu urushning qurboniga aylanganlar to‘g‘risidagi ko‘ngil izhoridir.”*⁷⁴ Dastlabki jumlaridanoq asarning mazmuni haqida qisqacha axborot berilmoqda. Asar voqelari davomida ushbu kichik axborot badiiy obrazlar vositasida jonli hayotiy manzaralar sifatida tasvirlanadi. Urushda ishtirok etgan yosh avlodning fojiali taqdiri bir necha tipik obrazlar vositasida bayon etiladi. Roman qahramonlari: Paul Boymer, Albert Kropp, Myuller, Tyaden, Leyer, Kemmerix, Katchinskiylar taqdiri misolida bu jarayon aks etadi. Ushbu qahramonlar vatan

⁷⁴ Remark. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016 – 5-bet.

uchun jon fido etish, g'alaba qozonish yoki qahramon bo'lishni emas, tezroq o'z uylariga, tinch hayotga qaytishni orzu qiladilar. Ayni paytda bu qahramonlar urush ta'sirida ma'naviy qiyofasini yo'qotgan, yuksak orzu yoki maqsadlardan mahrum insonlarga aylangan holatda tasvirlanadi. Biroq, ular baribir insoniy sifatlarini ma'lum darajada saqlab qola olganlar. Ular asl haqiqatni urushning o'zidayoq anglab yetadilar. Asar bosh qahramonlaridan biri Paul Boymer tilidan aytilgan quyidagi fikrlar bunga misol bo'la oladi: *"Ular hamon maqolalar yozishar, nutqlar so'zlashardi; biz esa ko'chma shifoxona-yu jon taslim qilayotganlarini ko'rib ulgurgandik. Ular hamon vatanga xizmat qilishdan ortiq oliy ne'mat yo'q, deya ayuhannos solishardi; biz esa o'lim dahshati undan-da kuchliroq ekanini bilardik. Ammo bu bilan birortamiz qochoq, isyonchi yoki qo'rqqoq bo'lib qolganimiz yo'q (bunday so'zlar og'zining bir chetidan chiqib ketardi ularning), vatanni ulardan kam sevmasdik, jangga kirayotib biror marta tizzamiz qaltiramagan; ammo endi nimanidir farqiga yetamiz, go'yo birdan ulg'ayib qolganday bo'ldik. Yana shunga ham amin bo'ldikki, ular bizga ko'z-ko'z qilgan bejama guldan hech nima qolgani yo'q. Biz qo'qqisdan mudhish bir yolg'izlik girdobiga tushib qoldik, endi bu girdobdan chiqib ketish ilojini o'zimiz topishimiz kerak."*⁷⁵ Ushbu kichik parchada yosh avlodning urush jarayoniga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topgan. Undan tashqari, urushga jo'natilgan yosh avlod va ularni frontga yo'llagan hukumat vakillari o'rtasidagi ziddiyat ham aks ettirilgan. "Ular" deb nazarda tutilgan hukmron doiralar frontdagi yoshlarning fojiasiga asosiy sabab qilib ko'rsatilmoqda. Bu jumlarlar fosh etish xususiyati bilan ham ahamiyatlidir. Shu tariqa, "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani hukmron doiralar tomonidan aldanib, urushga jo'natilgan yoshlarning frontda boshdan kechirgan ko'rgiliklari, urushga bo'lgan munosabati va ongidagi evrilishlarni aks ettiradi.

Xuddi shunday g'oya va motiv O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida ham ifodalangan. Ayniqsa, afg'on urushi bilan bog'liq tasvirlar o'rin olgan "Rustamning kundaliklari" bu borada alohida ahamiyatga ega. Afg'on

⁷⁵Remark. G'arbiy frontda o'zgarish yo'q. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2016 – 17-bet.

urushi ham maqsad-muddaosi jihatidan I jahon urushiga yaqin turadi. Unda ham iqtisodiy va siyosiy manfaat minglab yoshlarning fojiasiga sabab bo'lgan. Urushga majburan jo'natilgan askarlar ongiga internatsional burch, insonparvarlik kabi g'oyalar singdirilib, g'arazli maqsaddan iborat bo'lgan siyosat niqoblangan. Asar qahramonlari: afg'on urushi ishtirokchilari Rustam, Temur, Xayriddin, Viktor, Sasha kabi personajlar taqdirida, o'zaro munosabatlarida "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani personajlariga o'xshash belgilar uchraydi. Har ikki roman qahramonlari ham adolatsiz va g'ayriinsoniy urushning ayanchli qurboni bo'lgan avlodning tipik obrazlaridir. "Tushda kechgan umrlar" romanining bosh qahramoni Rustam garchi urushdan tirik qaytgan bo'lsa-da, uning salbiy asoratlardan qutula olmadi. Urush uning dunyoqarashiga ham, ruhiyatiga ham, salomatligiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. O'zi sevgan kursdosh qizi Shahnozaga uylangan bo'lsa ham, ikkisining o'rtasida muhabbat bo'lsa ham, ular baxtli bo'la olishmaydi. Bu baxtsizlikning asosiy sababi esa urushning salbiy ta'siridir. Rustamning o'ta jizzaki, asabiy bo'lib qolishi, adolatsizlikka duch kelganda o'zini bosolmay qolishi, jahli chiqqanda vahshiylashib ketishi kabi psixologik holat tasvirlari buni dalillaydi. Sobiq jangchining urushdan uyga qaytgandan keyin ham ketma-ket adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lishi, ayolining baxtsizligiga o'zini aybdor his etish singari omillar oxir-oqibat Rustamning fojiali o'limiga sabab bo'ladi. "Tushda kechgan umrlar" romanida nafaqat urush, balki mustamlakachilik va qatag'on siyosati realistik tarzda tasvirlangan.

Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani realistik roman hisoblansa-da, unda simbolizm unsurlari ham muhim o'rin egallaydi. Masalan, roman qahramonlaridan biri bo'lgan Kemmerixning etiklari asar davomida bir necha bor o'lgan askardan tirik askarga o'tadi. Kemmerixning o'zi etiklarni o'lgan desantchining oyoqlaridan yechib olgandi. Keyinchalik, Kemmerix ham og'ir yaralanib halok bo'lgach, etiklar Myullerga o'tadi. Paul ularni Myullerga topshirib, u o'lgandan keyin o'ziga meros qilib oladi. Etik detali orqali o'lim jarayoni va inson qadri masalasi ifodalanadi. Shu ma'noda bir juft etik inson hayotiga qaraganda qimmatroqligi, jonsiz predmetning askarlardan ko'ra ko'proq yashashi

tasvirlanadi va bu urushda inson hayoti mutloq ahamiyatsizligini anglatadi.

Romanda yana bir ramziy epizod uchraydi: *“Zaminning qadrini hech kim askarchalik bilmaydi. O‘lim vahimasi uni chalpak qilib tuproqqa qapishtirib tashlaganda yer askar uchun yakka-yu yagona do‘st, og‘a va onaga aylanadi. Askar butun vujudi bilan zaminga yopishib, yuz va lablarini tuproqqa surtib, yuragidagi qo‘rquv, dard hamda iztiroblarini ana shu tilsiz va sodiq homiyiga aytadi – yer uni o‘z quchog‘iga oladi, keyin o‘n daqiqaga yana bag‘ridan bo‘shatadi. Askar o‘n daqiqa chopib o‘tishi, o‘n daqiqa yashab qolishi uchun bo‘shatadi. So‘ng tag‘in ko‘ksidan joy beradi, ba‘zan manguga joy beradi.”*⁷⁶ Ushbu parchada keltirilgan zamin va askar tasviri o‘zida kuchli falsafiy mazmunni aks ettiradi. Ya’ni askar uchun frontda faqat yergina “yagona do‘st, og‘a va ona” bo‘la oladi. Bu yerda ramziy ma’noda o‘limga ishora qilinadi. Yuqoridagi tasvirlar “yer tishlash”, “yer bilan bitta bo‘lish” kabi iboralar bilan bog‘langan holda jangda qurbon bo‘layotgan ko‘plab insonlarning taqdirini badiiy bo‘yoqlarda aks ettiradi. Yer askarlar uchun yagona panoh va himoya vositasi sifatida tasvirlanadi. Bu orqali insonlardan, ayniqsa o‘zlarini urushga safarbar qilgan hukmron tabaqalardan najot ko‘rmagan askarlarning umumiy taqdiri ham aks ettiriladi. Frontdagi askarlarga qiyin vaziyatda hukumat yoki siyosiy rahbarlar emas, faqat yer “ko‘ksidan joy beradi, ba‘zan manguga joy beradi”.

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida urush epizodlari, jang maydonidagi fojiali lavhalar ko‘p uchraydi. Bunday tasvirlar urush dahshatlarini yanada aniqroq tasavvur qilishinishiga yordam beradi. Chunonchi, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida quyidagi tasvirlarga duch kelamiz: *“Dastlabki portlashlarning gumbur-gumburiyoq hayotimizning bir bo‘lagini ming yillar orqaga surib tashlaydi. Bizda hayvoniy sezgi uyg‘onadi, butun xatti-harakatlarimizni ana shu sezgi boshqaradi. Ana shu sezgi bizni qo‘riqlaydi. Bunda oldindan anglangan harakat yo‘q, bu sezgi ongdan ko‘ra tezroq, dadilroq va bexatoroq ishlaydi... Yo‘q, bu boshqa tuyg‘u – bu oldindan*

⁷⁶Remark. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016 – 51-bet.

bilishga o'xshagan hammamizda mavjud sezgi. Shu sezgi askarni birdan yuztuban yotishga majbur qilib, uni o'limdan asrab qoladi.”(52-bet) Ushbu parcha orqali ma'lum bo'ladiki, asarda psixologik holat bilan bog'liq bo'lgan ruhiyat tasviri aks ettirilgan o'rinlar, shuningdek, inson nafaqat badiiy, balki biologik, psixologik tahlil qilingan o'rinlar ham uchraydi. Romanda askar hissiyoti, ularning jang paytidagi psixologik kechinmalari juda aniq tasvirlangani bejiz emas. Bu muallifning biografiyasi bilan bog'liq. Remarkning o'zi ham urush qatnashchisi bo'lib, asarida tasvirlagan qahramonlarining prototiplarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'lim xavfini va jang holatlarini boshdan o'tkazgan va his etgan. Shu sababli yuqoridagi tasvirlar hayotiy va jonli chiqqan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham urushning insoniylikdan yiroq bo'lgan qiyofasi askar obrazining holati vositasida ruhiy ochib berilgan o'rinlar yetarlicha topiladi: “...Avtomat qo'limga yopishib qolganga o'xshar, hech nimani o'ylamay, nuqul otgim kelardi. Emaklab borarkanman, yon tarafimda kimdir gapirgandek tuyuldi. Beixtiyor burilib qaradim.

– Mama! Mama!

Dimog'imga kalla kuydirganda chiqadigan isga o'xshagan hid urildi. Qarasam, Sashaning sochlari yonib, jizg'anak bo'lib ketibdi. Kombinezoni kuyib, badaniga yopishib qolgan, yuzlari qorayib ketgan...

– Mama... – dedi alahsirab...

Tinimsiz o'q uzgancha, chakalakzorga yugurdim...”⁷⁷

Sashaning fojiali o'limi tasvirlangan yuqoridagi parchani o'qigan kitobxon uning ahvoliga achinish bilan birga urushning dahshatli manzarasini ko'z o'ngiga keltiradi. Yoki o'sha voqeaning davomi bo'lgan navbatdagi parchaga e'tibor qarataylik: “...Guvillagan ovozdan o'zimga keldim. BMPda ketayotganimni g'irashira angladim. Yo'q, avval dimog'imga achchiq hid urildi. Ko'zimni ochsam, shundoq Sashaning boshiga yuzimni qo'yib yotibman. Chamamda, Sasha o'lgan, boshi muzdek, undan hamon noxush kuyindi hidi kelardi. Qon aralash kuyindi hidi... Kimdir qornimga qo'lini tashlab olgan... Belim qattiq og'rir edi, suv ichgim

⁷⁷ Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016 – 111-бет.

kelardi. Jahl bilan siltab tashlagan edim, o'sha – kimningdir qo'li shilq etib uzildi-da, huddi o'tin kabi do'p etib yonimga tushdi... Yana xushimdan ketib qoldim.”⁷⁸

Ushbu parcha yanada ayanchliroq holatni tasvirlab, bu jarayonni ko'z oldiga keltirgan kitobxon o'zini Rustamning o'rnida tasavvur qilib ko'radi. Natijada urushning qanchalik kulfat manbayi ekanligini anglab yeta boshlaydi. Ammo, bu faqatgina bir insonning boshdan o'tkazganlari, xolos. Urush davomida shunga o'xshash holatga minglab askarlar tushganligi inobatga olinsa, tasvirning fojiaiylik ko'lami yanada oshadi. Bu o'rinda Sasha obrazi urushda bevaqt halok bo'lgan yoshlarning umumlashma obrazi bo'lsa, Rustam jang maydonida turli azob-uqubatlarni ko'rib, psixologik jihatdan izdan chiqayotgan askarlarning tipik vakilidir.

Yuqoridagi parchalarda tasvirlangan holatlar frontdagi askarlarning ruhiyatiga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Ularning shafqatsiz va vahshiyona qiyofaga kirishlariga sabab bo'ladi. Bu esa insoniy fazilatlarining yo'qolib borishi va ma'naviy qashshoqlikka olib boradi. Mana shunday holat har ikki asar qahramonlari bilan ham ro'y beradi. Masalan, “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” romanida quyidagi jumlagacha duch kelamiz: *“Biz yo'lga chiqqanimizda oddiy askarlarmiz, goh dilgir, goh quvnoq bo'lamiz. Ammo front chizig'iga yetib kelishimiz bilan yarim inson – yarim maxluqqa aylanamiz!”*⁷⁹ Bu yerda Remark askarlar ruhiyatidagi o'zgarishni umumiy holatda tasvirlab, inson qalbidagi yovvoyi instinktlarga e'tibor qaratadi. Front voqeligi askar qalbida turli buzg'unchi va vahshiy hissiyotlarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Shunga o'xshash holat “Tushda kechgan umrlar” romani qahramoni Rustamda ham ro'y beradi. Quyidagi parchada bu jarayon aniq ko'rinadi: *“...Pastak devor ortida sallali bosh ko'zga tashlandi. Yelkasidagi granatamyotini devorga tirab to'g'irladi. Vujudimda ajal sharpasi bir lahza aylangandek bo'ldi. Qizig'i shundaki, men negadir umuman qo'rqmadim. Nimagaligini tushuntirib berolmayman. Ajal qarshingda tursa-yu, qo'rqmasang! Shunisi esimdagi, xotirjam buyurdim:*

⁷⁸ o'sha manba, 112-bet

⁷⁹ Remark. G'arbiy frontda o'zgarish yo'q. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016 – 53-bet.

– *Uchta snaryaddan o‘t och!*

*Odamning talqon kabi mayda-mayda bo‘lib ketganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Tutun tarqalgach, qarasam, devor ham, boyagi salla kiygan jangari ham yo‘q...*⁸⁰ Ushbu parchada dushmandan o‘ch olish o‘tida yonayotgan, bu yo‘lda ko‘ziga hech narsa ko‘rinmayotgan jangchining psixologik holati mahorat bilan bayon etilgan. Shu parchaning davomi bo‘lgan quyidagi epizodlarda esa bu jarayon yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi: “...*Ro‘parada turgan qubbasimon kulba ichidan avtomatning tarillagani eshitildi. O‘qlar tank zirxiga urilib chiyillagancha sakrab ketayotganini his etib turar, ammo lyukni yopishni hayolimga keltirmasdim.*

– *O‘t och!*

Qubbasimon kulba xotirlarning upadonidek oppoq kukunga aylandi. Men esa aqldan ozib qolganga o‘xshardim.

– *Viktor! Bos! Bos! – derdim nuqul hayqirib.*

Tank quturgancha o‘kirib, shiddat bilan olg‘a bosar, pulemyotidan tinimsiz o‘t ochgancha duch kelgan narsani yakson qilib borar, qubbasimon tomli kulbalar, turli xil daraxtlar, uzum toklari, uyoqdan buyoqqa bezovta yugurayotgan sigir, qanotlarini patirlatib, jonsarak qaqag‘layotgan tovuqlar ko‘zga chalinib qolardi.

– *Bos! Bos! – derdim avtomatdan tinimsiz o‘q uzib.*” (115-bet.) Ko‘rinadiki, O‘tkir Hoshimov ham qahramon tilidan aniq voqelik vositasida inson dilida uyg‘ongan vayronkor hissiyotni tasvirlaydi. Har ikki muallif bu jarayonga alohida urg‘u bergan holda, urushning inson ruhiyatiga salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu jarayonni aks ettirishda yozuvchilar o‘ziga xos usullardan foydalanadilar. Xususan, Remark urush hodisalari va askar hissiyotini qahramon tilidan bayon etadi. Shu usul orqali qahramonning ichki kechinmalari aniqroq va bor bo‘yicha tasvirlanadi. O‘tkir Hoshimov esa kundalik predmetidan samarali foydalanadi. Barcha urush bilan bog‘liq epizodlar Rustamning kundaligi ko‘rinishida, qahramonning esdaliklari holatida aks ettiriladi.

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida urushning inson psixologiyasiga salbiy ta‘siridan tashqari jismoniy o‘lim

⁸⁰ Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016 – 114-бет.

tasvirlangan epizodlar ham muhim o‘rin tutadi. Biroq, yozuvchilar jismoniy o‘limni shunchaki tasvirlab qo‘yish bilan cheklanmaydilar. Bu o‘lim tasviri ostiga tag ma’no yuklaydilar. Gap shundaki, mualliflar asosan yosh o‘spirinlarning o‘limi jarayonini tasvirlashga alohida urg‘u beradilar. Natijada, asarning didaktik ahamiyati oshiriladi. Jumladan, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida quyidagi tasvirlarga duch kelamiz: “... *Bir kunda naq o‘n bitta safdoshimizdan ayrildik, ularning beshtasi sanitarlar. Ikkitasi parcha-parcha bo‘lib ketgan. Ularni okop devoridan qoshiqda qirib olib, qozonga ko‘msa ham bo‘ladi, deydi Tyaden. Uchinchisining oyoqlaridan biri gavdasining pastki tomoni bilan qo‘shilib uzilgan. Gavdaning yuqori qismi okop devoriga tiralib turibdi, jasadning tusi sap-sariq, soqoliga osilib qolgan tamaki qoldig‘i hali o‘chmagan. Murdalarni katta bir chuqurga taxlaymiz. Hozircha ustma-ust uch qavat bo‘ldi.*”⁸¹ Yuqoridagi parchada jangda ko‘plab insonlar halok bo‘lib borayotganligi, “odam qirg‘ini” tasvirlangan. Bu jarayonlar qahramon tilidan oddiy holatdek tasvirlanadi. Bu ham askar obrazining urushdagi psixologik holatini ifodalab, askarning sovuqqon munosabati orqali bu kabi fojialar odatiy holatga aylanganligini anglatadi. Askarda ruhiy moslashuv sodir bo‘lganligi yuqoridagi epizodda aks etib turadi. Navbatdagi parchada urush qurbonlarning ko‘pchiligi yosh askarlar ekanligi alohida ta’kidlanadi: “...*Halok bo‘lgan bitta keksa jangchiga besh-o‘nta yosh jangchining jasadi to‘g‘ri keladi. Ko‘pchiligi kimyoviy hujum natijasida o‘lishadi. O‘zlarini nima kutayotganini bilishga ham ulgurmaydilar. Blindajlardan biri labi va yuzlari qorayib ketgan murdalar bilan to‘lgan. O‘ralardan biridagi yosh askarlar gazniqoblarini ertaroq yechib yuborishadi. Ular zaharli gaz havoga qaraganda yerda uzoq turishini bilmasdan, tepada gazniqobsiz yurgan askarlarni ko‘rib o‘zlarinikini shosha-pisha yechib tashlashadi. Natijada gaz yutib, o‘pkalarini ishdan chiqazib olishadi. Endi ularning ahvoli chatoq: qiynalib, qon qusib, uzoq jon berishadi.*”⁸² Bu yerda birinchi marta jangda ishtirok etayotgan o‘spirinlarning frontdagi holati, oddiy sabablar tufayli o‘lim topayotganliklari bayon etilgan.

⁸¹Remark. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016 – 115-bet.

⁸²yuqoridagi manba, 117-bet

Keyingi parchada ham bu holat yanada batafsilroq tasvirlanadi: “...*Sholg‘om sho‘rva ichaverganidan tinkasi qurigan, “tiq”degan tovushdan o‘takasi yorilib, yerga uzala tushib qapishib oladigan sho‘rpehana botirlarni dastlabki qarashdayoq taniymiz. Tag‘in bular hujumda ishtirok etishadi. Dushman bilan yuzma-yuz urushishadi. Bechora no‘xatpolvonlar! Ular shu qadar yurak oldirib qo‘yishganki, birining ko‘ksi yoki qorni yorilib, boshqasining qo‘l-oyog‘i uzilib yotibdi-yu, baqirib dodlashga ham iymanishadi, faqat g‘ingshiydi, ba‘zilari onasini yordamga chaqiradi. Bexosdan birov qarab qolsa, darhol dami ichiga tushib ketadi!..*” (116-bet.) “Bechora no‘xatpolvonlar” deb baho berilgan o‘spirin jangchilarga hikoyachi-qahramon achinadi. Ularga yordam bera olmasligidan afsuslanadi. Ayni paytda, o‘zi va tengdosh do‘stlari ham ular bilan taqdirdosh ekanligini yaxshi his etadi. “Sho‘rpehana botirlar” deganda faqat yangi, tajribasiz askarlar emas, umumiy askarlar jamoasi nazarda tutiladi.

“Tushda kechgan umrlar” romanida Xayriddin obrazi alohida o‘ringa ega bo‘lib, u bevaqt qurbon bo‘lgan yosh askarlarning turli toifalariga xos xususiyatlarni o‘zida birlashtiradi. O‘tkir Hoshimov afg‘on urushining halokatli ta‘sirini Rustam bilan birgalikda Xayriddin obrazi orqali ham bayon etadi. Xususan, asarda Xayriddin tilidan urushga quyidagicha ta‘rif beriladi: “...*Urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo‘lgining kelsa, shafqatsiz bo‘l. O‘lgining kelmasa, o‘ldir...*”⁸³ Urushning adolat va haqiqat tamoyillariga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi ushbu jummalarda qahramonning xulosasi fonida ifodalangan. Bu orqali muallifning ham urush haqidagi o‘z qarashlari badiiy ifodasini topgan. Shuningdek, Xayriddinning o‘limi tasviri ham o‘ziga holatda tasvirlangan. Muallif ushbu qahramonni jang paytida odatiy tarzda o‘q tegishi yoki snaryad portlashidan halok bo‘lishini tasvirlamaydi. Aksincha, Xayriddinning o‘limi jarayoniga ramziy ma‘no yashiradi. Ya‘ni Xayriddin o‘z tug‘ilgan kunida dushman tomonida jang qilayotgan o‘zbek jangarisi tomonidan o‘ldiriladi. Tug‘ilgan kunidagi o‘lim qahramon taqdirining fojiaaviylik ko‘lamini yanada kuchaytiradi. Undan tashqari, hayotdan hech narsa topishga ulgurmay yosh qurbon bo‘lganligini alohida

⁸³ Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016 – 100-бет.

ta'kidlamoqchi bo'ladi. Xayriddinning o'z millatdoshi tomonidan o'ldirilishi esa nafaqat urushning g'ayriinsoniy mohiyatini, bir millat vakillarini ikki dushman qutbga bo'lib yuborgan mustabid tuzumning halokatli ta'sirini anglatadi.

Demak, "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida urushning inson, jamiyat taqdiriga salbiy ta'siri aks ettirilgan. Asarlarda tipik obrazlar, turli detallar, psixologik tasvir va simvolizm elementlaridan unumli foydalanilgan.

3.2. "Uch og'ayni" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida "yo'qotilgan avlod" muammosi

"Yo'qotilgan avlod" ("Lost Generation") deganda XX asrning 20 – 30-yillar G'arb adabiyotida keng tarqalgan adabiy yo'nalish tushuniladi. Ushbu atama ilk bor amerikalik adiba Gertruda Stayn tomonidan ishlatilgan. Bu yo'nalishdagi asarlarda urush dahshatlari, frontlardagi urush epizodlarini haqqoniy tasvirlash bilan birgalikda sobiq askarlarning urushdan keyingi hayoti va taqdiri ham aks ettirilgan. "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti quyidagi xususiyatlarga ega: 1) bosh qahramon sifatida yoshlarning tanlanishi; 2) realizm, modernizm, simvolizm oqimlarining sinkretik tarzda ifodalanishi; 3) tragik pafos va o'lim motivining ustuvorligi; 4) ichki nutq va psixologizmlardan keng foydalanilishi.

I jahon urushining fojiali oqibatlari va bu urushga insonlarning munosabati masalasi "yo'qotilgan avlod" yo'nalishining asosiy mavzusi edi. S.Fitsjerald, E.Xeminguey, R.Oldington, E.M.Remark, U.Folkner singari yozuvchilarning asarlarida bu xususiyat badiiy obrazlar vositasida aks ettiriladi. Lekin ushbu asarlarning qahramonlari ham o'zlariga nimadandir yupanch qidiradilar. Masalan, ingliz yozuvchisi Richard Oldingtonning "Hamma odamlar – dushman" asari qahramoni jamiyatdan va bu dunyodan voz kechib, o'z sevgan ayoli bilan xayoliy Ea orolida yashirinib hayot kechirishni orzu qilib yashagan. Bu jarayonda qahramonning ong va ruhiyati tasviri yetakchi o'rinni egallagan. Yirik amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueyning "Quyosh baribir chiqaveradi" romani qahramonlari ham hayotdagi turli narsalardan ovunchoq, yupanch qidiradilar.

Ushbu asarga mashhur amerikalik adiba Gertruda Staynning *“sizlarning barchangiz yo‘qotilgan avlodsiz”* degan so‘zlari epigraf qilib olingan. Roman qahramonlari Jeykob, Bret, Maykl, Robert Kon singari qahramonlar urush ta‘sirida yo‘lini yo‘qotgan, hayoti izdan chiqqan insonlarning tipik vakillaridir. Ushbu qahramonlar aniq bir hayotiy maqsadga ega emas. Ular sayohatlar, ko‘ngilochar tomoshalar va ichkilik bilan ovunmoqchi bo‘ladilar. Ularga yupanch beruvchi yagona najot muhabbatdir. Bu jarayon Jeykob va Bret obrazlarining o‘zaro munosabatlari orqali aniqroq ko‘rinadi.

E.Xemingueyning boshqa bir mashhur asari *“Alvido, qurol!”* romani qahramoni Frederik Genri dastlab Italiya armiyasida xizmat qiluvchi amerikalik ofitser edi. Avstriyaliklar bilan bo‘layotgan jangda oyog‘idan jiddiy yaralanib, harbiy gospitalda yotib davolangach, yana frontga qaytadi. Biroq, o‘z rotasidagi yigitlarning hayotini saqlab qolish maqsadida qilgan harakati qochoqlik deb baholangach, urushdan voz kechadi. U sevgan ayoli – hamshira Ketrin bilan birga yashab, o‘z shaxsiy hayoti va baxtini g‘ayriinsoniy urushdan ustun qo‘yadi. Asar so‘zboshisida keltirilgan quyidagi jumlar juda xarakterlidir: *“Men juda ko‘p urushlarda bo‘ldim, shu boisdan bu masalada g‘arazim qattiq, xatto juda qattiq. Bu kitobning muallifi ongli ravishda shu narsaga amin bo‘ldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir. Frontning qizg‘in qismlariga kirib borganing sari bunday odamlarga ko‘proq duch kela boshlaysan. Ammo urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani bilmaydigan to‘ng‘izlardir. Men bunday odamlar urushning dastlabki kunlaridanoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog‘i lozim deb hisoblayman”*⁸⁴

Amerikalik yana bir mashhur yozuvchi Uilyam Folkner ham o‘zining 1925-yilda yozilgan ilk romani *“Askar mukofoti”*da *“yo‘qotilgan avlod”* vakillarining obrazlarini yaratgan. Bu asar haqida professor A.Saidov shunday fikr yuritadi: *“Mazkur asar imperialistik urushga ochiq-ravshan qarshi qaratilgan. Romanning qahramoni – uchuvchi yaralanganidan keyin ko‘pgina insoniy*

⁸⁴ Xeminguey E. Chol va dengiz. – Toshkent, 2017 –103-bet.

xususiyatlarini yo‘qotadi. Uning vafoti esa inson shaxsi so‘nish jarayonining nihoyasi bo‘lgan, xolos. Ushbu romanda adib urush qiyofasidagi qahramonlik niqobini yirtib tashlab, buning odamlar uchun keltirgan mislsiz kulfatlarini ochib tashlagan. Bu asarni mutolla qilar ekansan, “vatanparvarlik”, “muqaddas qurbonlar”, “qahramonlik”, “jangovar shuhrat” kabi balandparvoz so‘zlar yaltiroq o‘rama bo‘lib, uning ichida esa odatiy o‘lim yashiringanligi ko‘zga tashlanadi.”⁸⁵ Bu asarda urush tufayli askarlar qahramonlik yoki shon-shuhrat emas, azob va o‘lim topganligi badiiy aks ettirilgan. Asar nomidagi “mukofot” so‘zi tagida kinoya mavjud bo‘lib, bu so‘z tagida barbod bo‘lgan hayot, bevaqt va behuda o‘lim ma’nosi yashirilgan.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti qahramonlarini shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: **1)** frontda jang qilayotgan askarlar. Masalan: Bertran (A.Barbyus, “O‘t”), Genri (E.Xeminguey, “Alvido, qurol!”), Boymer (E.M.Remark, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”); **2)** urushdan qaytgan, lekin bu urushning salbiy asoratlari ostida yashayotgan sobiq jangchilar. M: Birkxolts (E.M.Remark, “Qaytish”), Lokamp (E.M.Remark, “Uch og‘ayni”), Jeykob (E.Xeminguey, “Quyosh baribir chiqaveradi”); **3)** urushda ishtirok etmagan bo‘lsa ham shu urushning salbiy oqibatlari tufayli hayoti izdan chiqqan turli toifadagi insonlar. M: Patritsiya, Grau, Xasse (E.M.Remark, “Uch og‘ayni”), Kon, Bret (E.Xeminguey, “Quyosh baribir chiqaveradi” va hok.). Ushbu qahramonlarning barchasini urushning salbiy asoratidan jabrlanganlik xususiyati birlashtirib turadi.

“Yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarning qahramonlari haqida rus tadqiqotchisi Ye.V.Staroverova o‘zining “Badiiy adabiyotda “yo‘qotilgan avlod” (“Потерянное поколение” в литературе)” kitobida shunday fikr yuritgan: “Barcha “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ular doimiy ravishda o‘zlarining nima uchun urushda qatnashganliklarini anglashga intiladilar. Bu obrazlar asar davomida shaxs sifatida o‘sib boradilar, oxir-oqibat o‘zlarining iqtisod va siyosat manfaati uchun qurbon bo‘lganlarini

⁸⁵ Саидов А. Уилям Фолкнер – инсонпарвар ёзувчи. // Фолкнер У. Қисса ва хикоялар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013 – 9-бет.

anglab yetadilar.”⁸⁶ Bu xususiyat E.M.Remarkning “Uch og‘ayni” va O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlari qahramonlariga mos keladi.

Remarkning “Uch og‘ayni” romanida I jahon urushida qatnashgan, urushdan keyin hayotda o‘z yo‘lini topishga intilgan turli taqdirilar va xarakterlar tasvirlangan. Asar qahramonlarining o‘zaro suhbatlari, hatti-harakatlarida, bosh qahramon Robert Lokampning o‘y-mulohazalarida “yo‘qotilgan avlod”ga xos xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Uch og‘ayni sifatida nazarda tutilgan do‘stlar: Robert Lokamp, Otto Kester, Gotfrid Lents kabi obrazlar urushdan keyin o‘z umrlarini imkon qadar mazmunli, betashvish va zavqli o‘tkazishga qaror qilganlar. Ular har qanday g‘oya va mafkuralarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotgan, jamiyat qonunlarini mazmunsiz va foydasiz deb hisoblovchi insonlarning umulashma obrazi hisoblanib, 20 – 30-yillar kishilariga xos xususiyatlarni badiiy aks ettiradilar. Ularning dunyoqarashi bu holga kelishiga aynan I jahon urushi sabab bo‘lgan. Bu qahramonlar urushdan so‘ng hayotlarining mazmuni deb faqat o‘zaro do‘stlikni tan oldilar. Bir qarashda roman qahramonlari tushkunlikka tushgan, kelajakka bo‘lgan umidini butunlay yo‘qotgandek bo‘lib ko‘rinadilar. Lekin bu qahramonlar ezgulik, do‘stlik va muhabbat kabi muqaddas tushunchalarni qadrlaydilar. Faqat atrofda, jamiyatda turli illatlar avj olgan bir davrda ular bunday muhitga moslashishni xohlamadilar. Ular o‘zlari muqaddas deb hisoblagan ezgu tushunchalarga xiyonat qilmagan, buzilgan jamiyatda ham o‘zligini saqlab qolishga intiluvchi obrazlardir. Lokamp, Lents, Kester, Grau va boshqa personajlar o‘zlariga faqat kulfat keltirgan adolatsiz urushdan iborat o‘tmishlarini unutishga intiladilar. Ular jamiyatda o‘z mavqeini topolmagan “kichkina odamlar” sifatida tasvirlanishsa ham, o‘z e’tiqod va dunyoqarashiga ega insonlardir. Roman bosh qahramoni Robert Lokamp tilidan aytilgan quyidagi jumalarda qahramonlar xarakteri va ruhiyati aks etadi: *“Biz o‘tmishimizga dahldor barcha narsaga qarshi – soxtalik va xudbinlik, ochko‘zlik va shafqatsizlikka qarshi kurashmoqchi edik; biz bag‘ritosh bo‘lib qoldik va yaqin o‘rtog‘imizdan boshqa*

⁸⁶Старовойтова Е.В. Потерянное поколение в литературе – Санкт-Петербург: “Лицей”, 2005
<http://navoine.info/lost>

*hech kimga, bizni hech qachon aldamagan osmon, tamaki, daraxtlar, non va zamindan bo'lak hech narsaga ishonmay qo'ydik. Natijada bari yemirildi, qalbakilashdi va unutildi. Unuta olmaganlarning ulushi esa faqat nochorlik, noumidlik, loqaydlik va ichkilik bo'ldi. Buyuk insoniy va mardona talpinishlar davri o'tdi. Korchalonlik, sotqinlik va qashshoqlik tantana qildi...*⁸⁷ Ushbu parchada qahramonning o'sha davrga va jamiyatga bergan ta'rifi ham o'z ifodasini topgan.

Remark yaratgan ushbu qahramonlarni pessemistik obrazlar deb atash noto'g'ri bo'ladi. To'g'ri, ular haqiqat va ezgulik tantanasi uchun faol kurash olib bormaydilar. Biroq ular ma'naviy tanazzulga uchragan jamiyatda ham do'stlik, muhabbat kabi ezgu tushunchalarni qadrlaydilar. Demak, "Uch og'ayni" romani qahramonlari butkul umidsizlikka tushgan kishilarning emas, hayotdan ovunchoq qidirayotgan, ma'naviy qiyofasini saqlab qolishga intilayotgan insonlarning umumlashma obrazlardir.

Remarkning "Uch og'ayni" romani qahramonlari realistik obrazlardir. Ular romantizm adabiyotidagi qahramonlar kabi adolat tantanasi uchun o'z hayoti va huzur-halovatidan voz kechmaydilar. Ularning ruhiyatida o'z "men"ini o'ylash, o'z manfaati uchun yashash kabi har bir insonga xos bo'lgan tabiiy intilishlar ko'rinib turadi. Biroq, bu sifatlar qahramonlarning badiiy qimmatini tushurmaydi, aksincha, asarning realistik xususiyatini yanada kuchaytiradi.

Romanda o'sha davr ijtimoiy hayotiga oid turli lavhalar, xususan, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, odamlardagi sarosima va kelajakka bo'lgan ishonchning yo'qolgani kabi tafsilotlar Xasse obrazi orqali bayon etiladi. U asarda quyidagicha tasvirlanadi: *"...U ishsiz qolishdan qo'rqib yurak hovuchlab yashaydi. Agar ishdan haydalsa – tamom. Xasse qirq besh yoshlarda edi. Bu yoshdagi odamni kim ishga oladi? Ilgari bunchalikmasdi, qoqilgan odam o'zini o'nqlab ketardi, hozir esa ishdan bo'shasang – umrbod ko'chada qolasan... Tabiatan yumshoq, oqko'ngil bu odamga ichim achib ketdi. Kamtarin, vijdonan ishlaydigan xizmatchi. Hozir bunaqalarga kun yo'q. Nafsilamrini aytadigan bo'lsak, hamma vaqt ham bu*

⁸⁷ Ремакк Э.М.. Уч оғайни. – Тошкент, "ШАРҚ", 2015 – 53-бет.

*toifadagi kishilarga qiyin bo'lgan. Kamtarlik va halollik faqat romanlarda ulug'lanadi. Hayotda esa bunday odamlarning shirasini so'rib, po'stini tuflab tashlashadi...*⁸⁸ Bu obraz vositasida davrning ijtimoiy muammolari va ularning inson hayoti, ruhiyatiga ta'siri ifodalangan. Xasse ayolini baxtli qilish, hayotini yaxshilash uchun intiladi. Lekin uning barcha harakatlari bekor ketadi. Xotini har kuni janjal ko'taradi, hayotidan doimiy noliydi. Oxir-oqibat u Xasseni tashlab ketadi. Xasse shundan so'ng o'z joniga qasd qiladi. Ushbu personaj urushdan keyingi davr og'ir hayot va muhit qurboniga aylangan insonlarning tipik obrazidir.

Roman qahramonlari orasida Ferdinand Grau obrazi alohida ajralib turadi. U marhum insonlarning fotosuratiga qarab ularning portretini chizib, shu orqali tirikchilik qiladigan personaj. Uning o'zaro suhbatlarda aytadigan gaplari, o'zini tutishidagi o'ziga xosliklar asarga o'zgacha ruh beradi. Ushbu obraz tilidan aytilgan quyidagi jumalarda ham jamiyatdagi axloqiy muammolarga ishora qilingan: *"Hayot haqida o'ylaganimda dilgir bo'lasan. Ammo odamlar hayotni nimaga aylantirib yuborganlarni ko'rganingda esa faqat surbet bo'lish mumkin"*. (o'sha manba, 294-bet). Grau boshqa sharoitda yetuk rassom bo'lishi mumkin edi. Uning ijodkorlarga xos dunyoqarashi, hayotning turli jihatlariga chuqur falsafiy yondosha olishi alohida tasvirlanadi. Remark bu orqali urush ijodkorlarning ham taqdiriga salbiy ta'sir o'tkazganligini ta'kidlaydi. Grau obrazi urushdan keyingi davrning ma'naviy buzilgan muhitida qiynalayotgan, o'z yo'li va o'rnini topa olmagan iste'dodli insonlarning tipik vakili sifatida aks ettiriladi.

Valentin Gauzer obrazi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu qahramon urushda baxtli tasodif sababli o'limdan qutulib qolgan inson bo'lib, urushdan keyin katta meros olgan. Shundan beri har kuni tirik qolganini nishonlash uchun restoran va kafelarda do'stlari va o'rtoqlari bilan maishat qiladi. Bu qahramon hayotini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun qolgan personajlardan ko'ra ko'proq imkoniyatga ega, biroq u ham asardagi boshqa obrazlar singari yuksak maqsadlar va ulug'vor g'oyalar bilan yashamaydi. Aksincha, qolgan umrini imkon qadar xursandchilik bilan kechirishga intiladi. Asarning deyarli barcha qahramonlari

⁸⁸ Ремак Э.М.. Уч оғайни. – Тошкент, "ШАРҚ", 2015 – 23-бет.

ruhiyatida shunday kayfiyat mavjudligi ularning umumiy xususiyatidir. Bu ham “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga xos umumiy xususiyat hisoblanadi.

Romanda muhabbat tasviri katta ahamiyat kasb etadi. Robert va Patritsiya obrazlari o‘rtasidagi muhabbat munosabatini tasvirlashda kontrast usulidan muvaffaqiyatli foydalanilgan. Muhabbat sabab ularning baxtli o‘tkazgan kunlari tasvirida hayotsevarlik, go‘zallik va yuqori kayfiyat ko‘rinsa, ushbu muhabbatning fojiali ayriliq bilan tugashi orqali o‘sha davrdagi og‘ir hayotda sof va samimiy tuyg‘ular uzoq yasholmaydi, degan tushkun g‘oya sezilib turadi. Patritsiyaning bevaqt o‘limi ham urushning salbiy oqibati ta’sirida yuz beradi. Doktor Jaffening ta’kidlashicha, Patritsiya urush yillari to‘yib ovqat yemaganligi sababli kasallikka yo‘liqqan va bu kasallik oxir-oqibat uning o‘limiga sabab bo‘ladi. Demak, bu yerda ham fojianing asosiy sababi urush. Bu urush romanning barcha qahramonlari taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa, muallif urushni qoralaydi va patsifizm g‘oyasini ilgari suradi.

Ushbu roman orqali Remarkning o‘ziga xos uslubi va badiiy mahorati yorqin aks etgan. Do‘stlik, muhabbat, sog‘inch, ayriliq kabi tuyg‘ular tasvirida ixcham va sodda iboralardan foydalaniladi. Remark uslubiga xos bo‘lgan lakonizmlardan keng foydalanilishi asarning realistik xususiyatini va badiiy qimmatini oshiradi.

“Uch og‘ayni” romani “yo‘qotilgan avlod” adabiyotining tipik namunasi hisoblanib, ushbu asar qahramonlari vositasida urushning vayronkor mohiyati, davr fojiasi badiiy bo‘yoqlarda aks etadi.

“Yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishi G‘arb adabiyotiga xos. O‘zbek adabiyotida bu atama qo‘llanilmaydi. Biroq O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani “yo‘qotilgan avlod”ga xos bo‘lgan ko‘plab xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ya’ni ushbu romanda taqdirleri voqealar markazida turuvchi qahramonlar: Rustam, komissar Soat G‘aniyev, deputat Shomansur Shomatov, Qurbonoy xola kabi obrazlarning hayoti huddi tushdagidek ma’nisiz va alg‘ov-dalg‘ov o‘tdi. Asar bosh qahramoni Rustam afg‘on urushi sababli hayoti izdan chiqqan, bu urushning asoratlari ta’siridan qutula olmagan obraz bo‘lib, bu

xususiyatlariga ko'ra "Uch og'ayni" romani qahramoni Robert Lokampga yaqin turadi. Umuman, nafaqat bosh qahramon taqdiri, balki romanning nomidan ham "yo'qotilgan avlod"ga xoslik anglashiladi. Romanning ilk jumlaridayoq Rustam tilidan yozilgan quyidagi jumlar asarning mazmunini belgilab beradi: *"Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi. Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi..."*⁸⁹ Ushbu parchada peyzaj san'atidan foydalanilgan. Bu peyzaj go'zal manzarani emas, aksincha g'amgin holatni ifodalaydi. Shu orqali asarning fojiali ruhda yozilganligi ilk tasvirlardan oq sezila boshlaydi. "Kuz", "xazon", "kafan", "zulmat", "qarg'alar" kabi so'zlar noxush manzarani tasvirlab, qahramonning ruhiy holatini ifodalaydi. Ushbu tasvirlar davom etib, endi tabiat vositasida bosh qahramonning fojiali taqdiriga ishora qilinadi: *"...Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yosh to'kadi. Sim-sim yomg'ir yog'adi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi..."*⁹⁰. Bu yerda "to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiat" aslida ramziy xususiyat kasb etib, Rustam va boshqa yosh qurbonlarning fojiali taqdirini ifodalaydi. Rustam o'qishini to'xtatib, armiyaga ketdi. Armiyadan esa urush bo'layotgan Afg'onistonga jo'natildi. Vatani va xalqi uchun emas, sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat harbiy-siyosiy manfaati uchun jang qildi. O'ziga o'xshash yosh yigitlarning Afg'oniston hududida bekordan-bekorga o'lib ketishlariga, mahalliy afg'on xalqi ham bu urushdan katta azob-uqubat ko'rayotganiga guvoh bo'ldi. O'sha urush natijasida kasallikka chalindi. Buning ustiga, urushda tirik qolib, uyiga qaytganidan keyin ham ko'plab adolatsizliklarga guvoh bo'ldi. Ambartsumyan boshliq bir guruh sovet organi xodimlari "o'zbek ishi" masalasidagi katta jinoiy ishni qo'zg'ab, arzimagan ayblar va tuhmatlar bilan ko'plab aybsiz odamlarni qamab yoki ottirib yubordilar. Ular

⁸⁹Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2016 – 3-бет.

⁹⁰ o'sha manba, 3-бет

qatorida Rustamning otasi – deputat Shomatov ham bor edi. Butun umrini mamlakat va xalq manfaati uchun sarflagan, shu yo‘lda bir umr astoydil xizmat qilgan Shomatov o‘n yil muddatga shimoliy Qozog‘istondagi lagerlardan biriga surgun qilinadi. Shomatovning aybini bo‘yniga qo‘yish, uni o‘z aybiga o‘zi iqror bo‘lishga majbur etish uchun qilingan “usul” esa har qanday zulm va adolatsizlikning eng yuqori cho‘qqisi sifatida talqin etiladi. Shomatov obrazidagi “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga xos “behuda umrni anglab yetish” xususiyati uning Rustamga yozgan ikkinchi maktubi orqali yorqin aks etgan. Maktubda quyidagi jumlar keltirilgan: *“Yoshim oltmishdan o‘tib ko‘p narsalarni endi-endi tushunyapman, xom sut emgan banda!.. O‘ylab qarasam, o‘tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u, tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib. O‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg‘onishga esa qo‘rqanman... Mana endi uyg‘onib, yon-verimga qarasam, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan...”*⁹¹ Ushbu jumlar orqali o‘z umrini qayta sarhisob qilgan insonning xulosasi ifodalangan. Yozuvchi qahramon tilidan butun bir avlodning fojiasini iqror ko‘rinishida aks ettiradi. Bu yerda “uyqu dori” – kommunistik g‘oyalarning, “tush” – shu g‘oyalar ichida o‘tgan umrning ramzi bo‘lib kelgan.

Romanda Rustam obrazi orqali afg‘on urushi ishtirokchilarining, Shomansur Shomatov obrazi orqali qatag‘on qurbonlarining taqdiri aks ettirilgan bo‘lsa, komissar Soat G‘aniyev obrazi va uning o‘tmishi tafsilotlari orqali muallif Sobiq Ittifoq hukumatining bir necha bosqichda olib borgan qatag‘on siyosatini tasvirlaydi. Adabiyotshunos olim Abdug‘ofur Rasulov romanda Soat G‘aniyev obrazining qo‘llanilishi haqida quyidagicha fikr bildiradi: *“O‘tkir Hoshimov bir vaqtlar ko‘klarga ko‘tarilgan komissar-hukumat va partiyaning suyangan tog‘ini salbiy tip sifatida talqin etdi. Komissar xarakterida Sho‘ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar aks etgan...”*⁹² Komissarning ruhiy holatini ifodalovchi ichki

⁹¹ Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2016 – 240-бет.

⁹² Rasulov A. Ardoqli adib. – T.: “SHARQ”, 2001 – 67-bet

nutq tasvirlarida bu obrazning xarakter xususiyatlari aniq ko‘rinadi. Soat G‘aniyevning barcha narsadan gumonsirash, hammaga dushman sifatida qarash kabi munosabatlari fonida “chekistcha tarbiya”ning salbiy oqibatlarini bayon etiladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra komissar G‘aniyev umumlashma obraz hisoblanadi.

Rustam va uning otasi deputat Shomatovlar o‘zlariga nisbatan qilingan adolatsizlikdan so‘ng ko‘zlari ochilib, umrlari yolg‘on aqidalarga aldanish bilan o‘tganini, hayotlarining boy berilgan yolg‘on taqdir asosiga qurilganligini kech bo‘lsa ham anglab yetadilar. Shu sababli ularning umrini “tushda kechgan umr” deb baholash o‘rinli. Bu obrazlar Remark qahramonlari singari atrofdagi jarayonlar haqida fikr yuritadilar, ularning ongidagi jarayonlar asl haqiqatni anglab yetish yo‘lida tadrijiy rivojlanib boradi. Soat G‘aniyev obrazida esa bunday holat uchramaydi. Biroq Komissar Soat G‘aniyev o‘tgan umridan afsuslanmaydi, o‘z dunyoqarashini o‘zgartirmaydi. Biroq uning taqdiriga e‘tibor qaratilsa, komissarning ham umri “yolg‘on taqdir” asosida o‘tganligini aniqlanadi. U minglab odamlarning qarg‘ish va nafratiga muhtalo bo‘ldi. O‘z farzandlari undan yuz o‘girishdi. Komissar va uning o‘g‘illari o‘rtasidagi munosabat fonida bu aniqroq ko‘rinadi. Shu sababli Soat G‘aniyevning ham umrini “tushda kechgan umrlar” qatoriga kiritish mumkin.

Soat G‘aniyevdan jabr ko‘rgan Fotimaning qizi Qurbonoy xola ham o‘z hayotini nima uchun sarflaganini bilmaydi. O‘t pufagiga tosh to‘planib qolgan, buning natijasida sog‘ligi yomonlashib ishga yaramay qolgan bo‘lishiga qaramay, har kungi kundalik yumushlarini qo‘ymaydigan, doktorlar man etishsa ham o‘z bilganidan qolmay kundalik tashvishlari bilan band bo‘ladigan bu ayolning umri ham huddi tushdagidek mazmunsiz va bexalovat kechdi. Shu tariqa, Qurbonoy xola obrazida ham boshqa qahramonlar singari “behuda umr” xususiyati mavjud.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham muhabbat tasviri mavjud. Ammo Rustam va Shahnoza o‘rtasidagi bu muhabbat fojia bilan yakunlanadi. Shu xususiyatiga ko‘ra ham bu roman “Uch og‘ayni” bilan o‘xshashlik kasb etadi. Biroq, “Tushda kechgan umrlar” romani voqealari kengroq davrni qamrab oladi. Agar “Uch og‘ayni” romanida voqealar bir yil ichida kechsa, “Tushda kechgan

umrlar”da XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan qariyb oltmish yillik davrning ma’lum bosqichlari tasvirlanadi. Bu jarayonda komissar Soat G‘aniyev obrazi asosiy o‘rin tutadi. Komissarning bolaligi, undagi ilk shafqatsizlik va yovuzlik belgilarining paydo bo‘lishi SSSR qurilgan dastlabki davrlarga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida “SMERSH”chilar safida, urushdan keyin esa NKVD organida qilgan ishlari XX asrning 40-50-yillari voqealarini qamrab oladi. Asarning Rustam bilan bog‘liq jarayonlari: afg‘on urushi, “o‘zbek ishi” voqealari esa 80-yillarni aks ettiradi. Umuman, “Uch og‘ayni” va “Tushda kechgan umrlar” romani o‘rtasida farqli jihatlar ham ko‘p. “Uch og‘ayni”da, asosan, I jahon urushidan keyingi davrning og‘ir hayoti, urushning asoratlari sabab hayoti izdan chiqqan insonlar taqdiri tasvirlangan bo‘lsa, “Tushda kechgan umrlar” romanida nafaqat urush va uning oqibatlari, balki butun mustamlakachilik zulmi va qatag‘on siyosatining insonlar hayotiga salbiy ta’siri badiiy ifodasini topgan. Lekin, har ikki roman ham urushning salbiy oqibatlari keyingi hayotga ham ta’sirini o‘tkazganligini aks ettirishi, “yo‘qotilgan avlod” va “yolg‘on taqdir” xususiyatlarini o‘zida ifodalagan obrazlari bilan umumiylik kasb etadi.

BOB BO‘YICHA QISQA XULOSA

Nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning I jahon urushi mavzusidagi “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Uch og‘ayni” romanlari bilan O‘tkir Hoshimovning afg‘on urushi va qatag‘on mavzusida yozilgan “Tushda kechgan umrlar” romanlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Bu aloqadorlik urushning salbiy asoratlari ta’sirida hayoti izdan chiqqan personajlar taqdirining badiiy ifodasi orqali anglashiladi.

Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida I jahon urushi frontlarida kechgan voqealar bosh qahramon Paul Boymer tilidan hikoya qilinib, bu urushning yosh avlod taqdiriga ko‘rsatgan fojiali ta’siri ifodalangan. Shunday xususiyat O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romaniga ham xos. “Tushda kechgan umrlar”da ham urush frontlaridagi epizodlar va ularning inson taqdiri, ruhiyatiga salbiy ta’siri aks ettirilgan. O‘tkir Hoshimov ham Remark

singari bosh qahramon tilidan urush voqeligini aks ettiradi. Undan tashqari, ushbu asarlarda simvolizm, psixologik tasvir, ichki nutq kabi elementlardan ham unumli foydalanilgan. Bu – har ikki romanga xos boʻlgan umumiy xususiyatlar. Farqli jihati shundaki, Remark I jahon urushini, Oʻ.Hoshimov esa afgʻon urushini tasvirlaydi. Shuningdek, Remark urush voqealarini toʻgʻridan-toʻgʻri hikoya qilish usulidan foydalansa, Oʻ.Hoshimov kundalik detalini qoʻllab, Rustamning kundaliklari vositasida urushni talqin etadi. “Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” romanining barcha qahramonlari halok boʻlishadi. “Tushda kechgan umrlar” romani bosh qahramoni Rustam esa uyiga tirik qaytadi. Chunki Oʻ.Hoshimov romanida faqat urush voqeligini emas, 80-yillar qatagʻonini ham tasvirlaydi. Bu jarayonda Rustamning urushdan qaytganidan keyingi kechmishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Remarkning “Uch ogʻayni” romani urushdan qaytgan sobiq askarlar, shuningdek, urushda ishtirok etmagan boʻlsa ham shu urushning salbiy asoratlari ostida qolgan jamiyatda yashayotgan insonlar taqdiri haqida hikoya qiladi. Ushbu romanda ham tipik obrazlardan unumli foydalanilgan holda urushning vayronkor mohiyati ochib beriladi. Roman qahramonlarini uch guruhga boʻlish mumkin: 1) oʻz insoniy qiyofasini maʼlum darajada saqlab qolgan, hayotdan oʻzlariga yupanch qidirayotgan obrazlar. Bu guruhga bosh qahramonlar: Robert Lokamp, Otto Kester, Gotfrid Lents, Patritsiya Xolman, shuningdek Valentin Gauzer kabi obrazlar kiradi; 2) urushdan keyingi ogʻir hayotga moslasha olmayotgan, maʼnaviy qiyinchilik ostida hayot kechirayotgan obrazlar. Bu guruhga Alfons, Grau, Xasse kabi qahramonlar kiradi; 3) buzilgan jamiyat va ijtimoiy illatlar, chorasizlik natijasida butunlay hayoti izdan chiqqan, maʼnaviy qiyofasini yoʻqotgan obrazlar. Ushbu guruhga Lilli, Roza, Artur kabi personajlar mansub. “Uch ogʻayni” romanida doʻstlik, muhabbat kabi ezgu tushunchalar va pastkashlik, xudbinlik kabi illatlar oʻrtasidagi ziddiyat aks etadi. Urush taʼsirida iqtisodiy va maʼnaviy muammolar girdobida qolgan jamiyat tipik obrazlar vositasida tasvirlanadi.

Oʻtkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida afgʻon urushi va

mustabid tuzumning salbiy asoratlari ta'sirida hayoti barbod bo'lgan qahramonlar taqdiri o'z aksini topgan. Shu xususiyatiga ko'ra bu roman "Uch og'ayni" bilan umumiylik kasb etadi. O'tkir Hoshimovning romanida ham Remark romanlaridagi kabi davrning adolatsizligi, hukumatning adolatsiz siyosati qurboni bo'lgan kishilarning fojiali taqdiri, o'y-kechinmalari tasviri yetakchi o'rinda turadi. Ayniqsa, urush bilan bog'liq bo'lgan epizodlar, urushning insonlar boshiga (nafaqat urush paytida, balki urushdan keyin ham) cheksiz kulfatlar solishi, ko'plab insonlarning hayotini barbod qilishi ta'sirli yo'sinda, tipik obrazlar vositasida ifodalangan. "Uch og'ayni" va "Tushda kechgan umrlar" romani qahramonlarini "yo'qotilgan avlod"ga xos xususiyatlar birlashtirib turadi.

UMUMIY XULOSA

1. Urush mavzusida yaratilgan dastlabki asarlar xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlib, bunday asarlarda qahramonlik motivi va tantanavor ruh ustun turgan. Xalq eposlari syujetlari asosida qadimgi ijodkorlar tomonidan yozma dostonlar ham yaratilgan. Ushbu qahramonlik eposlari, jangnoma va dostonlarda bahodirlarning kuch-qudrati va maʼnaviy fazilatlarini urush tasvirlari vositasida madh etilgan. Qadimgi davr va oʻrta asrlar adabiyotida urush hodisasi qahramonlik va jasorat vositasi sifatida talqin etilgan.

2. Uygʻonish davridan keyin Yevropa adabiyotida urushga boʻlgan munosabat oʻzgara boshladi. Bunga gumanizm gʻoyasining keng tarqalishi sabab boʻldi. Endilikda, urush mavzusidagi asarlarning qahramonlari qudratli bahodir koʻrinishidagi ideal obrazlar sifatida emas, jabrlangan, fojiali taqdir egasi boʻlgan real obrazlar sifatida tasvirlana boshlandi.

3. XX asrga kelib, Gʻarb prozasida urush vayronkor hodisa sifatida talqin etildi. Urush mavzusidagi asarlarda patsifizm gʻoyasi yetakchi oʻrinni egalladi. A.Barbyus, S.Fitsjerald, E.Xeminguey, R.Oldington, U.Folkner, E.M.Remark kabi yozuvchilarning asarlarida urushning gʻayriinsoniy mohiyati, insoniyat hayotiga salbiy taʼsiri realistik obrazlar vositasida tasvirlandi.

4. Nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark asarlarida urush mavzusi yetakchi oʻrinni egalladi. Remark romanlari ikki guruhga boʻlinadi: 1) “yoʻqotilgan avlod” haqidagi asarlar; 2) muhojirlik mavzusidagi asarlar. Remark har ikki guruhga mansub asarlarida jahon urushlari sababli hayoti izdan chiqqan obrazlarni tasvirlaydi.

5. XX asr oʻzbek nasrida urush mavzusi muhim oʻrin tutadi. Ikkinchi jahon urushi va afgʻon urushi haqida qator asarlar yaratildi. Ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan asarlarning aksariyatida qahramonlik motivi, afgʻon urushi mavzusidagi asarlarda esa fojiaiy ruh ustun turadi.

6. Oʻ.Hoshimov ijodida urush mavzusi alohida oʻringa ega. Adibning “Urushning soʻnggi qurboni” va “Ikki eshik orasi” romanida ikkinchi jahon urushi,

“Nega, nega-a!” hikoyasi va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida afgʻon urushining salbiy oqibatlari aks ettiriladi. Oʻ.Hoshimovning urush mavzusidagi barcha asarlarida qahramonlarning taqdiri fojiali kechadi va bu orqali patsifizm gʻoyasi ifodalanadi.

7. E.M.Remarkning “Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” va Oʻ.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida askar obrazi bosh qahramon sifatida tasvirlangan. Har ikki romanda frontdagi askarlarning ichki kechinmalari, psixologik holati vositasida urushning yoshlar ongi va ruhiyatiga taʼsiri aks ettirilgan. Asarlarda tipik obrazlar, psixologik tasvir va simbolizm elementlaridan unumli foydalanilgan.

8. “Uch ogʻayni” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida asosiy obrazlar “yoʻqotilgan avlod”ga xos xususiyatlarga ega. “Uch ogʻayni” romanida birinchi jahon urushining salbiy asoratlari, “Tushda kechgan umrlar” romanida afgʻon urushi va qatagʻon siyosatining oqibatlari tipik obrazlar vositasida aks ettiriladi. “Yoʻqotilgan avlod” qahramonlariga xos “behuda umr”, “yolgʻon taqdir” kabi xususiyatlar har ikki romandagi personajlar taqdirida oʻz ifodasini topgan.

9. E.M.Remark va Oʻ.Hoshimovlarning urush mavzusida yozilgan asarlarida quyidagi umumiy xususiyatlar mavjud: 1) patsifizm gʻoyasining ifodalanishi; 2) tipik obrazlardan foydalanilishi; 3) ichki nutq va psixologik tasvirlarning keng qoʻllanilishi; 4) tragik pafosning ustunligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2009
2. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvdagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi – 2017-yil, 3-avgust.

Ilmiy-nazariy va ilmiy-metodologik adabiyotlar:

3. Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1969
4. Ahmad S. Ijod va jasorat. //Ahmad S. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent: “SHARQ”, 2000
5. Аҳмад С. Қўрқинчли тушлар. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1996-yil 25-sentabr
6. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1987
7. Bevan D. Literature and War. – Amsterdam: “Rodopi”, 1989
8. Фрамкин И. Антифашистские романы Ремарка. // Ремарк Э.М. Избранное, II том. – Москва: “Правда”, 1990.
9. Герасимова И.Ф. Патриотические мотивы в русской военной поэзии начального периода Первой мировой войны //Вестник Нижегородского университета. Языкознание и литературоведение. – 2014, № 2.
10. Goldensohn L. XXth century Soldier-Poetry. – New-York: “Columbia Univercity Press”, 2003
11. Hynes S. War Imagined: The First World War and English Culture. – London: “Bodley Head”, 1990
12. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Расулов А. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1999
13. Klein H. Basic Attitude and Enemy Images in the Representation First World War by Remarque // War and Literature – 1989, 4. Vol. I
14. Krimmer E. Representation of War in German literature. – Cambridge, UK: “Cambridge Univercity Press”, 2000

15. McLoughlin K. Companions to Literature. – New-York: “Columbia Univercity Press”, 2009
16. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari, – T.: “Fan”, 1993
17. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005
18. Мухтор А. Кўхна дунё комуси. // Ҳомер. Илиада. – Т.: “Адабиёт ва санъат”, 1988
19. Норматов У. Бадиий кашфиёт. “Ўзбекистон овози” gazetasi, 1996-yil 30-oktabr
20. Норматов У. Такдирлар романи. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1985-yil 27-noyabr
21. Norris M. Writing War in XXth century. – Charlottesville: “Univercity Press of Virginia”, 2000
22. Норқобилов Қ. Қизғалдоқ ва танк. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1993-yil 16-iyul
23. Parvanova M. “...das Symbol der Ewigkeit ist der Kreis”. Eine Untersuchung der Motive in den Romanen von Erich Maria Remarque. – Berlin: “Tenea”, 2003
24. Похаленков О.Е. Эрих Мария Ремарк и Арно Зурмински (проблема взаимодействия литературной традиции в военной прозе). // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2017, Т.9, вып.3
25. Қаюмов О. Чет ел адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1979
26. Qosimov A., Xo‘jayev S. XX asr G‘arb adabiyoti. – Toshkent: “Akademnashr”, 2011
27. Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет ел адабиёти тарихи. – Фарғона, 2002
28. Qo‘chqor R. Mavjudlik muammosi // “Tafakkur” jurnali. 2014-yil, 4-son
29. Rasulov A. Ardoqli adib, – T.: “SHARQ”, 2001
30. Расулов Т. Ўтиқодлар романи. “Ўқитувчилар газетаси” , 1985-yil 20-dekabr

31. Riggs T. The Literature of War. – Detroit: “St.James”, 2012
32. Саидмуродов С. Тинчлик номи ила. // Ремарк Э.М.. Лиссабондаги тун. – Т.: “O‘ZBEKISTON”, 2016
33. Саидов А. Уилям Фолкнер – инсонпарвар ёзувчи. // Фолкнер У. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013
34. Solijonov Y. “Ikki eshik orasi”dan “Lolazor”ga o‘tguncha. “Sharq yulduzi” jurnali, 2001-yil 4-son
35. Староверова Е. В. “Потерянное поколение” в литературе. – Санкт-Петербург: “Лицей”, 2005.
36. Топер П.М. Война и история (Советская литература о Великой Отечественной войне в контексте мирового литературного контекста). – Москва: “Наука”, 1985.
37. To‘rayeva U. Davr va qahramon. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2000-yil 2-son
38. Vernon A. War. Critical Insights. – Ipswich: “Salem”, 2013
39. Ўлжабоев У. Ўзбек ҳарбий прозасида характер яратишнинг баъзи муаммолари. – Toshkent, 1989

Adabiy-badiiy adabiyotlar:

40. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2016
41. Hoshimov O‘. Uzun kechalar. – Т.: “O‘ZBEKISTON”, 2018
42. Remark. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2016
43. Ремарк Э. М. Лиссабондаги тун. – Тошкент: O‘ZBEKISTON, 2016
44. Ремарк Э. М. Уч оғайни. – Т.: ШАРҚ, 2015
45. Heminguey E. Chol va dengiz. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017

Internet manbalari:

46. www.arxiv.uz
47. www.wikipedia.uz
48. www.ziynet.uz
49. <http://navoine.info/lost>
50. <https://uz.m.wiktionary.org>